

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI**

ZUHRIDDIN ALIMOV

**MARKAZIY OSIYO TARIXI
QIYOSIY MANBASHUNOSLIK
GERMENEVTIKASI
(o'quv qo'llanma)**

**TOSHKENT
2021**

Alimov Z.I. Markaziy Osiyo tarixi qiyosiy manbashunoslik germe-nevtikasi (o'quv qo'llanma) – Toshkent: TDSHU, 2021. – B. 176.

Mazkur o'quv qo'llanmada Markaziy Osiyo tarixi qiyosiy manbashunoslik germe-nevtikasi fanining asosiy mavzulari qamrab olingan bo'lib, u orqali talabalarda Markaziy Osiyo tarixiga doir manbalar haqida ma'lumot hosil qilish, tarixiy manbalarni tadqiq etishda qiyosiy tahlil qilish orqali germe-nevtika metodidan foydalanish yo'llarini o'rgatish, natijada, manbalarga chuqur kirib borish, ularni o'rganishdagi muam-molar bilan tanishish va bartaraf etish, manbalardagi farqlar yuzasidan yagona xulosa bera olish bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga erishiladi.

Ushbu o'quv qo'llanma Tarixshunoslik, manbashunoslik va tarixiy tadqiqot usullari mutaxassisligi bo'yicha ta'lim ola-yotgan magistratura bosqichi talabalari uchun mo'ljallangan.

Mas'ul muharrir:

Tarix fanlari doktori, professor

Mirsodiq Is'hoqov

Taqrizchilar:

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ravshan Xudayberganov

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Bahriddin Umurzoqov

Ushbu o'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasi

Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining

2021-yil 25-dekabrdagi 538-sonli buyrug'iga

asosan nashrga tavsiya etilgan.

© Z.I. Alimov, 2021

© Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, 2021

KIRISH

Boy tarixni o'rganish va o'rgatish deganda, faqat yozma manbalarda mavjud ma'lumotlar to'g'risidagi bilim va tushunchalarni shunchaki mexanik tarzda talabalarga yetkazish emas, balki an'anaviy va zamonaviy pedagogik usullarning eng qulay va samarali vositalaridan foydalangan holda, ularda manbalar to'g'risida tushuncha, bilim va ulardan foydalanish malakasini hosil qilish bilan birga, tariximiz to'g'risida mustaqil fikr yuritishga o'rgatishni ham tushunamiz.

Buning uchun esa, yurtimiz tarixini o'rganishda yozma manbalardan foydalanishning ilmiy va metodik asoslarini ishlab chiqish va amaliyotga tavsiya etish tarix va pedagogika fanlarining eng muhim va dolzarb muammolaridan biridir. Bu masala juda keng qamrovli bo'lib, yozma manbalarning tadqiq etishni ilmiy metodik asoslarini chuqur o'rganib chiqishni taqozo etadi.

Ushbu fan talabalarda tarixning yozma manba asoslari haqida aniq tushunchalar hamda bilim va ko'nikmalar hosil qilishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Talaba ta'lim jarayonida manbalarning turlari, ularning fan uchun ahamiyati to'g'risida aniq bilim va tasavvurga ega bo'ladilar. Shu bilan birga talabalarga manbalar bilan ishlash bo'yicha tasavvurlar beriladi. Ma'lumki, tarixiy manbalar, xususan, yozma yodgorliklar turli davr xususiyatlarini o'zida saqlagan bo'ladi. Bunda muallifning maqsadi, o'z davrining mafkuraviy talablari kabi qator holatlar borki mazkur fan talabalarga bular haqida to'g'ri va mukammal ma'lumotlar berishi lozim. Chunki tarixiy fakt va voqealar bayonida muallifning ijtimoiy qarashlari, ba'zan jamiyatdagi o'rni, mafkuraviy, diniy, ma'naviy qarashlari, ma'lum ijtimoiy guruh manfaatlarini himoya qilish asarning asosiy mazmun mohiyatini belgilashi tushuntiriladi.

Markaziy Osiyo tarixi qiyosiy manbashunoslik germe-nevtikasi fani orqali talabalarda Markaziy Osiyo tarixiga doir manbalar haqida ma'lumot hosil qilish, tarixiy manbalarni tadqiq etishda qiyosiy tahlil qilish orqali hermenevtika meto-

didan foydalanish yo'llarini o'rgatish, natijada, manbalarga chuqur kirib borish, ularni o'rganishdagi muammolar bilan tanishish va bartaraf etish, manbalardagi farqlar yuzasidan yagona xulosa bera olish bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantiriladi. Markaziy Osiyo tarixiy manbashunosligining qiyosiy germenevtikasi fanining vazifasi esanazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar orqali talabalarni Markaziy Osiyo tarixiy manbashunosligi doirasidagi manbalar bilan tanishtirish, manbalardan foydalanish yo'llarini o'rgatish, manbalarni tadqiq etish jarayonida mavjud bo'lgan muammolar va ularni bartaraf etish yo'llarini ko'rsatish, manbalarning ichki mohiyatini anglash ko'nikmasini bo'lajak manbashunoslarda hosil qilish, manbalarni qiyoslash orqali germenevtik metod yordamida tadqiq etishning Markaziy Osiyo tarixni o'rganishdagi o'rni va ahamiyatini ochib berish.

Ushbu o'quv qo'llanma Tarixshunoslik, manbashunoslik va tarixiy tadqiqot usullari mutaxassisligi bo'yicha ta'lim olayotgan magistratura bosqichi talabalari uchun mo'ljallangan.

MARKAZIY OSIYO TARIXI QIYOSIY MANBASHUNOSLIK GERMENEVTIKASI FANINING MAQSAD VA VAZIFALARI

Markaziy Osiyo tarixi qiyosiy manbashunoslik germe-nevtikasi fanini o'qitishdan maqsad – talabalarda bu kurs orqali Markaziy Osiyo tarixiga doir manbalar haqida ma'lumot hosil qilish, tarixiy manbalarni tadqiq etishda qiyosiy tahlil qilish orqali hermenevtika metodidan foydalanish yo'llarini o'rgatish, natijada, manbalarga chuqur kirib borish, ularni o'rganishdagi muammolar bilan tanishish va bartaraf etish, manbalardagi farqlar yuzasidan yagona xulosa bera olish bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishdir.

Markaziy Osiyo tarixi qiyosiy manbashunoslik hermenevtikasi fanining vazifasi esa–nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar orqali talabalarni Markaziy Osiyo tarixiy manbashunosligi doirasidagi manbalar bilan tanishtirish, manbalardan foydalanish yo'llarini o'rgatish, manbalarni tadqiq etish jarayonida mavjud bo'lgan muammolar va ularni bartaraf etish yo'llarini ko'rsatish, manbalarning ichki mohiyatini anglash ko'nikmasini bo'lajak manbashunoslarda hosil qilish, manbalarni qiyoslash orqali hermenevtik metod yordamida tadqiq etishning Markaziy Osiyo tarixni o'rganishdagi o'rni va ahamiyatini ochib berish.

Ma'lumki, hermenevtika termini G'arbiy Yevropada XVIII asrda fanga kirib keladi. Bu terminning ma'nosi yunon asotirlariga ko'ra, yo'lovchi va savdogarlarning homiy xudosi "Germe" so'zidan olingan. Bu tushuncha asli falsafada tushunish va tushuntirishni o'rganuvchi mustaqil fandir. Hermenevtika metodini Vilgelm Diltey, Fridrix Shleyermax, Edmund Gusserl, Martin Xaydegger, Xans Georg Gadamerlar kuchli tahlil qilib, u metodning ahamiyatini ochib berishga harakat qiladi. Shukur Jabborov hermenevtika haqida "Hurriyat" gazetasida e'lon qilgan maqolasida Quroni Karimni tafsir va ta'vil etishni hermenevtik metodga shartli ravishda qiyoslaydi.

Germenevtika metodini tarixiy manbashunoslikda qo'llash bu sohadagi ko'plab muammolarning bartaraf etilishiga sabab bo'la oladi. Masalan, germenevtikani manbaning tub mohiyatiga kirib borish uchun metod sifatida qo'llay olamiz. Chunonchi, umumiy tavsiflasak, asar muallifi manbani yozishda tushunish va tushuntirishdan foydalangan va biz ham o'sha manbani o'rganishda xuddi shu usuldan foydalanamiz. Demak, germenevtika metodi tadqiqotchi tomonidan asarni o'rganishni boshlagandanoq bilvosita va bevosita turli maqsadda ishga tushadi. Shu o'rinda savol tug'iladi. Xo'sh germenevtikani manbalarni tushunish va tushuntirishda qanday maqsadlarda qo'llash mumkin? Bu o'rinda ta'kidlash kerakki, bir davrga doir voqealar yoritilgan asarlarda ayrim sabablarga ko'ra (biror bir davr haqida ma'lumot beruvchi asarlarning turli vaqtlarda bir-biri mavjud ekanligidan xabarsiz shaklda yozilishi, muallif shaxsiy manfaatlari asosida voqea tavsifini o'zgartirishi, eshitilib yozilgan manbalardagi farq va b.) ko'plab farqlar mavjud bo'lishi mumkin. Masalan, Qo'qon xonligi tarixiga doir bugungi kunda qirqdan ortiq qo'lyozma asarlar aniqlangan bo'lib, ularda bir-birini inkor etuvchi farqlar anchaginani tashkil etadi. Bu Qo'qon tarixiga doir amalga oshirilayotgan tadqiqotlarda ayrim muammolarni keltirib chiqaradi. Masalan, tadqiqotchi e'tiborini qaratgan voqea ikki manbada, ba'zan undan-da ko'p manbalarda har xil tasvirlangan va bir-birini inkor etadi. Natijada bu muammoni bartaraf etish lozim bo'ladi. Aynan shu jarayonda germenevtika metodini qo'llash masalani ijobiy hal etishga yordam beradi.

Shu o'rinda yana bir muammo paydo bo'ladi. Manbalardagi farqlarni tushunish va yakdil xulosa orqali tushuntirishda germenevtika metodini qanday qo'llash mumkin?

Bu holatda muallif va uning asariga e'tibor qaratmoq lozim. Chunonchi Diltey tushunishni matn muallifining ma'naviy dunyosiga kirish sifatida tavsiflaydi. Ya'ni tushunish jarayoni muqarrar ravishda tushunishga harakat qilayotgan narsaga qo'shimcha ma'no yuklash bilan bog'liq. Binobarin, tarixchi

oldin yozilgan asarni, yoki voqea tafsilotini kimdandir eshitib qanday tushungan bo'lsa, shunday tushunishining o'zi yetarli bo'lmaydi. Demak. Tushunish ijodiy jarayon bo'lib, muallif yuklagan ma'noni aynan aks etilishigina emas, balki unga tanqidiy baho berish, ijobiy jihatlarini saqlab qolish, ma'noni o'z davri voqelikning mazmuni bilan boyitishni nazarda tutadi. Demak, bu muallifning asarni yaratishda roli yuqori ekanligini ko'rsatadi. Xo'sh asarlardagi qarama qarshiliklarni germenevtik jihatdan tahlil etishda muallifning qaysi jihatlariga alohida e'tibor qaratmoq lozim?

Birinchi o'rinda biz muallifning mansublilik darajasini belgilashimiz lozim. Muallifning asarni yozish jarayonida tarixiy dalillardan qanday foydalanganiga ham e'tibor qaratmog'imiz lozim.

Ma'lumki, tarixni yaratishda tarixchilar dalil sifatida o'zidan oldin yaratilgan asarlar, balki, og'zaki manbalar, afsonalar, rivoyatlardan ham foydalangan. Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, dalillar bizgacha hech qachon sof holda yetib kelmaydi, ular tarixchining ongida ta'sirga uchrab, daxlsiz holatda tarixchining qarashlari va interpretatsiyasini ifodalaydi. Shu o'rinda muallif asar yaratishda real voqeaning sababiga dalil sifatida ayrim holatda afsona va asoslanmagan og'zaki tarixdan foydalanadi. Uni haqiqat deb biladi. Masalan, Muhammad Hakimxon To'ra "Muntaxab at-tavorix" asarida Abdurahimbiyning o'limi sababini shunday tariflaydi: "Rahimxon katta obro' bilan Samarqand sari ravona bo'ldi. Bul shaharga kirib kelgach, tabiatida og'ir bir xastalik paydo bo'ldi. Ayrimlar aytishicha, u hazrat shayx Qusam ibn Abbos – Alloh undan rozi bo'lsin –mozoriga zinalardan otda chiqib borib, shu beadabligi sababli bunday kasalga mubtalo bo'lgan".¹ Demak, Muhammad Hakimxon Abdurahimbiyning o'limiga sabab sifatida xalq orasidagi afsonani dalil sifatida keltirmoqda. Mahdum Hoji

¹ Muhammad Hakimxon To'ra. Muntahab at – tavorix. (Xo'qand va Buxoro tarixi, sayohat va xotiralar) Fors-tojik tilidan tarjimon Shodmon Vohidov. T.: "Yangi asr avlodi", 2010. 231 b.

“Tarixi Turkiston” asarida Shohruxbiyning o‘limiga to‘xtab, quyidagi ma’lumotlarni keltiradi: “Shohruxxonni vafoti musannifi “Tarixi Shohruxiy” forsiy zaboni tilida shul tariqa tarix aytubdur: lafzi “atrok”ni “xon Shohrux”din ixroj qilinganda tarix, ya’ni 1124/1712 – inchi yil hosil bo‘lar ekan. Yana ba’zi zufarolar: Shohruxxon vafoti tarixi ba’zi alfozlar mullo Bozor Oxundni muridlari og‘zidan chiqqan ekan, moddai tarix topibdur. Oning hikoyasi shul ekankim, vafotiga Shohruxxon Xo‘qand shahrining qal’a va ark binolarida Naman-gonlik mullo Bozor Oxundni muridlaridin bir odamni mardikor qilib ishlatib yurgan ekan. Bu xabarni mulla Bozor Oxund eshitib oni xalos qilmoq uchun Xo‘qandga kelib Shohruxxondin ul murudlarini iltimos qilgan ekan. Xon iltimoslarini rad qilibdur. Shayx xondin xafa bo‘lib qaytib, Qoravultepada bir muridlarining uyiga borib, devorga Shohruxxon tasvirini tortib, o‘q-yoy ila ul suratga qarab otib, mizbonga aytibdurlar “Shohrux murd” deb. Bu hodisa payshanba kuni juma kechasi ekan. O’sha juma kuni xonni kiftiga bir yomon yara chiqib, vafot qilibdur. Bir necha kundan keyin mullo Bozor Oxundni bir muridlari Qorovultepag’a, o’shal uyga qo‘nganda sohibi xonadon voqeasini bayon qilib, shayx jo’naganlari hamono xon vafot qildi debdur. Bul tarixni aytuvchi muarrix uzr bayon qiladurkim, bul hikoya va tarixni bayon qilganimdan muddao toifai ahlullohni dillarini ozurda qilmoqlik alomati intiqol va zavoli umr va mulki davlatdir. Minbad xoni zamonlarga ibrat uchun bu hikoyani bayon qildim”.¹ demak “Tarixi Turkiston” asarida ham Shohruxbiy o‘limiga sabab sifatida xalq orasidagi afsona asos qilib olingandek ko‘rinadi bir qarashda. Lekin, voqeani yoritib berayotgan muallifning izohiga qaralsa, muallif o‘z fikrlari orqali o‘zi yozgan ma’lumotni butkul inkor etayotganligini va bu ma’lumotni diniy ma’rifat vakillari hurmatini oshirish maqsadida yozganligini bildirmoqchi bo‘lganligini anglaymiz.

¹ Mirzo Olim Mahmud Xoji. Tarixi Turkiston. T.: “Yangi asr avlodi”, 2009. 50 b.

Germenevtik metodni qo'llashda muallifga qo'yilgan keyingi talab, u asarida bergan ma'lumotini qayerda qaysi manbadan olganidir. Chunonchi, N.Jo'rayevning fikricha, tarixiy manbalarni o'rganishda uning asosli va asosli emas ekanligini aniqlash juda muhim. Chunki tarixiy manbani yaratgan muallif o'z manfaatlari doirasida, o'z maqsadlari va qiziqishlari chegarasida dalil to'playdi.¹

Bugungi kunda ko'pchilik tarixchilar manbalarning eng qimmatlisi dastlabki ma'lumotlar yoritilib berilgan manbalar, ya'ni birlamchi manbalardir, deb undagi ma'lumotlarni asos qilib oladilar. Lekin, biz bunga amal qilib, birinchi yaratilgan manbani doimo to'g'ri deb asos qilib olishimiz ham to'g'ri emas.

Manbaning tanlanishi va uning tahlili tarixchining ayni vaqtda tadqiq etilayotgan muammo yuzasidan qanchalik bilimga va ma'lumotga ega ekanligi bilan bog'liq. Bunda tarixchining tadqiqot jarayonidagi manbadan tashqari bilimlari muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, tarixchi o'z ko'zi bilan ko'rgan, eshitgan, o'qigan voqeani yozishda umuman jarayonni o'z holicha tasvirlamaydi va tasvirlay olmaydi ham. Ya'ni, u o'zi ko'rgan yoki eshitgan voqeani o'ziga qabul qiladi, so'ng o'zining bilim darajasidan kelib chiqqan holda qog'ozga tushiradi. Yoki, shu voqea oldin boshqa asarlarda yozilgan bo'lsa uni o'zi topgan ma'lumotlari bilan boyitadi. Agar ma'lumotni kompilyatsiya holida bergan bo'lsa, oldingi asar jumllarida, ma'lumot ruhida farq mavjud bo'ladi. Bu manba muallifining dunyoqarashi, fikrlashi qay darajada bo'lganligini bilishni talab etadi. Ta'kidlash kerakki, buni aniqlash uchun muallif dunyoqarashiga ta'sir qiladigan omillarga alohida e'tibor qaratmoq lozim. Bunda omillarga quyidagilarni keltirib o'tishimiz mumkin:

- muallifning yashagan vaqti;
- muallifning moddiy imkoniyati;
- muallifning ta'lim olganligi darajasi;
- ta'limda qaysi ilmlardan xabardorligi;

¹ Tarix falsafasining nazariy asoslari. 81 b.

O'QUV QO'LLANMA

- muallifning qanday ish bilan shug'ullanganligi;
- muallifning asarni nima maqsadda yozganligi;
- asar yozishda uning atrofida qilargilarning ta'siri;
- asardan kutayotgan maqsadi.

Xullas, germeneytik metodni manbalarni tadqiq etishda qo'llash jarayonida tadqiqotchi asar muallifi va manbadagi ma'lumotlarga nihoyatda e'tiborli bo'lishi va barcha jihatlarni hisobga olishi lozim.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Markaziy Osiyo tarixi qiyosiy manbashunoslik germeneytikasi fanining obyekti, predmeti, maqsad va vazifalari.
2. Germeneytika metodini ta'riflang.
3. Germeneytika sohasining vujudga kelish tarixi.
4. Tarix yaratishda xolislik masalasi.

QADIMGI DAVRDAN VIII ASRLARGACHA BO'LGAN DAVR MANBALARINI O'RGANISHDA QIYOSIY GERMENEVTIKANING O'RNI

Markaziy Osiyo hududi ham Eron, Hindiston, Mesopotamiya, Yunoniston, Rim, Misr va Xitoy singari mamlakatlar kabi ilk madaniyat o'choqlaridan hisoblanadi. Lekin uning qadimiy madaniyati haqida ma'lumotlar juda kam saqlanib qolgan. Biz yurtimizning faqat miloddan avvalgi VI asrlardan keyingi ijtimoiy-siyosiy hayoti haqida ma'lum darajada yozma ma'lumotlarga egamiz.

Eron, Hindiston va ayniqsa, qadimgi Yunoniston va Rim manbalarida saqlangan ma'lumotlarga qaraganda, qadim zamonlarda hozirgi Markaziy Osiyo hududida istiqomat qilgan saklar, massagetlar va boshqa qabilalar urug'chilik tuzumini boshdan kechirganlar, chorvachilik, qisman dehqonchilik hamda hunarmandchilik bilan shug'ullanganlar.

Miloddan avvalgi VI asrda yurtimiz Ahamoniylar davlati (miloddan avvalgi 550 – 330-yillar) asoratiga tushib qoldi. Ana shu davrda bu yerda istiqomat qilgan xalqlar hayotida muhim ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar sodir bo'ldi. Urug' jamoalari orasida tabaqalanish boshlandi: yangidan paydo bo'lgan urug' asilzodalari serunum yerlarni egallab oldilar, qul mehnati hamda erkin jamoa a'zolari zulm qilish yo'li bilan boyib bordilar. Shu tariqa jamiyatning tabaqalanish jarayoni kuchaydi va quldorlik jamiyati paydo bo'ldi.

Bu davrning o'ziga xos xususiyatlaridan biri shuki, miloddan avvalgi VII asrda yurtimiz hududida, masalan Balx va Xorazmda otashparastlik –zardushtlik dini paydo bo'ldi va keng tarqaldi.

Ahamoniylar va ularning mahalliy noiblari bari bir aholini to'la itoatda tutib tura olmadilar. Xalqimizning chet el bosqinchilariga qarshi kurashi kuchaydi. Natijada miloddan avvalgi VI asr o'rtalariga kelib Xorazm mustaqillikni qo'lga kiritib oldi. Saklar va massagetlar ham o'z ozodligi uchun tinmay kurash olib bordilar. Eron hukmdorlari bilan yurtimiz

xalqlari o'rtasida uzluksiz davom etgan urushlar Ahamoniylar davlatini kuchsizlantirdi va Eronning makedoniyalik Iskandar (miloddan avvalgi 336 – 323-y.) tarafidan bosib olinishini birmuncha osonlashtirdi.

Makedoniyalik Iskandarning yurishlari (miloddan avvalgi 334-324 yy.) yurtimiz ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatdi: katta yer egalari bo'lmish mahalliy asilzodalarning mavqeyi yanada mustahkamlandi.

Ma'lumki, makedoniyalik Iskandar vafotidan (miloddan avvalgi 323-yil 13-iyun) ma'lum vaqt (taxminan 75 yil) o'tgach, uning ulkan saltanati mayda-mayda davlatlarga bo'linib ketdi.

Miloddan avvalgi taxminan 250-yili Buyuk Makedoniya saltanatining Baqtriyadagi noibi Diodot mustaqillik e'lon qildi va Yunon-Baqtriya davlatiga asos soldi. Bu davlat tarkibiga Sirdaryo bilan Ind daryosi yuqori oqimlarigacha bo'lgan yerlar va xalqlar qarar edi.

Hozirgi Turkmanistonning janubiy tumanlari ham mustaqillikka erishdi. Bu yerla hokimiyat tepasiga nufuzli Arshakiylar urug'ining boshliqlari o'tqizildi.

Miloddan avvalgi 190-yili Magnesiya¹ yonida bo'lgan janglarda Rim qo'shinlari Buyuk Antiox (miloddan avvalgi 242-187-y.) qo'shinlarini tor-mor keltirib, Salavkiylar hukmronligiga qaqshatqich zarba berdilar. Bu hol Yunon-Baqtriya, ayniqsa Parfiyaning kuchayishiga yo'l ochib berdi.

Miloddan avvalgi II asrning 40-yillarida Parfiya butun Eron va Mesopotamiyaning katta qismini o'ziga qaratib olib, yirik quldor davlatga aylandi. Poytaxt Ekbatana (Hamadon)dan Yevfrat bo'ylariga, hozirgi Bag'dod yonida joylashgan Ktesifonga ko'chirildi.

Taxminan o'sha vaqtlarda Yunon-Baqtriya davlati ham o'z chegaralarini birmuncha kengaytirib oldi. Evfidem, Demetriy va Evkradit zamonida So'g'diyona, Baqtriya, Araxosiya (hozirgi Afg'onistonning G'arbiy qismini o'z ichiga olgan hudud) va

¹ Магнесия – Лидиянинг қадимий шаҳарларидан, Туркиянинг ҳозирги Манисия шаҳри ўрнида бўлган.

Ariya (hozirgi Afg'onistonning markaziy qismi), boshqacha so'z bilan aytganda hozirgi O'zbekiston, Tojikiston, Eronning sharqiy qismi hamda Afg'onistonning katta qismi Yunon-Baqtriya davlati tarkibiga kirar edi.

Lekin, Yunon-Baqtriyaning ichki ahvoli u qadar mustahkam emas edi. Mahalliy xalq bilan yunon-makedoniyalik hokimlar o'rtasidagi ziddiyat tobora chuqurlashib bordi, chet el bosqinchilariga qarshi qo'zg'olonlar kuchaydi. Xalq harakati, ayniqsa, So'g'diyonada keskin tus oldi. Natijada miloddan avvalgi II asr oxirlari va I asr boshlarida So'g'diyona mustaqillikni qo'lga kiritishga muvaffaq bo'ldi. Yunon-Baqtriya imperiyasining boshqa o'lkalarida ham mustaqillik uchun kurash kuchaydi.

Qadimdan Shimoliy Xitoyda istiqomat qilib kelgan xunlar miloddan avvalgi II asr oxirlarida xitoylar tazyiqi ostida g'arbg'a qarab chekinishga majbur bo'ldilar va Sharqiy Turkiston hamda Yettisuv vohasida ko'chib yurgan skif (xitoy manbalarida yuechji, antik adabiyotda toxarlar nomi bilan mashhur) va usun qabilalarini surib chiqardilar. Oqibatda yuechji (toxar) va usunlar So'g'diyona va Baqtriya hududiga ko'chib o'tdilar va bu yerda saklar va boshqa mahalliy qabilalar bilan qo'shib, avval So'g'd, milodning taxminan 128-yili Yunon-Baqtriya davlatiga qaram boshqa o'lkalarni ham to Ind daryosigacha istilo qilishga muvaffaq bo'ldilar.

Shunday qilib, Yunon-Baqtriya davlati o'rnida yuechjilar (toxarlar) davlati tashkil topdi. Bu davlat tarixda Kushonlar davlati nomi bilan mashhurdir. Kushonlar davlatiga hozirgi O'zbekistonning katta qismi, Afg'oniston, Shimoliy Hindiston va Pokistonning shimoliy-g'arbiy qismi qaragan bo'lib ayniqsa Kanishka va uning taxt vorisi Xuvishka hukmronlik qilgan yillari kuchaydi. Lekin milodning II asri o'rtalarida bu davlatning ham inqirozi boshlandi va IV asrga kelib mayda davlatlarga bo'linib ketdi.

Yurtimiz hududida hukm surgan qadimiy davlatlardan yana biri Qang' va Farg'ona (Parkana)dir.

Qang' davlati tarkibiga Buxoro, Shahrisabz, Kattaqo'rg'on, Toshkent viloyati va Xorazmning shimoliy qismi kirgan. Davlat tepasida jabg'u (xitoy manbalarida chaovu) turgan.

Miloddan avvalgi II-I asrlarda Farg'onada ham mustaqil davlat bo'lgan. Xitoy manbalarida keltirilgan ma'lumotlarga qaraganda, Farg'onada hunarmandchilik, ayniqsa dehqonchilik rivoj topgan qadimiy mamlakat bo'lib, uning 70ga yaqin kattakichik shaharlari Kuba-Quva, Gaushan-O'zgan, Ershi – Marhamat, Go'y-Shan –Koson va boshqalar bo'lgan. Mahalliy xalq dehqonchilik va bog'dorchilik bilan shug'ullangan, arpa, bug'doy, sholi, beda, uzum, anor, poliz ekinlari va boshqalarni yetishtirgan.

104-101-yillar orasida Xitoy qo'shinlari Farg'onaga ikki marta bostirib kirdilar. Birinchi yurish 104-yili xitoy qo'shinlarining tor-mor keltirilishi bilan tugadi. Ikkinchi marta 101-yili 60 000 kishilik xitoy qo'shini Farg'onaning yirik shaharlaridan Ershini (hozirgi Andijon viloyatiga qarashli Marhamat qishlog'i o'rnida bo'lgan) qamal qildilar. Lekin shaharni ola olmadilar, sulh tuzib va ozgina o'lpon 3000 bosh ot olib qaytib ketishga majbur bo'ldilar.

Qadimgi Eron va hind manbalari. Tosh va sopolga o'yib yozilgan katibalar (mixiy yozuvlar)

Bunday yozuvlar Ahamoniylarning qadimgi poytaxti Persopol, shuningdek Suza va Ekbatana (hozirgi Hamadon) shaharlari va uning atrofida topilgan.

Masalan, pishiq sopol taxtachaga o'yib yozilgan bir katibada Doro 1 (miloddan avvalgi 522-486-y.) hukmronligining dastlabki yillarida (miloddan avvalgi 494-490-yillar orasida) Suzada bunyod etilgan saroyning qurilish tafsiloti, aniqrog'i qurilishga ketgan materiallarning qaysi mamlakattan keltirilganligi yozilgan taxtachadagi ma'lumotlarga ko'ra, oltin Lidiya bilan Baqtriyadan, qimmatbaho toshlar, lazurit va serdolik (qizil va qizg'ish rangli tosh) So'g'diyonadan, firuza Xorazmdan olib kelingan.

Persopoldan (Sherozning shimoliy tarafida, undan taxminan 50 km masofada joylashgan 520-450-yillar orasida qurilgan shahardan) topilgan yozuvlar va tasviriy suratlar – relyeflar katta ilmiy qiymatga ega. Ularning ayrim namunalari XVII-XVIII asrlarda (1621-y.) italiyalik sayyoh Pedro Della Valle va daniyalik olim K. Niburning nomi bilan bog'liq. 1931-1934, 1935-1939 va undan keyingi yillari nemis olimi E.Xerstfeld, amerikalik E.Shmidt, fransuz A.Godar hamda eronlik M.T.Mustafoviy va A.Somiy tarafidan o'tkazilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida Persopolda juda ko'p noyob yodgorliklar ochildi. Ular orasida Apadana zinalari ustiga ishlangan tasviriy suratlar alohida ahamiyat kasb etadi. Suratlarda (balandligi 3 fut – ingliz o'lchovi 30, 479 santimetrغا teng) ahamoniylarga tobe bo'lgan 23 satraplikdan (qaram mamlakatdan o'lpon olib kelgan kishilar qiyofasi tasvirlangan. Bular orasida baqtriyaliklar turli idishlar, teri, mo'yna va tuya bilan, so'g'dliklar turli mato, teri va qo'ylar bilan, saklar ot va chakmonlar bilan, parfiyaliklar idishlar va tuya bilan va xorazmliklar ot va qurol-aslaha bilan tasvirlangan.

Persopoldan 6 milya-qariyb 5 km masofada, uning shimol tarafida Husaynkuh qoyalarida ahamoniylardan Doro I, Ksreks I (miloddan avvalgi 486-465 yy.), Artakserks I (miloddan avvalgi 465-424-y.) hamda Doro II (miloddan avvalgi 424-404-y.)larning maqbaralarini hamda ularga kiraverishda o'yib yozilgan katibalar bor. Mazkur yodgorlik sasoniy sarkardalaridan Rustam (636-yili arablar bilan bo'lgan jangda halok bo'lgan) nomi bilan ham bog'liq va tarixda ko'pincha Naqshi Rustam deb ataladi.

Katibalarda, ayniqsa Doro I surati ostiga yozilgan katibada, uning davlati ko'klarga ko'tarib maqtaladi, uning tarafidan bosib olingan xalqlar esa itoatkorlikka va halol mehnat qilishga chaqiriladi, bo'ysunmaganlar va shu sababdan jazoga mahkum etilganlarning nomlari qayd etiladi. Muhimi shundaki, katibada ahamoniylarga tobe bo'lgan 23 satraplik va xalqlarning to'la

ro'yxati yozilgan. Bular orasida parfiyaliklar, baqtriyaliklar, so'g'diyonaliklar hamda xorazmliklar ham bor.

Yodgorlik orasida muhimlaridan yana biri mashhur Behistun yozuvlaridir. Bu yozuvlar uzunligi 22 m, umumiy balandligi 7,8 m bo'lib, ular Shimoliy Eronda, Kirmonshohdan 30 km masofada, daryo bo'ylab o'tgan qadimgi karvon yo'li yoqasida, uning chap tarafida, Zagros nomli tik qoyaga, taxminan 105 metr balandlikda Doro I ning amri bilan yozilgan g'alaba yodgorligidir. Yozuv elam, bobil va qadimgi eron tillarida bitilgan va miloddan avvalgi 523-522-yillari Ahamoniylar saltanatini larzaga keltirgan Gaumata – 522-yil 29-sentyabrda halok bo'lgan, Frada – marg'iyonalik, 522-yil 10-dekabrda asirga olingan, Skunxa — hozirgi Qozog'iston va O'zbekiston hududida istiqomat qilgan sak qabilalarining yetakchisi kabi boshliqlar rahbarligidagi xalq harakatlari haqida hikoya qiladi.

Avesta

Zoroastrizm – otashparastlik, miloddan avvalgi VI – milodning VI asri dinining muqaddas kitobi bo'lib, miloddan avvalgi VI- milodning VI asrlarida yozilgan, Eron hamda O'rta Osiyo xalqlarining qadimgi madaniyati, e'tiqodi, tili, adabiyoti va qisman tarixini o'rganishda asosiy manba hisoblanadi.

Asarning yozilgan joyi haqida turlicha fikrlar mavjud. Bir guruh olimlar fransuz J.Darmsteter, ojarbayjon olimi I.Aliev “Avesta” Midiya — hozirgi Eronning shimoliy-g'arbiy qismi va Ozarbayjonda yozilgan desalar, ko'pchilik V.V.Struve, S.P.Tolstov, F.Altxaym va boshqalar Amudaryo bo'yida joylashgan viloyatlarda, Balx va Xorazm oralig'ida yaratilgan, deb hisoblaydilar. Oxirgi fikr so'nggi vaqtlarda Eron olimlari, masalan Ibrohim Pur Dovud tarafidan ham e'tirof etildi.

“Avesta” matni to'liq saqlanmagan. Bizgacha, uning juda oz qismi yetib kelgan, xalos. Ma'lumki “Avesta” Kayoniy hukmdorlardan Gishtosp – Vishtosp zamonida kitob holiga keltirilgan. Rivoyatlarga qaraganda, uning gatlar deb ataluvchi asosiy qismi xudo Zaratushtra tomonidan yozilgan va Mas'udiy,

Tabariy va Beruniylarning soʻzlariga qaraganda, 12 000 hoʻkiz terisidan tayyorlangan maxsus pergamentga oltin harflari bilan yozilgan. Oʻsha vaqtlarda uning uch nusxasi mavjud boʻlgan, lekin bir nusxasi Iskandar Zulqarnaynning amr-farmoni bilan yoqib yuborilgan. Ikkinchi nusxasini Yunonis-tonga olib ketilgan, uchinchi nusxasi esa otashparastlar diniga oʻta eʼtiqodli boʻlgan kishilar qoʻlida saqlanib qolgan. Lekin bu nusxa toʻla emas.

Asarning saqlanib qolgan qismlarini toʻplash va kitob holiga keltirish ishlari Parfiya podshosi Valgash III (148-192-y.) hamda Sosoniylar (milodning III asri) davrida ham davom ettirildi. “Avesta” sosoniy Shopur II (309-379) davrida tartibga solindi, izohlar va qoʻshimchalar (zand) bilan boyitildi va toʻla kitob holiga keltirilib, asosiy qismlari pahlaviy tiliga tarjima qilindi. Bu kitob “Zand Avesta” nomi bilan mashhur.

Afsuski, “Zand Avesta” ham bizning zamonimizgacha toʻla holda yetib kelmagan. Uning bir qismi Iskandar Zulqarnayn yurishlari vaqtida, boshqa bir qismi esa arablar fathi (674-715-y.) vaqtida yoʻq qilingan. Asarning bizgacha yetib kelgan qismi, professor Ye.E.Bertelsning maʼlumotiga qaraganda¹, 83 000 soʻzdan iboratdir. U asosan Toʻrt qismdan – yasna, yashtov, vispered, vendidad tashkil topgan. Yasna tarkibiga kirgan gat deb ataladigan qoʻshiqlar “Avesta”ning eng koʻhna va qimmatli qismlaridir.

“Avesta”ning qoʻshiqlari va qissalari Abulqosim Firdavsiyning (taxm.940-1030-y.) “Shohnoma” dostoniga manba boʻlib xizmat qilgan.

“Avesta” nisbatan yaxshi oʻrganilgan (K.Zalemen, X.Bartolomey, Ye.E.Bertels, V.V.Struve va boshqalar). U fransuz (Anketel dyu Perron, Y.Darmsteter), rus (K.A.Kossovich), ingliz (L.X.Mayls), Daniya (A.Xristensen) va fors (Ibroham Pur Dovud) tillariga tarjima qilingan. Uning Kopengagenda

¹ Е.Э.Бертельс. История персидско-таджикской литературы.- Москва. 1960. С. 52.

(Daniya) saqlanayotgan yagona nusxasi asosida tayyorlangan fotomatni 1937-1944 yillari olti jild qilib nashr etilgan.

“Xvaday namak”

“Xvaday namak” (“Podshohnoma”) qadimgi Eronning 627-yilgacha boʻlgan ijtimoiy-siyosiy hayotidan bahs etuvchi afsonaviy tarixiy asar boʻlib, pahlaviy tilida yozilgan. Sosoniylardan Yazdigard III (632-651-y.)ga yaqin kishi tomonidan 632-637-yillar orasida yozib tamomlangan. Asar ayniqsa Ahamoniylar, Ashkoniylar va Sosoniylar tarixi boʻyicha muhim manbalardan hisoblanadi.

“Xvaday namak”ning oʻzi ham, mashhur shoir, olim va tarjimon Abdulloh ibn Muqaffa (721-757-y.) tarafidan qilingan tarjima (“Siyar al-muluk” deb atalgan) ham bizgacha yetib kelmagan. Lekin uning ayrim parchalari Yaʼqubiy (897 yoki 905-yili vafot etgan), ibn Qutayba (828-889-y.), Tabariy, Ibn al-Asir, shuningdek Abulqosim Firdavsiyning “Shohnoma”sida saqlangan.

“Matakdan xazar datastan”

“Matakdan xazar datastan” (“Bir ming nafar huquqiy ajrim”) pahlaviy tilida yozilgan (VIII asr) boʻlib, unda Eronning Sosoniylar davridagi davlat tuzilishi va uning ijtimoiy hayoti haqida qimmatli maʼlumot bor. Asarning faqat ayrim qismlarigina saqlangan. Mitropolit Ishobaxt qilgan suryoniycha tarjima (VIII asr) saqlangan. Inglizcha tarjimasi S.Y.Bulsara tomonidan chop etilgan (Bombay, 1937-y.).

Geografik asarlardan “Shahristonhoyi Eron” (“Eron shaharlari haqida risola”) Eronning Sosoniylar davridagi geografik holati va ularning bunyod etilishi haqida maʼlumot beradi. “Ajoyib as-Sakiston” (“Sakiston viloyatining ajoyibotlari” nomli asar Eronning koʻhna viloyatlaridan Sakiston (Seiston)ga bagʻishlangan. Bu ikkala asar ham pahlaviy tilida, VI-VII asrning ikkinchi yarmida yozilgan. “Shahristonhoyi Eron”ning matni va qisqacha inglizcha tarjimasi J.Asana hamda Modi tomonidan 1897 va 1899-yillari Bombayda chop etilgan.

Qadimgi Eronning ijtimoiy-siyosiy hayotiga oid ayrim ma'lumotlarni "Kornomayi Artashir Papakan" ("Artashir Papakanning ishlari haqida qissa"), "Mazdak namak" ("Mazdak haqida qissa"), "Ayatkari zariran" ("Zarira haqida rivoyat"), "Podshoh Xusrav va uning mahrami" kabi tarixiy qissalarda uchratamiz.

Sosoniylar lavlati ichki va tashqi siyosati asoslarini o'rganishda "Andarznoma" ("Nasihatnoma") hamda "Tojnoma" kabi etik — didaktik xarakterdagi asarlarning ham qimmatidir.

"Shohnoma"

Abulqosim Firdavsiy (taxm. 940-1030-y.) qalamiga mansub "Shohnoma" asari uch qism va 65 ming baytdan iborat doston bo'lib, u 976 – 1011-yillar orasida yozilgan.

Uning birinchi qismi afsonaviy bo'lib, "Avesta" materiallariga asoslanib yozilgan va Eron hamda Turon xalqlarining diniy aqidalari va rivoyatlaridan bahs yuritadi.

Asarning ikkinchi va uchinchi qismlari muhim hisoblanadi. Ikkinchi qism qahramonlik dostoni bo'lib, qadimgi Eron podshohlari va ular zamonida o'tgan qahramonlar Rustam va Kova siymolari talqin qilingan.

"Shohnoma"ning uchinchi qismi tarixiy doston bo'lib, unda Eron va Turonning zardushtiylikning paydo bo'lishidan to arablar fathigacha bo'lgan siyosiy hayoti talqin etilgan.

"Shohnoma"ning qo'lyozma nusxalari ko'p mamlakatlarning kutubxonalarida, shuningdek O'zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida saqlanmoqda. Asarning to'la matni Hindiston (1829-y.), Fransiya (1838-1878 yy.), Olmoniya (1877-1884-y.), Eron (1934-1936-y.) va Rossiyada (1960-1971-y.) chop etilgan, rus va o'zbek tillariga tarjima qilingan.

"Shohnoma" matnini tiklash ustida manbashunoslik tadqiqot ishlarini Boysung'ur Mirzo ibn Shohrux Hirotda olib borgan. Ko'p tarixchilar, xususan Muhammad Mirxond undan

manba sifatida foydalangan. Alisher Navoiy bu asarda lof ko'pligini qayd etgan.

Qadimgi hind manbalari

Saklar, massagetlar, toharlar va qadimgi Qanha xalqi, ularning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti haqidagi qimmatli ma'lumotlarni hindlarning epik dostoni "Mahabharata"da ham uchratamiz.

"Mahabharata"("Bharata avlodlari jangnomasi") sanskrit tilida yozilgan bo'lib, 100 ming baytni o'z ichiga olgan 18 kitobdan iborat. Afsonaviy shoh Bharataning ikki toifa avlodlari kavravlar va nandavlarning o'zaro adovatleri va urushleri bayon etiladi. U miloddan avvalgi X-VIII asrlarda yaratilgan.

Asarda masalan, uzoq Hindistonga, fikrimizcha savdo-sotiq ishlari bilan borgan saklar, toharlar va qanhalar haqida mana bu muhim ma'lumot keltirilgan: "Uning (podshoh Yudhishtaning) eshigi oldida boshqa xalqlar bilan birga saklar, toharlar va qanhaliklar ham navbat kutib turardilar. Paxmoq soqol, peshonalari shohlar bilan bezatilgan, qo'llarida turli-tuman sovg'alar, jun, rangu, ipak va patta (oq qayinning bir turi) daraxti tolasidan, shuningdek, kamyob matolardan, paxtadan to'qilgan gazlamalar, mayin, nafis terilar, uzun va o'tkir qilichlar, shamshirlar, temir nayzalar, har xil boltalar, ichimliklar, xushbo'y narsalar, turli-tuman qimmatbaho toshlar"¹.

Qadimgi Yunon va Rim manbalari

O'zbekistonning qadimgi va antik davrdagi tarixini o'rganishda qadimgi Yunoniston va Rim tarixchilari hamda geograf olimlarining asarlari muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Quyida ulardan ayrimlari haqida ma'lumotlarni keltiramiz.

XERADOT

Xeradot (miloddan avvalgi 490-480-yillar o'rtasi – 425-y.) – yirik qomusiy olim, tarix fanining "ota"si, asli Kichik Osiyoning Galikarnas shahridan, 455-447-yillari Yevropa, Osiyo va Misr bo'ylab sayohat qilgan.

¹ Аҳмедов Б. Ўзбекистон тарихи манбалари.-Т.: "Ўқитувчи", 2001, 33-34 бетлар.

Xeradot Ellada va Sharq mamlakatlari (Liviya, Misr, Assuriya, Vavilon, Elon va Skifiya)ning qadim zamonlardan to miloddan avvalgi 479-yilgacha bo'lgan ijtimoiy-siyosiy hayotidan hikoya qiluvchi 9 kitobdan iborat "Tarix" nomli asari bilan shuhrat topgan. Bu asar umumiy tarix yo'nalishida yozilgan birinchi kitob hisoblanadi. Shu tufayli ham Xeradot, STisteronnnning (miloddan avvalgi 106-43-y.) so'zlari bilan aytganda, tarix fanining "ota"si hisoblanadi.

Xeradot garchi o'zi bayon etayotgan voqealar ustida chuqur mulohaza yuritmasa ham, ularni to'g'ri bayon etishi, o'zga xalqlar va mamlakatlar tarixiga hurmat nuqtai nazaridan qarashi bilan ba'zi tarixchilardan ajralib turadi.

Xeradotning asarida O'zbekistonning qadimiy xalqlari bo'lmish agrippiylar, issedonlar, massagetlar, daylar va saklar haqida, ularning turmushi, urf-odatlari hamda qo'shni mamlakatlar bilan aloqalari haqida qimmatli ma'lumotlarni uchramiz.

"Tarix"ning Shteyn tarafidan tayyorlangan tanqidiy matni 1869-1871-yillarda chop etilgan. Asar ingliz (Roulinson, London, 1856-1860-y.) hamda rus (F.G. Mishchenko, Moskva, 1858-1860 yy.) tillariga tarjima qilingan. 1982-yilda asarning mamlakatimiz tarixiga oid qismlari zarur izohlar bilan A.I.Davatur, D.P.Kallistov hamda I.A.Shishova tomonidan yangidan nashr etilgan.

DIODOR

Diodor (miloddan avvalgi 90-21-yillar) yirik tarixchi olim, asli Sistiliyaga qarashli Argiriya shahridan. U "Tarixiy kutubxona" nomli 40 kitobdan iborat asar yozib qoldirgan. Umumiy tarix yo'nalishida yozilgan bu asar asosan Yunoniston va Rimning qadim zamonlaridan to milodning I asr o'rtalari-gacha bo'lgan tarixini o'z ichiga oladi. Unda Sharq xalqlari, shuningdek, O'zbekistonning qadimiy xalqlari skiflar, saklar, massagetlar, baqtriyaliklar, yurtimizning Eron bilan bo'lgan munosabatlari haqida qimmatli ma'lumotlar bor.

Diodorning mazkur asari ko'p jihatlari bilan ko'chirma-kompilyatsiya hisoblanadi. Muallif Efor, Polibiy asarlaridan keng foydalangan. Bundan tashqari, ko'p hollarda bayon etilayotgan voqealar uzviy bog'lanmay qolgan. Shunga qaramay, bu asar dalillarga boy va katta ilmiy ahamiyatga egadir.

Diodorning asari to'la holda bizning zamonamizgacha yetib kelmagan. Uning faqat 15 kitobi — qadimgi Sharq xalqlarining tarixi va afsonalari haqida hikoya qiluvchi 1-5-kitoblari, Yunoniston hamda Rimning Yunon-Eron urushlari(miloddan avvalgi 500-449-y.)da to miloddan avvalgi 301 yilgacha bo'lgan tarixini o'z ichiga olgan 11-20-kitoblarigina saqlangan, xalos.

Bu asar 1774-1775-yillari I.Alekseyev tomonidan olti qismda va 1874-1875-yillari F.G. Mishchenko tarafidan ikki qism qilib nashr etilgan.

POMPEY TROG

Pompey Trog(milodgacha 1-milodning 1 asrlari o'rtasida yashab o'tgan) – “Filipp tarixi” asari bilan mashhur bo'lgan Rim tarixchisi. 44 kitobdan iborat bu asar afsonaviy Assuariya podshohlari zamonidan to Rim imperatori Avgust (miloddin avvalgi 63 – milodning 14-yili) davrigacha dunyoda bo'lib o'tgan voqealarni bayon qiladi, lekin asosiy e'tibor Yunonistonning makedoniyalik Filipp II (miloddan avvalgi 359-336-y.) va makedoniyalik Iskandar davridagi ijtimoiy-siyosiy tarixini bayon etishga qaratilgan.

Mazkur asarning qimmati shundaki, u bir talay noma'lum kitoblarga suyanib yozilgan, Rim, Yunoniston kabi yirik davlatlarning paydo bo'lishi va tarixini keng yoritib bergan. Muhimi shundaki, muallif bunday davlatlarning oxir-oqibatda inqirozga uchrashini aytadi. Pompey Trog tarixni harakatga keltiruvchi kuch urf-odat va taqdir deb hisoblagan.

“Filipp tarixi”da skiflar, Baqtriya, makedoniyalik Iskandar davrida Baqtriya va So'g'dda qurilgan shahar va katta imoratlar, Iskandar Zulqarnayn vafotidan keyin yuz bergan voqealar, parfiyaliklarning kelib chiqishi, ularning urf-odatlari,

Parfiya podsholigini tashkil topishi, Baqtriya, Parfiya va Midiyaning o'zaro munosabatlariga oid muhim ma'lumotlar mavjud.

Pompey Trogning bu asari Yustin (II-III asr) tarafidan qisqartirilib qayta ishlangan shaklda bizning zamonimizgacha yetib kelgan va Ruxl tomonidan 1935-yili chop qilingan. Uning ruscha tarjimasi A.A.Dekonskiy va M.M.Rijskiy tomonidan "Vestnik drevney istorii" jurnalining 1954-yil 2-4 va 1955-yil 1-sonlarida bosilgan.

ARRIAN FLAVIY

Arrian Flaviy (taxminan 95-175-y.) – yirik yunon yozuvchisi, tarixchisi va geograf olimi, asli Kichik Osiyoning Nikomadiya shahridan. U "Iskandar haqida", "Parfiyaliklar haqida", "Hindiston" va 7 jildlik "Iskandarning yurishlari" nomli kitoblar muallifidir.

O'zbekiston va Eronning qadimiy tarixini o'rganishda Arrianning "Iskandarning yurishlari" nomli asari muhim ahamiyat kasb etadi. Unda fotihning O'zbekiston, Eron hududlari va boshqa mamlakatlarga istilochilik yurishlari tarixi batafsil bayon qilingan.

Asar panegrizm-maddohlik ruhida yozilgan – muallif Iskandar Zulqarnayn va uning faoliyatini ko'klarga ko'tarib ulug'laydi. U ko'pgina qo'lyozma manbalar va rasmiy hujjatlar asosida yozilgan bo'lib, mavzu bo'yicha muhim va asosiy manbalardan hisoblanadi.

Arrian Flaviyning "Iskandarning yurishlari" asari nemis (Myuller, Leypstig, 1886-y.) hamda rus (Korenkov, Toshkent, 1912-y. va M.E.Sergeenko, M.-L., 1962-y.) tillarida nashr etilgan.

KVINT KURSTIY RUF

Kvint Kurstiy Ruf (milodning I asri) – mashhur Rim tarixchisi, makedoniyalik Iskandarning Eron, Turon va boshqa mamlakatlarga qilgan harbiy yurishlari haqida 10 kitobdan iborat "Buyuk Iskandar tarixi" nomli asar yozib qoldirgan. Muallif Ptolomey Lag va makedoniyalik Iskandarning

safdoshlari Onesikrit va Kallisfenning xotira va asarlaridan keng foydalangan.

Kvint Kurstiy Rufning asarida O'zbekiston hududining makedoniyalik Iskandar qo'shinlari tomonidan istilo qilinishi, xalqlarning chet el bosqinchilariga qarshi kurashi, xususan, Spitamen boshliq qo'zg'olon keng yoritib berilgan.

"Buyuk Iskandar tarixi" 1841-yili Myutstel, 1867-yili T.Nyoldeke va 1885-yili Fogel tomonidan nashr etilgan. Ruscha yangi tarjimai V.S.Sokolov tahriri ostida chop etilgan (M.,1963-y.).

GAY PLINIY SEKUND

Gay Pliniy Sekund (24-79-y.) – rimlik mashhur yozuvchi, tarixshunos olim va davlat arbobi, 79-yili mashhur Vezuviy vulqonining otilib chiqishi natijasida yuz bergan umumxalq fojiasi vaqtida halok bo'lgan.

Gay Pliniy Sekund – sermahsul olim, 20 kitobdan iborat "Germanlarning urushlari", ikki jildidan iborat "Pomponiy Sekundning hayoti" va 37 kitobdan iborat "Oddiy tarix" nomli asarlar yozib qoldirgani ma'lum.

Pliniyning germanlar tarafidan Reyn va Dunay bo'ylari mamlakatlarining bosib olinishi tarixidan bahs yurituvchi "Germanlarning urushlari" nomli asari bizning davrimizgacha yetib kelmagan, lekin u Korneliy Tastitning (taxminan 56-117-y.) "Colnomalar" imperator Oktavian Avgust vafotidan (milodning 14-yili) Neronning halok bo'lishigacha (milodning 68 yili) bo'lib o'tgan voqealarni o'z ichiga oladi hamda "Germaniya" (unda german va boshqa qabilalarning tarixi bayon etilgan) nomli asarlari uchun birinchi manba bo'lgan.

"Pomponiyning hayoti"da Pliniy sobiq boshlig'i Pomponiy Sekundning hayoti va faoliyati haqida hikoya qiladi. Bu asar ham bizning zamonamizgacha yetib kelmagan.

"Oddiy tarix" Gay Pliniy Sekundning shoh asari hisoblanadi va unda antik dunyo tarixi, iqtisodiy ahvoli hamda madaniyati bayon etilgan. Unda muallifning o'z manbalariga jiddiy va tanqidiy munosabatda bo'lmaganligi, ayrim dalil va voqealarni buzib ko'rsatilganligi sezilib turadi. Bu kitob antik dunyo tarixi

bo'yicha keng ma'lumot beruvchi qomusiy asar sifatida e'tiborga sazovordir.

“Oddiy tarix”da O'zbekistonning ham qadimiy tarixi, unda yashagan xalqlar, masalan, skiflar, Oks-Amudaryo, Yaksart-Sirdaryo va skifcha joy nomlari, tabiiy boyliklari, Antioxiya shaharlarining barpo etilishi haqida qimmatli ma'lumotlar bor.

POLIBIY

Polibiy (miloddan avvalgi 201-120-y.) – yirik yunon tarixchisi, 40 kitobdan iborat “Umumiy tarix” asari bilan mashhur. Unda Yunoniston, Makedoniya, Karfagen, Misr, Suriya va Rimning 220-146- yillar orasidagi ijtimoiy-siyosiy tarixini o'z ichiga oladi. Umumiy tarix yo'nalishida yozilgan bu asarning katta qismi saqlanmagan, bizgacha faqat 1-5-kitoblargina yetib kelgan, xalos.

Polibiyning “Umumiy tarixi” daliliy ma'lumotlarga boyligi, voqealarning nisbatan xolisona yoritilishi bilan alohida ahamiyatga egadir.

Unda Oks – Amudaryo va Yaksart – Sirdaryo haqida, Antiox I ning Baqtriya podshohi Eftidemga qarshi harbiy yurishi haqida muhim ma'lumotlar bor.

“Umumiy tarix”ning matni 1889-1905-yillar orasida To'rt jildda Leypstigda chop etilgan. Uning inglizcha (V.R.Paton, London, 1922-1927; ikkinchi nashri, London, 1957-1960) va ruscha (F.G.Mishchenko, 1-3 jildlari. Moskva, 1890-1899) tarjimalari mavjud.

O'zbekistonning qadimiy tarixini o'rganishda qadimiy Yunoniston va Rim tarixchilarining asarlari benihoyat qimmatlidir.

Efor (miloddan avvalgi taxminan 405-330-yillar), Klavdiy Ellian (taxminan milodning 170-235-yillari), aleksandriyalik Kliment (milodning II asri), Korneliy Tastit (taxminan milodning 56-117-yillari), Ksenefont (taxminan miloddan avvalgi 430-355-yillar), Plutarx (milodning 46-127-yillari), Polien (milodning II asri) va boshqalarning asarlari ham ana shunday qimmatga egadir.

Geograf olimlardan Strabon va Ptolomey asarlari ham zo'r ilmiy qiymatga egadir.

STRABON

Strabon (miloddan avvalgi 63 – milodning 23-y.) qadimgi Yunonistonning atoqli geograf olimlaridan, asli amosiyalik (Pont podshohlarining qarorgohlaridan), nufuzli va badavlat oiladan chiqqan, mashhur yunon faylasufi Aristotelning (miloddan avvalgi 384-322-yy.) shogirdi, qariyb 80 yil umr ko'rgan.

Strabonni dunyoga tanitgan uning 17 kitobdan iborat “Geografiya” nomli asaridir. Asarning 1-2-kitoblari “Muqaddima” deb ataladi va unda geografiya ilmi va uning hokimlar, sarkardalar va savdogarlar faoliyatidagi o'rni va roli haqida gap boradi. Eratosfen, Poseydon va Polibiyning Yer tuzilishi haqidagi ta'limoti tanqid qilinadi, Yer yuzini tavsiflash haqida umumiy tushuncha beriladi.

3-10-kitoblarida Yevropa mamlakatlarining tavsifiga, shundan 8-10-kitoblar Ellada va unga tutash mamlakatlarga bag'ishlangan.

Asarda Osiyo mamlakatlariga katta o'rin berilib, ular to'g'risida 11-16 kitoblarda ma'lumot berilgan. 17 kitob Afrika mamlakatlariga bag'ishlangan.

Strabon Polibiyning “Umimiy tarix”ini davom ettirib, unga miloddan avvalgi 146-31-yillar orasida bo'lib o'tgan voqealarni qo'shgan. Afsuski, bu muhim asar bizning zamonimizgacha yetib kelmagan, lekin uning ayrim qismlari, xususan O'zbekiston tarixidan xabar beruvchi ayrim parchalar olimning “Geografiya” nomli asariga kirib qolib saqlangan.

Strabonning “Geografiya”sida Girkaniya, Parfiya, Baqtriya va Marg'iyonaning tabiiy holati, shaharlari, qisman ularga borish yo'llari, Oxa (Harrirud), Oks va Yaksart daryolari haqida, O'zbekistonning qadimiy xalqlari – saklar, massagetlar, daylar, atasiyalar, toharlar hamda xorazmliklar va ularning kelib chiqishi, bu xalqlarning turmushi, urf-odati va e'tiqodi, shuningdek Parfiya va Baqtriyaning miloddan avvalgi III asrning birinchi choragidagi ichki ahvoli va o'zaro munosabatlari haqida muhim va qimmatli ma'lumotlar mavjud.

Strabonning ushbu asari 1844 va 1848-yillari Kramer va Myuller tarafidan, maxsus xarita va tarhlar bilan qo'shib nashr qilingan. Uning nemischa (Grosskurd, Berlin, 1831-1834) hamda ruscha (F.G.Mishchenko, Moskva, 1879, G.A.Stratanovich, Moskva, 1964) tarjimalari ham mavjud.

PTOLOMEY KLAVDIY

Ptolomey Klavdiy (taxminan 90-160-y.) – mashhur qomusiy olim, Aleksandriyada yashab ijod qilgan. U astronomiya, geometriya, fizika (optika, mexanika) hamda geografiyaga oid asarlar yozib qoldirgan.

Jahonga mashhur “Almagest”- “Al-majastiy” (18 kitobdan iborat, astronomiya va trigonometriya ilmlarini o'z ichiga oladi), “Optika” (5 kitobdan iborat), “Germanlar haqida tushuncha” (3 kitobdan iborat) va, nihoyat, “Geografiya” shular jumlasidandir. Lekin olimga shuhrat keltirgan asarlari “Almagest” va “Geografiya”dir.

“Geografiya”ning (8 kitobdan iborat) birinchi kitobi, aniqrog'i uning 24- bobi jahon mamlakatlarini tavsiflashga bag'ishlangan va katta ilmiy qiymatga ega. Shunisi muhimki, asarda shaharlar, mamlakatlar va ularning koordinatalari keltirilgan va unga 27ta xarita ilova qilingan.

Ptolomeyning “Geografiya”sida Girkaniya, Marg'iyona, Baqtriya, So'g'diyona hamda skiflar mamlakatining geografik holati, Baqtriya va So'g'diyonaning mashhur shaharlari, shuningdek o'sha mamlakatlar va ular bilan tutash o'lkalar va ularning aholisi haqida asl va qimmatli ma'lumotlar keltirilgan¹.

Yunon va Rim olimlarining tarix va geografiyaga oid asarlari ma'lum darajada musulmon, shu jumladan yurtimiz olimlari Al-Xorazmiy, Al-Farg'oniy, Beruniy va boshqalarning ijodiga asos bo'lib xizmat qildi.

Qadimgi Turk manbalari

Qadimgi Turk manbalari orasida XVII asrda Sibir hamda Mo'g'o'listonda, Oltoy hamda O'zbekistonda topilgan runiy bitiklar alohida qiymatga ega. Bu yozuvlarning yetti guruhi –

¹ Юқ. асар. 34-41 бетлар.

Lena – Baykalbo'yi bitiklari, Yenisey, Mo'g'uliston, Oltoy, Sharqiy Turkiston, O'rta Osiyo bitiklari ma'lum. Bu bitiklar O'zbekiston xalqlarining arablar fathi arafasidagi ijtimoiy-siyosiy hamda madaniy hayotini o'rganishga yordam beradi.

Yenisey bitiklari

Yenisey bitiklari mashhur rus xaritashunos olimi S.U.Remezov (taxminan 1642-1720-y.) tarafidan XVII asr oxirida Yenisey havzasi (hozirgi Xakas avtonom viloyatiga qaraydi) topilgan. Undan keyin bu haqda shvetsiyalik harbiy asir F.Stralenberg (Tabbert) ma'lumot beradi. U Yenisey havzasidagi qabrtoshlardan toshga o'yib yozilgan notanish xatlarni topgan. Bu yozuv haqidagi ma'lumotlar birinchi marta o'tgan asrning birinchi choragida "Cibirskiy vestnik" jurnalida e'lon qilindi. 1889 yili fan olimlari Yeniseydan topilgan yozma yodgorliklar xaritasini tuzdilar.

Mo'g'ulistondan topilgan bitiklar

Mo'g'ulistondan topilgan bitiklar orasida To'nyuquq, Kul tegin, Bilga xoqon va Ongin muhim o'rin tutadilar.

To'nyuquq bitigi Ulan-Batordan 66 km janubi-sharqda, Bain Sokto manzilida joylashgan va ikkinchi turk xoqonligining asoschisi Eltarish xoqonning (681-691-y.) maslahatchi sarkarda To'nyuquqqa atalgan va 712-716-yillari yozilgan. 1897- yili rus olimi D.A.Klemenst (1848-1914) va uning xotini Yelizaveta Klemenstlar tarafidan ochilgan, V.V.Radlov (1899 y.), V.Tomsen (1922-y.), X.Sheder (1924-y.), D.Ross (1930-y.) hamda G.Aydarov (1971) tarafidan yaxshi o'rganilgan va matni nemischa, daniyacha, inglizcha va ruscha tarjimalari bilan chop etilgan. Obida G'A.Abdurahmonov hamda A.Rustamov tomonidan o'zbek tiliga qisqacha tarjima qilingan (1982 y.).

Kul tegin bitigi. Bilga xoqonning (716-734-y.) inisi Kul tegin (731-yili vafot etgan) sharafiga yozilgan. Mo'g'ulistonning Kosho Saydan vodiysida Ko'kshin O'rxun daryosi bo'yidan rus arxeolog va etnograf olimi N.M. Yadrinsev (1842-1894-y.) tomonidan 1889-yili topilgan.

Bitik V.V.Radlov (1891-y.), A.Xeykel (1892-y.), V.Tomsen (1896-y.), P.M.Melioranskiy (1897-y.), X.Sheder (1924-y.), S.E.Malov (1951-y.), G.Aydarov (1971-y.)lar tomonidan nemischa, fransuzcha, ruscha tarjimalarda chop etilgan. Gʻ.A.Abdurahmonov va A.Rustamov tomonidan oʻzbek tiliga qilingan qisqacha tarjimasi (1982-y.) ham bor.

Bilga xoqon bitigi. Kul tegin bitigidan 1 km janubi-gʻarbda — Koʻkshin Oʻrxun daryosi havzasida topilgan bu obida 735-yili bitilgan. Uni V.V.Radlov, S.E.Malov, P.M.Melioranskiy va V.Tomsen tomonidan oʻrganilgan va chop etilgan.

Ongin bitigi Moʻgʻulistonning Kosho Saydan vodiysidan topilgan va kimga atalganligi aniq maʼlum emas. Baʼzi fikrlarga qaraganda, yuqorida tilga olingan Eltarish xoqon va uning xotini Elbiyga xotun sharafiga qoʻyilgan (735-y.), boshqa fikrga koʻra Qopagʻon xoqonga (691-716-y.), yana bir maʼlumotga (J.Klosson) qaraganda Bilga xoqonning harbiy boshliqlaridan Alp Eletmish (taxminan 731-yilda oʻlgan) sharafiga qoʻyilgan.

Obida 1892 yili V.V.Radlov tarafidan (estompaji) va 1957-yili J.Kloson tomonidan (inglizcha tarjimasi va tadqiqot bilan nashr qilingan).

Bulardan tashqari, Qarabalsagʻun shahri (Ulan-Batordan taxminan 400 km janubda joylashgan qadimiy shahar) xarobalaridan, Xayto Tamir, Choʻyren, Beyshin-Udzur, Bayan-Xoʻngur va boshqa joylardan topilgan yozuvlar ham muhimdir.

Oltoydan topilgan bitiklardan Chorish, Katandi daryolari, Qoʻshogʻoch hamda togʻli nohiyalaridan topilgan bitiklarni aytib oʻtish mumkin. Bular Oʻrxun-Enisey bitiklaridan fvrqli oʻlaroq, etnografik materialga boydir. Oltoydan topilgan yozuvlar P.M.Melioranskiy, E.R.Tenishev, A.K.Borovkov, K.Seydakmatov, V.M.Nadelyaev hamda D.D.Vaslev tomonidan eʼlon qilingan.

Sharqiy Turkistondan topilgan bitiklar orasida Turfon vohasidagi gʻorlarga joylashgan ibodatxona devorlariga yozilgan bitiklar alohida oʻrin tutadi. Bitiklar V.Tomsen tarafidan chop qilingan.

Qozog'iston hamda Qirg'izistonda topilgan bitiklar (asrimizning 60-70-yillarida topilgan) hali chuqur o'rganilmagan. Bular orasida Talos vohasidagi (Ayritom, Teraksoy, Qulonsoy, Toldiqo'rg'on, Urjor, Sirdaryo, Ila, Olma Ota, Tolg'ar, Tinbas va hokazo) topilgan bitiklar muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Qozog'iston hamda Qirg'iziston hududidan topilgan bitiklarning ba'zilari S.Sodiqov, M.E.Masson, A.N.Bernshtam, A.S.Omanjlov, G.Musaboyev, Ch. Jumag'ulov hamda G.Karag'ulovlar tomonidan e'lon qilingan.

Qadimiy turk runik yozuvlari (asosan sopol idishlarga yozilgan) Farg'ona, Oloy vodiysi hamda Janubiy O'zbekiston va Tojikiston hududidan, ya'ni Bekobod, Isfara, Marg'ilon, Farg'ona, Andijon, Quvasoy, O'sh, O'zgand, Kofirnihon, shuningdek So'g'ddan ham topilgan va A.N.Bernshtam, B.A.Litvinskiy, V.A.Bulatova, E.R.Tenishev, Yu.A.Zadneprovskiy tarafidan o'rganilgan.

Umuman, qadimiy turk runik yozuvlari xalqimiz tarixini yoritishda juda qimmatli manbadir.

Xitoy manbalari

Xitoy manbalari haqida so'z boshlashdan oldin shuni alohida qayd etib o'tish kerakki, ular ham xitoy hukmdorlarining maqsad va manfaatlarini ko'zlab yozilgan, boshqa xalqlarning tarixi ko'p hollarda bir taraflama yoritilgan. Lekin xitoy manbalarida bo'lib o'tgan voqealarning vaqti va o'rni aniq ko'rsatiladi, bir-biriga qarshi turgan qo'shinlarning umumiy soni aniq ko'rsatiladi.

Qadimiy O'zbekistonning uzoq o'tmishdagi ijtimoiy-siyosiy tarixini o'rganishda quyidagi xitoy manbalari muhim rol o'ynaydi.

Shi Szi

"Shi Szi" ("Tarixiy esdaliklar") xitoy tarixshunoslarining otasi hisoblanadigan Sima Syanning 130 bobdan iborat asaridir.

Sima Syan –(taxminan miloddan avvalgi 145 yoki 135-86-yillar) Lunmin (hozirgi Shensi viloyati) shahrida saroy

tarixchisi Sima Txan oilasida tug'ilgan, mamlakat bo'ylab ko'p sayohat qilgan, otasi vafot etgandan (miloddan avvalgi 108-yili) keyin uning o'rniga saroy tarixchisi sifatida qabul qilingan. Miloddan avvalgi 98 yili imperatorga qarshi chiqib, sarkarda Li Linni himoya qilgani uchun qattiq jazoga tortilib (bichilgan) saroydan quvib yuborilgan. Lekin u ruhiy tushkunlikka tushib qolmadi va bo'lajak tarixiy kitobi ustidagi ishni davom ettirdi. Ko'p vaqt o'tmay Sima Syan yana saroyga taklif etildi va imperator Bosh mahkamasi boshlig'i etib tayinlanadi, kitobini yozib tamomlashga sharoit yaratib berildi.

Uning "Shi Szi" nomli asarida Xitoyning qadimiy zamonlardan to miloddan avvalgi I asr boshlariga qadar o'tgan tarix bayon etilgan. Asarda O'zbekiston, uning 123 bobida xususan Farg'ona va uning qadimiy xalqi, hayoti haqidagi qimmatli ma'lumotlar mavjud.

"Shi Szi"ning to'la matni olti jild qilib 1959-yili Pekinda e'lon etilgan, rus tiliga tarjima etilib (I.Ya.Bichurin, L.S.Vasilev, L.S.Perelomov, Yu.L.Krol va boshqalar) 1972, 1975, 1984, 1986 yillari chop etilgan. E.Shavann (1865-1905) tomonidan fransuz tiliga tarjima qilinib, 1895-1918-yillari 5 jildda bosmadan chiqqan.

"Syan Xan shu"

"Syan Xan shu" ("Avvalgi Xan sulolasining tarixi") yirik tarixchi olim Byan Gu (39-92) asaridir. Tarixchi Anlin (Shensi viloyati) shahrida G'arbiy Xan sulolasi (miloddan avvalgi 206 – milodning 220-y.) xizmatida turgan yirik mansabdor va tarixshunos oilasida tug'ilgan, 47-55-yillari Loyanda oliy ta'lim olgan, 58-82-yillari o'z asarini yozgan.

"Syan Xan shu"ning 95 bobida O'zbekiston (ayniqsa, kangli, yuechji va usunlar haqida) va Sharqiy Turkistonning qadimiy tarixi, xalqi va uning hayoti haqida ko'p muhim ma'lumotlarni uchratamiz.

"Syan Xan shu" 1962-yili Pekinda 12 jildda nashr qilingan. Inglizcha tarjimasini (G.Dubs, Baltimor, 1938-1944-y.) ham bor.

"Xou Xan shu"

"Xou Xan shu" ("Keyingi Xan sulolasi tarixi") tarixchi Fan Xua (398-445-y.) asari. Olim avvalgi Xan sulolasi (25-220-y.)ga xizmat qilgan. Kichik davlat lavozimida turgan va 424 yili viloyat hokimligiga ko'tarilgan. Davlatga qarshi isyonda qatnashganlikda ayblanib qatl etilgan.

"Xou Xan shu" Xitoyning avvalgi Xan sulolasi davridagi tarixni o'z ichiga olgan katta asar (130 bobdan iborat). Unda O'zbekiston, Sharqiy Turkiston va Jung'oriyaning 25-221-yillar orasidagi tarixi haqida diqqatga sazovor ma'lumotlar bor.

"Bey shu"

"Bey shu" ("Shimoliy sulolalar tarixi") 100 bobli asar bo'lib, Tan sulolasi (618-907-y.) davrida yashagan yirik tarixchi Li Yan-shou (taxm.595-678-yy.) qalamiga mansub. Unda Shimoliy Xitoyda hukmronlik Vey (386-535yy.), STi (550-577-y.), Chjou (557-581-yy.) sulolasi hukmronligi, ya'ni 386-581-yillar tarixi bayon etilgan.

Asarda O'zbekiston, xususan Xorazm hamda Sharqiy Turkiston haqida qimmatli ma'lumotlarni uchratamiz.

"Bey shu"ning matni 1958-yili Shanxayda chop etilgan.

CUY ShU

"Suy shu" ("Cuy xonadonining tarixi") Xitoy tarixchilari jamoasi tarafidan yozilgan asar. Uni yozishda Vey Chjen (580-643-y.) –Tan sulolasi davrida o'tgan tarixchi, imperator Chjen-Guan (626-650) davrida uning o'g'li va toju taxt vorisiga tarbiyachi bo'lgan, Yan Shi-Gu hamda Kxun In-da bilan birgalikda ishtirok etib, asarda Xitoyning Suy sulolasi davrida, V-VI asrlardagi ijtimoiy-siyosiy tarixi 85 bobda bayon etilgan. Kitobning 55 bobi 637-yili yozib tamomlangan. Qolgan 30 bobiga esa 20-yil vaqt ketgan.

Asarda imperatorning iqtisodiy siyosati, qo'shinning tuzilishi, mamlakatning ahvoli, xalqning urf-odatlar haqida ma'lumotlar keltirilgan. Uning 83-bobida O'zbekiston va Sharqiy Turkiston haqida ham diqqatga sazovor ma'lumotlarni

uchratamiz. Ko'p jildli "Sulolalar tarixi" tarkibida 9 jild sifatida 1958 yili Shanxayda bosilgan.

"SZYU TAN ShU" VA "SIN TAN ShU"

"Szyu Tan shu" ("Tan sulolasining eski tarixi") imperator Jen-Szun (1023-1063-yy.)ning topshirig'i bilan 940-945-yillari yozilgan.

Ouyan Syu (1007-1072-y.) va Sun Si (998-1061-y.) 960-1279 yillari hukmronlik qilgan Sun (Janubiy va Shimoliy Xitoy) sulolasi tarixchilari 1043-1060-yillari shu sulolaning yangi tarixi "Cin Tan shu" ("Tan sulolasining yangi tarixi") yozganlar. Har ikkala asar ham o'ziga xos afzalliklariga ega bo'lib, ma'lum darajada bir-birini to'ldiradi.

XVIII asrda tarixchi Shen Bin-chjen har ikkala tarixni bir-biriga bog'lab, unga "Sin szyu Tan shu xechao" ("Tan sulolasining bir-biri bilan qo'shilgan yangi hamda eski tarixi") deb nom qo'ydi. Asarda 618-907-yillar voqealari bayon etilgan.

"Cin Tan shu"da O'zbekiston janubi, Afg'oniston, Eron hamda Sharqiy Turkiston haqida ma'lumotlar uchraydi.

1958 yili ko'p jildli "Sulolalar tarixi"ning 12 jildi sifatida Shayxayda chop etilgan.

So'g'd tilidagi manbalar

So'g'd tilidagi manbalar asosan IV-X asrlarga oid bo'lib, turli mazmundagi huquqiy hujjatlar – ahdnomalar, nikoh haqidagi shartnomalar, oldi-sotti hujjatlari, tilxatlar, So'g'd, Shosh, Turk va Farg'ona hukmdorlari o'rtasidagi yozishmalar, Xo'jalikning kundalik faoliyatiga oid hujjatlar, masalan, xarajatlar yozilgan hujjat hamda farmonlardan iborat.

Bu hujjatlar So'g'diyananing o'zidan, Mug' qal'adan, Samarqandda Afrosiyobdan, Qirg'iziston va Sharqiy Turkistonda topilgan.

Bular orasida Mug' qal'a xarobalaridan 1932-yili topilgan hujjatlar alohida ahamiyatga ega. Hujjatlar bahorda Tojikistonning Varziminor (hozirgi Zahmatobod) tumaniga qarashli Xayrobod qishlog'ida shu tumanning sobiq birinchi rahbari A.Po'lotiy tomonidan ochilgan. Hujjatlar jami 79 ta bo'lib,

bulardan 74 tasi qadimgi so'g'd, 1 dona arab, 3 tasi xitoy va yana biri turk tilidadir. Ular har xil materialga – charmga, taxtaga va qog'ozga yozilgan. Hujjatlar so'g'd dehqoni, katta yer egasi, podshohi Devashtich (708-722-y.) va yirik mansabdorlar-framandarning, shuningdek, Xoxsar hamda Kshtut dehqonlarining shaxsiy arxiviga tegishli bo'lib, So'g'dning VIII asrning birinchi choragidagi iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotini o'rganishda muhim manba rolini o'ynaydi.

Mug' qal'asidan topilgan hujjatlar A.A.Freyman, A.V.Vasilev, I.Yu.Krachkovskiy, M.N.Bogolyubov, V.A.Livshist, M.M.Ishoqov, U.N.Mansurov hamda O.I.Smirnovalar tarafidan chuqur o'rganilgan.

Mug' qal'asi hujjatlarining topilishi tarixi va ular haqidagi dastlabki ma'lumotlar 1934-yili maxsus to'plam shaklida ("Sogdiyskiy sbornik", Leningrad, 1934) e'lon qilindi. Ayrim hujjatlarning tarjimasi I.Yu.Krachkovskiy va A.A.Freyman tomonidan 30-yillari e'lon qilindi. Huquqiy hujjatlar va mak-tublar tarjimasi, zarur izoh va tadqiqotlar bilan (Sogdiyskie dokumenti s gori Mug. Chtenie, perevod, kommentariy. II chiqishi. 1962.) V.A.Lifhist tarafidan chop qilindi.

1961 va 1965-yillari O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Tarix va arxeologiya instituti xodimlari ilmiy safar chog'ida Samarqandning Afrosiyobida V-VI asrlarga oid saroy xarobalarini ochdilar. Saroy mehmonxonasining devorlari turli mazmundagi rasmlar bilan bezatilgan bo'lib, ular orasida oq kiyim kiygan Chag'oniyon elchisining surati ham bor. Uning etagiga so'g'd tilida o'n olti satrdan iborat ishonch yorlig'i yozib qo'yilgan edi. Bu yozuvlar VII asr o'rtalaridagi xalqaro munosabatlar tarixini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Samarqandda topilgan yozuvlar IX asrga oid uch tilda so'g'd, qadimgi turk va xitoy tilida yozilgan turk xoqonining qabr toshidagi bitikdir.

Bunday hujjatlar so'g'diylarning Qozog'iston, Qirg'iziston hamda Sharqiy Turkistondagi savdo koloniyalaridan ham topilgan. Bular orasida ayniqsa A.Steyn (1862-1943) tarafidan

1907-yili Dunxuan (Xitoyning Gansu viloyatida) va Turfonda (Sharqiy Turkiston) topilgan hujjatlar, Talos daryosining o'ng sohilida, hozirgi Talos shahridan 7 km shimolda joylashgan Qulonsoy hamda Teraksoy daralarida qoya toshlarga o'yib bitilgan yozuvlar alohida e'tiborga molik. Bu yozuvlar IV-XI asrlarda So'g'd koloniyalarining ijtimoiy ahvoli haqida, ayniqsa O'rta Osiyo va Uzoq Sharq mamlakatlari o'rtasidagi savdo aloqalari va bunda so'g'diylarning roli haqida qimmatli ma'lumot beradi.

Dunxuan va Xo'tan hujjatlari A.Steyn, Talosdan topilgan yozuvlar esa V.A.Kallaur, M.E.Masson, D.F.Vinnik, A.A.Asanaliyev, K.Ashiraliyev, U.Jumag'ulovlar tarafidan o'rganilgan.

Mamlakatimiz tarixi, xususan unda yashagan qadimiy xalqlar tarixini o'rganishda, so'g'd tilida yozilgan "Xalqlar ro'yxati" deb atalgan bir hujjat (VIII asr) o'ta muhimdir. Unda O'rta Osiyoda yashagan 21 xalq va elatning nomi keltirilgan.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Islomga qadar qadimiy yozuvlar va yozuv madaniyati mahsuli hisoblanmish yodgorliklarning germenevtik talqini.
2. Avesta kitobining manbashunoslik germenevtik talqini.
3. Qadimgi turkiy bitiklarning manbashunoslik germenevtik talqini.
4. Parfiyoniy yozma yodgorliklar talqini.
5. Xorazmiy yozuv yodgorliklarining tarixiy manbashunosligi.
6. Boxtariy yozuv yodgorliklari manbashunosligi.

IX-XII ASRLAR MANBALARINING QIYOSIY GERMENEVTIKASI

IX-XII asrlar Markaziy Osiyo tarixi manbashunosligida alohida ahamiyatga ega bo'lgan davrdir. Bu davrda Markaziy Osiyo tarixiga doir ko'plab asosan arab tilidagi asarlar yaratiladi. E'tiborlisi, bu asarlarni chuqurroq tahlil qilish, bunda ularni qiyosiy germenevtik jihatdan ko'rib chiqish joizdir. Chunonchi, shunday Markaziy Osiyo tarixiga oid manbalardan biri "Kitob at-tarix" asari bo'lib uning muallifi Abu Abdulloh Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy al-Majusi al-Qatrabbuliydir. Bu to'liq ismdagi «Abu Abdulloh Muhammad» qismi Islomga yangi o'tgan musulmonlarga beriladigan an'anaviy ismdir; ismning keyingi qismlari olimning otasining ismi Muso va asli xorazmlik majusiylardan (mug'lardan) bo'lganligidan dalolat beradi. Nihoyat, ismning oxirgi qismi – «al-Qatrabbuliy» nisbasi olim Bag'dodga borganida shaharning Qatrabbul mahallasida yashaganligini bildiradi.

Olimning tug'ilgan va vafot etgan yillari hamda hayot yo'li, qanday sharoitda Xorazmni tark etganligi haqida ham fanda aniq ma'lumot yo'q. Ba'zi mulohazalarga ko'ra, xalifa Horun ar-Rashidning o'g'li Abdulloh al-Ma'mun bilan bog'liq. Bu mulohazaga ko'ra, Abdulloh 809-yili Marvga noib bo'lib kelgach, atrof o'lkalardan, jumladan, Xorazm, Farg'ona, Shosh, Forob, hozirgi Afg'oniston hududi va boshqa qo'shni yerlardan olimlarni to'plab, o'z saroyida ularning ilmiy ishlariga sharoit yaratib bergan. Al-Ma'mun olimlarga homiyligi bilan boshqa hokimlardan ajralib turgan. Avvalo uning o'zi turli ilmlarga qiziquvchan bo'lgan. Uning saroyida al-Xorazmiydan tashqari al-Javhariy, Ahmad al-Marvaziy, al-Farg'oniy kabi boshqa yirik olimlar ham bo'lgan.

813-yili xalifalik taxtiga o'tirgan al-Ma'mun (813-833) 819-yili poytaxt Bag'dodga ko'chadi va o'zi bilan birga Marvda to'plangan barcha olimlarni ham olib ketadi. Keyinchalik bu olimlar Sharqda «almaroviza», ya'ni «marvliklar» nomi bilan mashhur bo'lgan. Ular orasida al-Xorazmiy ham bor edi. Al-

Ma'mun ilk Abbosiylar davrida avvalgi poytaxt Damashqdan keltirilgan olimlar – tabib va tarjimonlarni «marvliklar» bilan «Bayt ul-hikma» deb atalgan va keyinchalik «Al-Ma'mun akademiyasi» nomi bilan mashhur bo'lgan ilmiy muassasaga birlashtiradi. Al-Ma'mun akademiyasida ko'plab olimlar, tarjimonlar va xattotlar xizmat qiladi. Ularning aksariyati O'rta Osiyo va Xurosondan kelgan edi.

Al-Xorazmiy "Al-Ma'mun akademiyasi"dagi barcha ilmiy izlanishlarda faol qatnashadi va shu bilan birga u "Bayt ul-hikma"ning kutubxonasiga mudirlik ham qiladi. Undan tashqari, 830-yil atrofida xalifa al-Ma'mun al-Xorazmiy boshchiligida uchta ilmiy ekspeditsiya uyushtiradi: Hindistonga, Vizantiyaga va Xazariyaga.

Al-Xorazmiy fan tarixiga "algebraning otasi" nomi bilan kirdi. Haqiqatan ham, uning qiziqish doirasi ko'proq matematika va astronomiya sohalariga aloqadordir. Lekin u ijtimoiy fanlar, jumladan, tarix va geografiya sohasida ham o'z davrining birinchilaridan bo'lgan va fanning bu sohalarida ham chuqur iz qoldirgan. U tarix sohasida xalifalikning ilk muarrixlaridan bo'lib, "Kitob at-tarix" nomli asar yozgan, biroq bu asar bizgacha to'liq holda yetib kelmagan va uning ba'zi parchalari o'rta asr mualliflari – Beruniy, Yoqut Hamaviy, al-Ya'qubiy, Elias BarShinaya, Hamza al-Isfahoniy, at-Tabariy, Ahmad ibn Tayfur, "Tarixul-xulafo", Ibn Badrun asarlarida saqlangan.

Al-Xorazmiyning geografik asari «Kitob surat al-arz» («Yer surati kitobi») Ptolemeyning «Geografiya» asari ta'sirida yozilgan, lekin unda IX asr boshiga kelib, xalifalikda to'plangan talay geografik ma'lumotlar kiritilgan.

Mazkur asar ham al-Xorazmiy tomonidan yaratilgan bo'lib, yunon olimi Ptolomeyning jug'rofiyaga oid kitobini arab tiliga tarjima qilgan va uni o'zining yangi ma'lumotlari bilan boyitgan. Asarda Kaspiy dengizi yoki Xorazm dengizi haqida qimmatli ma'lumotlar bor. Umuman kitobdagi O'rta Osiyoga oid ma'lumotlar alohida ahamiyatga ega. Uning 937 milodiy 428 hijriy yili ko'chirilgan mo'tabar qo'lyozmasi bizgacha yetib

kelgan bo'lib, kitobga turli xaritalar chizib, ilova qilingan. Xorazmiy bu asarini jadval tarzida – zijga o'xshatib tuzgan va uni o'rta asr asarlariga xos bo'lgan kirish so'zini keltirmay, faqat bismillohdan boshlagan. Bu asar tarkibiy jihatdan boblar va alohida bo'limlarga ajratilmagan bo'lsa ham, material joylashtirilishiga ko'ra uni olti bo'limdan iborat deb qarash mumkin.

Birinchi bo'limda yerning odamlar yashaydigan (ma'mur) qismidagi shaharlarning nomlari yetti iqlim bo'ylab, jadvalda, uzunlama va kenglamalari bilan keltiriladi. Shaharlar yunon an'anasiga ko'ra, g'arbdan sharqqa va janubdan shimolga yo'nalishda sanab ko'rsatiladi. Asarning keyingi bo'limlarida ham shu tartibga qat'iy rioya qilinadi.

Ikkinchi bo'limda yuqorida aytilgan tartib bilan jadvalda tog'lar sanab ko'rsatiladi.

Al-Xorazmiy «Geografiya»sining uchinchi bo'limi Yer kurrasidagi dengizlarning tavsifiga bag'ishlangan. Bu bo'limda Kaspiy dengizi haqida u «Xorazm dengizi, Jurjon, Tabariston va Daylam dengizi – bir dengizdir» deydi.¹

Kitobning to'rtinchi bo'limi dengizlardagi orollarni tavsiflashga bag'ishlangan. Muallif dengizlarning ham, orollarning ham qirg'oq chiziqlaridagi nuqtalarning koordinatalari bilan ko'rsatadi.

Asarning beshinchi bo'limida mamlakatlar, davlat va o'lkalar haqida ma'lumotlar keltiriladi. Shu bo'limda al-Xorazmiy o'z asarini yozishda xaritadan foydalanganligi aniq seziladi. U xaritada mamlakat nomi yozuvini o'qib, shu yozuv o'rtasining geografik koordinatalarini keltiradi. Bunda u «yozuvning o'rtasi» iborasini ishlatadi.

Kitobning oxirgi – oltinchi bo'limida Yerning odamlar yashaydigan qismidagi daryo va buloqlar tavsiflanadi.

“Kitob al-mag'oziy” muallifi Madoiniy Abulhasan Ali ibn Muhammad (vaf.840-y.) Arabiston, Xuroson va O'rta Osiyoning VIII-IX asr boshlaridagi ijtimoiy-siyosiy tarixiga oid ikki yuzdan

¹ Муҳаммад ибн Мусо ал-Хоразмий. Танланган асарлар.

ortiq asar yozgan. "Axbor al-Xulafo" ("Xalifalar tarixi"), "Kitob al-mag'oziy" ("Urushlar haqida kitob"), "Tarix al-buldon" ("O'lkalar tarixi") ana shu asarlar jumlasidandir.

Bu kitoblari Eron, Afg'oniston va O'rta Osiyoning arablar fathi va VIII asrning birinchi yarmidagi siyosiy tarixi bo'yicha muhim manbalardan hisoblanadi.

Bu davrda yaratilgan asarlardan yana biri «Kitob al-buldon» bo'lib, asar ijodkori al-Ya'qubiy IX asrda o'tgan yirik geograf tarixchi olimdir. Ismi Abulabbos Ahmad ibn Abu Ya'qub ibn Ja'far ibn Vahb ibn Vazih al-Kotib al-Abbosiyy yirik mansabdor xonadoniga mansub. Al-Ya'qubiy Bag'dodda tug'ildi, lekin umrining ko'p qismini Armaniston, Xuroson, Falastin, Misr va Mag'ribda o'tkazdi. Al-Ya'qubiyning ikki yirik va muhim asari bizning zamonamizgacha yetib kelgan. Biri "Kitob al-buldon" ("Mamlakatlarni haqida kitob"), ikkinchisi esa "Tarix" nomi bilan mashhurdir. "Kitob al-buldon" taxminan 891 yilda yozilgan. "Kitob al-buldon" to'rt qismdan iborat. Asarda arablar qo'l ostidagi mamlakatlarning geografik holati, yirik shahar va qal'alari, aholisi va uning asosiy mashg'uloti, urf-odati, o'sha mamlakatlardan olinadigan xirojning umumiy miqdori haqida qimmatli ma'lumotlar keltiriladi.

"Tarix" asari ijodkori al-Ya'qubiy IX asrda o'tgan yirik geograf tarixchi olimdir. Ismi Abulabbos Ahmad ibn Abu Ya'qub ibn Ja'far ibn Vahb ibn Vazih al-Kotib al-Abbosiyy yirik mansabdor xonadoniga mansub. Al-Ya'qubiy Bag'dodda tug'ildi, lekin umrining ko'p qismini Armaniston, Xuroson, Falastin, Misr va Mag'ribda o'tkazdi. Al-Ya'qubiyning ikki yirik va muhim asari bizning zamonamizgacha yetib kelgan. Biri "Kitob al-buldon" ("Mamlakatlarni haqida kitob"), ikkinchisi esa "Tarix" nomi bilan mashhurdir.

Al-Ya'qubiyning ikkinchi asari ("Tarix") umumiy tarix tipida yozilgan bo'lib, Sharq mamlakatlari, shuningdek O'rta Osiyoning VII-IX asrlardagi tarixi bo'yicha muhim manbalardan biri hisoblanadi. Asar ikki qismdan iborat bo'lib, Odam Atodan Islomgacha bo'lgan va musulmon mamlakatlari

tarixlari, ya'ni o'sha mamlakatlarda 873-yilgacha sodir bo'lgan voqealar bayon etilgan.

"Kitob futux al-buldon" IX asrda o'tgan yirik geograf va tarixchi olim Balazuriy (vaf. 892-y.) asari. Muarrix Madoiniyning shogirdi bo'lib, uning to'la ismi Abubakr Ahmad ibn Yax'yo Jabir al-Balazuriy, asli eronlik Abbosiylardan al-Mutavakkil (847-861-y.) va al-Musta'in (862-866-y.) saroyida tarbiyachi bo'lib xizmat qilgan. Balazuriy ikki yirik asar: "Kitob futux al-buldon" ("Mamlakatlarning zabt etilishi haqida kitob"), hamda "Kitob ansob al-sharaf" ("Sharofatli kishilarning nasablari haqida kitob") muallifidir.

"Kitob futux al-buldon" arab fathlari tarixi bo'yicha eng yaxshi asarlardan biri hisoblanadi. Faqat shu asarda arablarning xalifa Usmon (644-656-y.) va uning Xurosondagi noibi Abdulloh ibn Amr davrida Movarounnahrda bir necha bor bostirib kirganliklari va Maymurg'ni (Samarqand rayonlaridan biri) talab qaytganliklari haqida ma'lumot bor. Bundan tashqari, asarda arablar asoratiga tushib qolgan mamlakatlar, ularning diqqatga sazovor shaharlari va osori-atiqalari, xalqi, pul muomalasi, undiriladigan soliqlar, shuningdek arab tilining joriy qilinishi haqida ham qimmatli ma'lumotlarni uchratamiz.

"Kitob ul-xiroj va san'at al-kitoba" asari muallifi Abulfaraj Xudama, filolog va geograf. Olimning to'la ismi Abulfaraj ibn Ja'far Xudama al-Basriy al-Bag'dodiy (vaf. 922 – 948-y.). Basralik aslzoda, avval nasroniy bo'lgan, saroy xizmatiga qabul qilingandan keyin xalifa al-Muqtafiyning ta'siri ostida Islom dinini qabul qilgan. Dastlab ma'muriy mahkamalardan birida (majlis az-zimam) xizmat qilgan, umrining oxirida esa aloqalar devoniga (devoni sohib barid) boshchilik qilgan.

Abulfaraj Xudama 928-yili "Kitob ul-xiroj va san'at al-kitoba" ("Xiroj undirish va maktublar yozish san'ati haqida kitob") nomli ikki jildlik (8 qismdan iborat) asar yozgan.

Mazkur asar arab xalifaligining ma'muriy bo'linishi, xalifalikka tobe bo'lgan mamlakatlar o'rtasidagi aloqa xizmati, soliq va moliya tizimining umumiy ahvoli haqida qimmatli

ma'lumot beradi. Asarda Movarounnahrning geografik holati va uning turkiy zabon aholisi haqida ham muhim faktik materiallarni uchratamiz.

Ibn al-Faqih "Kitob axbor al-buldon" ("Mamlakatlar haqida xabarlar") asari bilan mashhur bo'lgan tarixchi olim. Uning to'la ismi Abubakr Ahmad ibn Muhammad al-Hamadoniydir. Mazkur asaridan ma'lum bo'lishicha, u xalifalardan al-Mu'tazid (892-902 y.) va al-Muqtafiy (902-908-y.)lar bilan zamondosh bo'lgan. "Kitob ul-fihrist" muallifining so'zlariga qaraganda, Ibn al-Faqih o'z zamonasining atoqli adiblaridan bo'lib, naql-rivoyat va adabiyotni yaxshi bilgan. "Kitob axbor al-buldon" siyosat, tarix va madaniy hayotga oid materiallarga boydir. Ibn al-Faqihning ayniqsa yirik shaharlar (Balx, Samarqand va hokazolar) haqida keltirgan ma'lumotlari benihoyat qimmatlidir.

Ibn al-Faqih "Kitob axbor al-buldon" ("Mamlakatlar haqida xabarlar") asarini taxminan 903-yili yozgan. Ushbu qo'lyozmada Eron va O'rta Osiyoning iqtisodiy va tarixiy-geografiyasiga oid diqqatga sazovor ma'lumotlar bor.

"Kitob al-molik fi ma'rifiyi al-mamolik" nomli ulkan yetti jildlik asarni vatandoshimiz, davlat arbobi va olim Jayhoniyy (870 — 942 y. halok bo'lgan) yoki Abu Abdulla Muhammad ibn Ahmad ibn Nasr al-Jayhoniyy yaratgan. U Buxoroda Somoniylar davlatida katta obro'ga ega bo'lib, 914-yildan hayotining oxirigacha vazir bo'lib xizmat qilgan. Olimning asosiy asari tarixiy jug'rofiyaga oid bo'lib, u yana "Kitob al-molik fi ma'rifiyi al-mamolik" ("Mamlakatlarni bilishda masofalar kitobi") deb ham atalgan.

Bu kitob o'z davrida juda mashhur bo'lib, barcha keyingi olimlar Beruniy, Gardiziy, Idrisiy, Muqaddasiy va boshqalar undan qimmatli manba sifatida foydalanganlar iqtibos (sitatalar) keltirganlar. Jayhoniyy asarida Sharq mamlakatlari, xususan O'rta Osiyo, turk qabilalari to'g'risida qimmatli ma'lumotlar bo'lgan. Mazkur asar bizgacha yetib kelmagan bo'lsa-da, uning nomi barcha yirik olimlar asarlarida zikr

qilingan va Beruniy, Ibn Xavqal, Gardiziy va Avfiy asarlarida parchalar keltirilganligi uning qimmatli manba ekanligidan guvohlik beradi.

"Tarix ar-rusul val-muluk" asari avtori yirik qomusiy olim Abu Ja'far Muhammad ibn Jarir at-Tabariy (836-923 y)dir. U Eronning Tabariston viloyatiga qarashli Omul shahrida tug'ilgan, umrining ko'p qismini Bag'dodda o'tkazgan va shu yerda vafot etgan. Xalifalikning ko'p shaharlarini aylanib chiqqan, birmuncha vaqt Ray, Basra, Kufa, Suriya va Misrda turgan. Tabariy davrining keng ma'lumotli kishilardan bo'lib, 10 dan ortiq kitob yozib qoldirgan. Musulmon qonunshunoslari orasida mavjud bo'lgan ixtiloflar bayon etilgan "Kitob ixtilof el-fuqahr" ("Faqihlar o'rtasidagi ixtiloflar haqida kitob"). "Qur'on" oyatlari sharhiga bag'ishlangan 30 (boshqa ma'lumotlarga qaraganda 40) jilddan iborat "Jome' al-bayon at-ta'vil al-Qur'on" ("Qur'on" so'zlari ma'nosining keng bayoni majmuasi") va nihoyat, "Tarix ar-rusul val-muluk" ("Payg'ambarlar, podshohlar tarixi") ana shular jumlasidandir. Tarix ilmi uchun eng muhimi so'nggi asar hisoblanadi.

"Tarix ar-rusul va-l-muluk" yoki qisqa nomi "Tabariy tarixi" asari umumiy tarix tipida yozilgan kitob. Lekin mukammalligi va faktik materiallarga boyligi bilan boshqa asarlardan tamoman alohida ajralib turadi. Asarda olamning "yaratilishi"-dan to 912-913-yillarga qadar Arabiston, Rum (Kichik Osiyo), Eron va Arab xalifaligi asoratiga tushib qolgan mamlakatlarda, shuningdek, O'rta Osiyoda bo'lib o'tgan ijtimoiy-siyosiy voqealar hikoya qilinadi. Voqyealar yilma-yil, xronologik tarzda bayon etilgan. Bu asardan foydalanish ko'p jihatdan qulay. Tabariy mazkur asarini yozishda yahudiy va xristianlarning naql-rivoyatlari, Sosoniylar (224-651-y.) solnoma "Xvadaynamak" ("Podshohnoma"), Al-Vohidiyning (747-823-y.) "Kitob ul-mag'oziy" ("Urushlar haqida kitob"), Al-Madoiniyning "Tarix al-xulofo" ("Xalifalar tarixi"), Ibn Tayfurning (819-893-y.) "Tarixi Bag'dod" ("Bag'dod tarixi") kabi asarlardan keng foydalanilgan. Lekin u ko'p hollarda,

ayniqsa asarning qadimiy tarixiga bag'ishlangan qismlarida, boshqa manbalardan olingan fakt va ma'lumotlar aynan keltirilgan. Asarning qadimiy tarixidan bahs yurituvchi qismlari ham ma'lum ilmiy qimmatga ega, chunki bularda bizgacha yetib kelmagan manbalarda (rivoyatlar, "Xvaday namak", "Tarix al-xulofo" va b.) mavjud bo'lgan ma'lumotlar, lavhalar saqlangan. "Tarix ar-rusul va-l-muluk" musulmon mamlakatlari, shuningdek O'rta Osiyoning VIII-IX asr tarixi bo'yicha asosiy va eng mo'tabar manbalardan biri bo'lib, tarix ilmining keyingi taraqqiyotiga katta ta'sir o'tkazgan.

"Ahsan at-taqosim" yoki "Ahsan at-taqosim fi ma'rifat al-aqolim" ("Iqlimlarni o'rganish uchun eng yaxshi qo'llanma") nomli asar muallifi X asrning taniqli geograf olimi al-Muqaddasiydir. Uning to'liq ismi Abu Abdullox Muhammad ibn Ahmad ibn Abubakr al-Muqaddasiydir. Olim 947-yili Quddisi sharifda tug'ilgan, butun dunyo musulmon mamlakatlari bo'ylab sayohat qilgan va 1000-yili vafot etgan.

Al-Muqaddasiy sayohat vaqtida to'plagan hamda boshqa manbalardan olingan aniq ma'lumotlar asosida 985 yili o'zining qimmatli asarini yozib qoldirgan. Kitobning ikkita tahriri mavjud. Birinchi tahriri 986-yilda amalga oshirilgan bo'lib, Somoniylarga (989-yilgi), ikkinchisi esa Fotimiylarga bag'ishlangan.

Asar muqaddima va ikki qismdan iborat. Muqaddimada muallif asarning yozilish tartibini bayon etgan va o'zidan avval o'tgan geograf olimlarning asarlariga to'xtalib o'tgan.

Birinchi qismda arab mamlakatlari, Arabiston yarim orolida joylashgan mamlakatlar Iroq, Mesopatamiya, Suriya, Misr, Mag'rib hamda Kichik Osiyoning geografik holati, mashhur shaharlari, osori atiqalari, aholisi va uning mashg'uloti, e'tiqodi hamda urf-odatlari, aholidan to'planadigan soliq va jarimalar va ularning umumiy xajmi, shuningdek, xar bir mamlakat va viloyatning ma'muriy tuzilishi hamda mashhur kishilari haqida ma'lumot berilgan.

Ikkinchi qismda Ajam mamlakatlari Xuroson, Seiston va

Movarounnahr tavsiflangan.

“Ahsan at-taqosim” ijtimoiy-iqtisodiy, tarixiy hamda madaniy hayotga oid qimmatli aniq ma'lumotlari bilan boshqa geografik asarlardan ajralib turadi va arab mamlakatlari, hamda, O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy hamda siyosiy tarixini o'rganishda muhim manba bo'ladi.

“Tarixi Yaminiy” (“Yamin ud-davla tarixi”) asarining ijodkori Utbiydir. Uning haqiqiy ismi Abu Nasr Muhammad ibn Abdujabbor Utbiy (taxm. 961-1077 yoki 1036) bo'lib, asli Eronning Ray shahridan. Olimning xonadoni badavlat va nufuzli zodagonlardan bo'lib, uning tog'alari Somoniylarning vaziri sifatida xizmat qilishgan.

Abu Nasr Muhammad Utbiy xam yuqori davlat lavozimlarida turgan, Somoniylarning Xurosondagi noibi Abu Ali ibn Simjur (989-998), so'ngra Ziyoriylardan Shams ul-Maoliy Qobus ibn Vushmagir (998-1030)ning shaxsiy kotibi, keyinchalik G'aznaviylardan Sabuktakin (977-997), Sulton Mahmud (998-1030) hamda Sulton Mas'ud (1031-1041) saroyida xizmat qilgan. Masalan, Utbiy Sulton Mahmudning elchisi sifatida (999) Garchistonga borgan, keyin Ganj rustakda sohib barid bo'lib ishlagan va 1023-yili Sulton Mahmudning amri bilan xizmatdan chetlatilgan.

Manbalarda, xususan as-Saolibiy tazkirasida aytilishicha, al-Utbiy bir nechta yirik asar yozgan. Lekin, ulardan faqat bittasi – “Tarixi Yaminiy” nomli tarixiy asari saqlanib qolgan xolos. Uning yana “Latoif al-kuttob” (“Kotiblarning latif so'zlari”) nomli asari bo'lib, u bizgacha yetib kelmagan.

“Tarixi Yaminiy” amir Sabuktakin hamda Sulton Mahmud zamonida G'aznaviylar imperiyasi tarkibiga kirgan Afg'oniston, Xuroson, Xorazm va qisman Movarounnahrning 975-1021-yillardagi ijtimoiy-siyosiy tarixini bayon etadi. Asarda Qoraxoniylarning Movarounnahrni bosib olishi (992-996) haqida keltirilgan ma'lumotlar benihoyat qimmatlidir.

Asar o'rta asr tarixshunosligiga xos og'ir saj – qofiyali nasr uslubida yozilgan. Unda Sulton Mahmud va uning yaqinlari

ko'klarga ko'tarib maqtaladi. Shuning bilan birga, tarixchi uzluksiz davom etgan urushlar, zulm, turli-tuman soliq va jarimalar tufayli xonavayron bo'lgan mehnatkash xalqning og'ir turmushiga ham ayrim o'rinlarda ko'z tashlab o'tadi.

"Yatimat at-dahr" yoki "Yatimat at-dahr fi mahosin ahl ul-asr" ("Asr ahlining fozillari haqida zamonining durdonasi") nomli tazkirani o'z davrining yirik olimi va shoiri Abu Mansur Abdulmalik ibn Muhammad ibn Ismoil as-Saolibiy yaratgan. U 961 yili Nishopurda tug'ilgan. U ilm-fanning turli sohalari tarix, adabiyot, mantiq, arab tili va boshqalarni yaxshi bilgan, asosan tulki terisidan po'stin tikib sotish bilan shug'ullangan va as-Saolibiy degan nom bilan mashhur bo'lgan. Olim Eron va O'zbekistonning talay shaharlari Jurjon, Marv, G'azni, Buxoro, Xorazmda turgan va ularning madaniy hamda ijtimoiy-siyosiy hayoti bilan yaqindan tanish bo'lib, 1038-yili Nishopurda vafot etgan.

As-Saolibiy ellikka yaqin asar yozgan bo'lib, O'zbekiston xalqlarining X-XI asrdagi tarixi va madaniy hayotini o'rganishda "Yatimat at-dahr" hamda "Kitob al-G'urar" asarlari alohida ahamiyat kasb etadi.

"Yatimat at-dahr" 995-1000-yillari yozilgan. "Yatimat at-dahr" O'zbekistan, xususan Marv va Buxoroning X asrdagi adabiy muhitini o'rganishda asosiy manbalardan biridir. O'z davrining qomusi bo'lmish bu kitobni Abu Abdulloh Muhammad al-Xorazmiy yaratgan. U X asrda o'tgan mashhur filolog va fan tarixchisidir. Uning to'liq ismi Abu Abdulloh Muhammad ibn Yusuf Kotibiy al Xorazmiy bo'lib, olim Somoniy Nuh II Mansurning (976-997) vaziri al Utbiy qo'lida dabir bo'lib xizmat qilgani va asosan, Nishopurda istiqomat qilib, fan tarixi hamda davlat bosh idoralari uchun muhim qo'llanma bo'lgan ushbu asarni yozib qoldirgani ma'lum. Ushbu asardan ma'lum bo'lishicha Abu Abdulloh yunon, suryoniy, arab va fors tillarini mukammal bilgan keng ma'lumotli kishi bo'lgan. Uning qalamiga mansub "Mafotih ul-ulum" 976-991-yillar orasida yozilgan. "Mafotih ul-ulum" o'ziga xos izohli terminologik lug'at bo'lib, ikki qismdan iborat. Birinchi qism (olti bobdan iborat) shariat bilan

bog'liq ilmlarga: fiqh, aqidalar, grammatika, idora ishlarini yuritish tartibi, she'riyat va tarixga bag'ishlangan. Ikkinchi qism (to'qqiz bobdan iborat) ajam xalqlari, ya'ni arab bo'lmagan xalqlar yunonlar, suriyaliklar, forslar, hindlar va boshqalar orasida taraqqiy etgan ilmlar: falsafa, mantiq, tib, arifmetika, geometriya, astronomiya, mexanika, musiqa va ximiya fanlarini o'z ichiga oladi. O'rta Osiyo haqida, xususan bu yerda amalda bo'lgan sug'orish o'lchovlari haqida muhim ma'lumotlar ham bor.

"Osor ul-boqiya" nomli benazir asar ijodkori qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy (973-1048)dir. U tabiiy va ijtimoiy fanlar bo'yicha 150 dan ortiq asar yaratib, asosan tabiiy fanlar sohasida ulkan kashfiyotlarga va muvaffaqiyatlarga erishgan bo'lsa-da, o'zining ijtimoiy fan, ayniqsa tarix to'g'risidagi chuqur bilimlarini "Osor ul-boqiya an al-qurun al-holiya" ("Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar"), hamda "Hindiston" yoki "Kitab tahqiq molil-Hind min manqula fi-l-aql va-l-marzuma" ("Hindlarning aqlga sig'adigan va sig'maydigan ta'limotlarining tahqiq etish") va "Kitob ul-musammara fi axbori Xorazm" ("Xorazm haqidagi axborotlar haqida suhbatlar") nomli asarlari bilan tarix va madaniyat tarixiga katta hissa qo'shdi. Ayniqsa, bo'lg'usi tarixchilar uchun "Osor ul-boqiya" hamma tomonlama namuna bo'ladigan qimmatli manbadir. Beruniyning Xorazm tarixiga oid asari yuqorida zikr etilgan nomdan tashqari, yana "Tarixi Xorazm" va "Mashohiri Xorazm" ("Xorazmning mashhur kishilari") nomlari bilan ham mashhur, uning ayrim lavhalari — parchalari Abulfazl Bayhaqiyning 1056-yili yozib tamomlangan "Tarixi Bayhaq" va Yoqut Hamaviyning "Mo'jam ul-buldon" asarlarida saqlanib qolgan. Beruniyning "Kitob fi axborot al-mubayyizot val karomita" ("Oq kiyimliklar va karmatlarning xabarlar haqida kitob") asari ham alohida qimmatga ega. Unda o'sha zamonlarda O'rta Osiyoda keng tarqalgan ijtimoiy harakat-karmatlar harakati haqida diqqatga sazovor ma'lumotlar bor. Asar 1000 yili Jurjon shahrida yozib tamomlangan.

Unda qadimgi O'rta Osiyo, Yunon, Eron, Hind, nasroniy, yahudiy va boshqa xalqlarning islomiyatgacha bo'lgan tarixi,

urf-odatlarini, bayramlari va asosan vaqtni hisoblash-xronologiya to'g'risida mukammal ma'lumot beradi. Mazkur asar "Nasablar haqida kitob" asari muallifi mashhur biograf, tarixchi va sayyoh Abu Sa'id Abdulkarim ibn Muhammad as-Sam'oni (1113-1167-y.)dir. U Marvda yirik qonunshunos olim oilasida dunyoga keldi, Marv, Buxoro hamda Samarqandda tahsil ko'rdi, 1155-1156-yillari Movarounnahr va Xorazm bo'ylab sayohat qildi, ma'lum muddat Nishopur, Isfahon, Bag'dod, Xalab, Damashq hamda Quddus (Ierusalim) shaharlarida hayot kechirdi. Ko'p yurtlarni kezgan, 50 ga yaqin ilmiy asarlar yaratgan. Uning 1156-yilda Samarqand shahrida yozib tugatgan "Kitob al-ansob" ("Nisbalar kitobi") nomli tarixiy-geografik va etnografik asari juda muhim manba. Ushbu kitob 8 jildidan iborat bo'lib, muallifning O'rta Osiyodan to Arabistongacha bo'lgan ko'p yillik sayohati natijasida yozilgan. Kitobda tarixiy va geografik nomlar, qabila boshliqlari, tarixiy shaxslar, viloyatlar, shaharlar va qishloqlar, daryolar, ko'llar, tog'lar nomlari alifbo tartibida keltirilib, ularga ancha batafsil izohlar berilgan. "Kitob al-ansob" Ibn Xallikonning ma'lumotlariga ko'ra, 8 jildidan iborat bo'lgan. Uning to'la nusxasi ham yo'qolib ketgan ko'rinadi. Kitobning faqat tarixchi Ibn al-Asir tarafidan tahrir etilgan 3 jildlik qisqartirilgan qismigina saqlanib qolgan, xolos. Asarda alifbo tartibida islomiyatdan to muallifning zamonigacha musulmon mamlakatlarida, ko'proq Eron va Movarounnahrda o'tgan mashhur kishilar haqida keng ma'lumot beriladi. "Kitob al-ansob" O'rta Osiyoning qadimiy tarixi, yirik shaharlari, qo'shni mamlakatlari, xususan Xitoy bilan bo'lgan savdo va madaniy aloqalarini o'rganishda muhim manbalardan biri hisoblanadi. Ushbu asar to'g'risida Sh.Kamoliddinov nomzodlik va doktorlik dissertatsiyasini yoqlab, rus tilida kitob chiqargan.

Xalifalik va musulmon davlatlarning tarixiga bag'ishlangan muhim asarlardan biri bu Abulhasan Ali ibn Muhammad ibn Muhammad ibn Abdulkarim ibn Abdulvohid ash-Shayboniy, ya'ni Izzaddin Ibn al-Asir al-Jazariy nomi bilan mashhur

bo'lgan muarrixning "Al-Komil fi-t-tarix" (Komil tarix, Tarixi komil) nomli asaridir. Izzaddin Ibn al-Asir al-Jazariy 13 may 1160-yili (jumod ul-uvia oyining to'rtinchi kuni, 555 yili) Dajla va Furot daryolarining yuqori qismida joylashgan Jazirat Ibn Umar mavzesida olamga kelgan. Ibn al-Asirning otasi Abulkaram Muhammad ibn Muhammad ibn Abdulkarim ibn Abdalvohid ash-Shayboniy Mosuldagi Zangiylar davlatining yuqori martabali amaldori bo'lib, rais ud-devon unvonida Mosul vaziri nomidan Jazirat Ibn Umarda voliy edi. Davlat xizmatidan tashqari buyuk muarrixning otasi boy tijoratchi hamda Jazirat va Mosulning janubida joylashgan Hasr al-G'arbdagi katta yer va mulklarga ega edi. Abulkaram Muhammadning uchta o'g'li bo'lgani ma'lum. Ular islom olamida buyuk va mashhur olimlar sifatida dong taratgan. Ulardan Izzaddin Ibn al-Asir o'rtancha o'g'il sifatida tarix ilmida, katta akasi Abusaodat al-Muborak ibn Muhammad al-Jazariy – Majdaddin (544/606/1149/1210) mufasssir, faqih, muhaddis va arab tilining sarfu nahvi bo'yicha, ukalari Abulfath Nusulloh ibn Muhammad al-Jazariy – Ziyovuddin esa (558/637/1163/1239) adib va filolog sifatida shuhrat topgan. Ziyovuddin al-Jazariy Damashqning hukmdori Ali ibn Nosir al-Afzal saroyida vazir bo'lib xizmat qilgani ham ma'lum. Ibn al-Asir oilasi bilan Mosulga ko'chib kelib, boshlang'ich bilimlar va hadislarni Mosulning xatibi Abulfazl Abdulloh ibn Ahmadi Tusiy huzurida o'rganadi. 21 yoshga to'lganda Ibn al-Asir hajga borib qaytgach, Bag'dod shahrida hadis ilmini o'rganib, Mosulga qaytadi. Mosul hukmdorining maxsus elchisi sifatida u bir necha marotaba Bag'dodda bo'lgan va shu safarlari davomida Abulqosim Ya'sho ibn Sadaqa, Abu Ahmad Abdulvahhob ibn Ali as-Sufi huzurlarida fiqhni o'rgangan. Suriyada esa u Zayn al-Usmon darslariga qatnashgani ma'lum. Ilm olish niyatida Ibn al-Asir Iroq, Suriya Falastin va Hijoz shaharlari bo'ylab ko'p safar qilgan. 581/1185/86-yili u Mosulda bo'lgan vaqtida sulton Salohiddin ikkinchi marta bu shaharga yurish qiladi, 584/1188/89-yili tarixchi 28 yoshida mazkur sulton

rahbarligida Suriya va Falastindagi nasroniylar bilan xochdorlarga qarshi urushlarda qatnashgan. 590/1193-94-yilda Ibn al-Asir Damashqda edi. Mosulga qaytgach, Ibn al-Asir hadislar rivoyati bilan shug'ullanib, adabiyotlarni o'rganadi va ilmiy asarlar yozish bilan mashg'ul bo'ladi. U bir muddat Mosul otabeklarining saroyida vazir vazifasida ham faoliyat ko'rsatib, ularining muhim topshiriqlarini bajaradi va Bag'doddagi davlat arboblari va amaldorlari bilan uchrashadi. Umrining oxirlarida Ibn al-Asir bir muddat Xalab (Aleppo)da shahar hokimi Shihobaddin Tug'rul al-Xodim Otabek Malik at-Tavoshiy saroyida faxriy mehmon sifatida yashab ijod qiladi. Shu davrda Ibn al-Asir bilan buyuk tarixchi Ibn Xallikon (681/1282/83 vafot etgan) uchrashgani ma'lum. Bu vaqtda Ibn Xallikon 18 yoshda bo'lgan va u Ibn al-Asirning komil muarrix va ilohiyotshunos ekanini ta'kidlagan. 627/1229-30 Ibn al-Asir avval Damashqqa, bir yildan keyin esa Xalab, so'ngra Mosulga keladi. Xalabda bo'lganida u bilan mashhur arab geografi va filologi Yoqut al-Hamaviy (vaf. 626/1228-29) uchrashgan. Yoqut al-Hamaviy al-Asirdan vafotidan keyin kutubxonasi va qo'lyozmalarini Bag'dodga ko'chirishini iltimos qilgan. Yoqutning vasiyatini Ibn al-Asir noma'lum sabablarga ko'ra bajara olmay, 25 sha'bon 630/6 iyun 1234-yili 75 yoshida vafot etadi. Ibn al-Asir muhaddis hamda arablarning nasablarini mukammal bilgan olim sifatida shuhrat qozongan bo'lsa ham uni ilm olamida mashhur qilgan ilmiy merosi orasida "Al-Komil fi-t-tarix" asari alohida o'rin tutadi. Bu asardan tashqari Ibn al-Asir "Tarix Atobaka al-Mosul" (Mosul otabeklarining tarixi) yoki "Tarix ad-davlat al-atabakiya" (Otabeklar davlati tarixi) nomli asar ham yozgan. Mazkur asarning bir nechta qo'lyozma nusxalari bizgacha yetib kelgan va Misrda ham chop etilgan. Mutaxassislarning fikricha, bu manba Mosul zangiylari davlati tarixini o'rganishda birlamchi manba hisoblanadi. Asar Ibn al-Asir va uning otasining ma'lumotlari asosida, guvohlar va voqea ishtirokchilari tilidan bitilgan. Professor Shamsiddin Kamoliddinov bu asarni Ibn al-Asir Mosul hukmdorlari

buyurtmasi bilan ham yozgan bo'lishi mumkinligini ta'kidlaydi. Ibn al-Asirga yana oxirigacha yozib tugatilmagan "Tarix al-Mosul" (Mosul tarixi) nomli asari ham nisbat beradilar. Bundan tashqari, Ibn al-Asir Abu Sa'd Adulkarim ibn Muhammad as-Sam'oniyligi (506/562/1113/1162)ning sakkiz jildli "Kitob al-ansob" (Nasablar haqida kitob) asari ma'lumotlaridan foydalangan holda uni uch jildda muxtasar "Al-Lubob fi tahzib al-ansob" (Nisbalarni to'g'rilashda poklanish) nomi bilan tuzadi. Shunda u As-Sam'oniyligi ba'zi bir xato va kamchiliklarini ham tuzatgan. Mazkur asar jumodi avval oyi, 615/iyul — avgust 1218 yili nihoyasiga yetgan va o'sha davrda nusxalari keng tarqalgan bo'lgan. Ibn Xallikon mazkur muxtasarning Sam'oniyligi sakkiz jildli nusxasidan ham ko'proq tarqalganini alohida ta'kidlagan. Ibn al-Asirning "Al-Lubob"ini 873/1468-69 yili yana bir arab tarixchisi va filologi Jaloliddin as-Suyutiyligi (vaf. 911/1505-y.) bir jildgacha qisqartirib, uni "Lub al-lubob" (Poklanishning qalbi) deb nomladi. Ibn al-Asir va As-Suyutiyligi asarlari bizgacha yetib kelgan va nashrdan ham chiqqan. Ibn al-Asir qalamiga mansub yana bir asar "Usd al-g'oba fi ma'rifati-s-sahoba" (Sahobalarni bilishda changalning arslonlari) yoki "Usd al-g'oba fi asmo as-sahoba" (Sahobalar ismlarida changalning arslonlari), yoki "Axbor as-sahoba" (Sahobalar haqida xabarlar) bo'lib, u olti jilddan iboratdir. Mazkur asar ham bizgacha yetib kelgan va unda 7554 sahoba haqida ma'lumot mavjud. Asar Misrda (Al-O'ohira: Dor ush-Sha'b, 1970) chop etilgan. Ibn al-Asirning ilm al-bayon va ilm al-balog'aga bag'ishlangan "al-Jomi' al-kabir" (Katta to'plam) va o'z zamonasining qiziqarli voqealariga bag'ishlangan "Tuhfat al-ajoib va turfat al-g'aroib" (Ajoyib tuhfarlar va g'aroyib hadyalar) asarlari ham yetib kelgan.

Sakkiz jilddan iborat bo'lgan "Tarixi komil" umumjahon tarixiga bag'ishlangan asar bo'lib, yilnoma tarzida tuzilgan. Asar arab xalifaligi va barcha Islom mamlakatlari tarixini "Olam va Odamning yaratilishidan" to 628/1230-31-yilgacha bo'lgan davrni qamrab olib, "musulmon solnomalari

tarixnavisligining yorqin namunasi va eng yuqori bosqichi” sanaladi. “Agarda mashhur geograf Yoqut Hamaviyning “Mu’jam ul-buldon” (Mamlakatlar lug’ati) asari o’z zamonasining geografiyaga oid barcha ma’lumotlarini to’plagan bo’lsa, uning zamondoshi Ibn al-Asirning “Al-Komil fi-t-tarix” asarini tarixga oid adabiyotlarning to’plami” desa bo’ladi. Ibn Xallikon “Al-Komil fi-t-tarix”ni musulmon olami tarixini yoritguvchi ma’lum asarlar ichida eng sarasi ekanini aytib o’tgan. Akademik V.V. Bartold Ibn al-Asir asarlarining qiymatini yuqori baholab, uni o’z asarlariga ma’lumot to’plash jarayonida yuksak bir vijdoniylik va o’sha davrda kamdan-kam keltiriladigan ikkita qarama-qarshi fikrdan qaysinisini tanlashda qiynalgan holda ikkalasini ham keltirgan. Bundan tashqari, Ibn al-Asir siyosiy voqealarning bayoni bilan cheklanmasdan Sharq xalqlarining madaniyatiga oid ma’lumotlarni ham keltiradi. U turli davr va zamonlarda hukm surgan g’oyalar va qadriyatlar, tarixiy shaxslar va adiblarning haqqoniy tavsifini beradi. Ibn al-Asirning asari o’z zamonasida ma’lum bo’lgan barcha yozma yodgorliklar asosida yozilgan bo’lib, arab va musulmon manbalarining tarixiy ma’lumotlarini keng qamrab olgan. Jumladan, Ibn al-Asir asarining oldingi yetti jildi, ya’ni Islomgacha bo’lgan davr va vaf. 329/013-yilning “Tarix ar-rusul va-l-muluk” (Payg’ambarlar va shohlar tarixi yoki “Tarixi Tabariy”) asari asosida (302-hijriy yilgacha davri) yozilgan. Shuning uchun ham olimlarning xulosalariga binoan ikkala asar ham Islom tarixining ilk davriga oid muhim birlamchi manba sanaladi. At-Tabariy o’z asarida barcha mualliflarning ma’lumotlarini tanqidiy yondashmasdan qayta bayon qilish bilan chegaralangan bo’lsa, Ibn al-Asir uning ma’lumotlarini qayta ishlab, qisqartirilgan holda keltiradi, bizgacha yetib kelmagan boshqa manbalarning axboroti bilan ularni to’ldiradi. Shunday ilova va aniq ma’lumotlar Markaziy Osiyo, Misr, Shimoliy Afrika va Ispaniya tarixiga oid hisoblanadi. Ibn al-Asir asarining manbalari qatorida bag’dodlik mashhur tarixchi Ahmad ibn Yahyo ibn Jabir al-

Balazuriyning (vaf. 279/892-y.) “Ansob al-ashrof (Shariflar nasablari) asarini tilga olish mumkin. Xuroson va Movarounnahrning VII asrning ikkinchi yarmidan to X asrning o'rtalarigacha bo'lgan tarixini yozishda Ibn al-Asir bizgacha yetib kelmagan Abulhusayn Ali ibn Ahmad as-Sallamiyning “Tarix fi axbori vulot Xuroson” (Xuroson voliylari tarixi) asaridan keng foydalangan. As-Sallamiy somoniylarning amaldorlaridan bo'lgan Abu Bakr Chag'oniy va uning o'g'li Abu Alining yaqinlaridan bo'lib, o'z asarida voqealar bayonini Abu Ali vafotining sanasi bo'lgan 344/955 yilgacha keltirgan. Ibn al-Asir Safforiylar tarixiga oid ma'lumotlarni Sallamiy asaridan tashqari bizgacha yetib kelmagan, biroq Ibn Xallikon ham foydalangan Abu Abdulloh Muhammad ibn al-Azhar al-Axboriy (vaf. tax. 325/936-37)ning kitobidan olgan. Ibn al-Asirning “Tarixi komil”ida foydalangan boshqa manbalari ma'lum emas, chunki ularni muallif ham ko'rsatmagan. Ibn al-Asir asarining X asrdan XIII asrning boshlarigacha bo'lgan ma'lumotlari alohida ahamiyatga ega. “Bu davr tarixini yozishda, u taxminan At-Tabariy asariga qilingan barcha ilovalar va mahalliy tarixiy asarlardan foydalanishi mumkin bo'lgan”. Ibn al-Asirning “Tarixi komil” asari Xorazmshohlar va mo'g'ullar bosqini davriga oid eng muhim va birlamchi manba sanaladi. Zero, uning muallifi shu davrda yashagan va ko'p voqealarning bevosita guvohi bo'lgan. Mazkur davr arab tilidagi yana ikki asarda — Shihobiddin Muhammad ibn Ahmad an-Nisoviy (vaf. 647/1249) ning “Siyrat as-sulton Jaloliddin Munkbumiy” va Minhojuddin Abu Umar Usmon ibn Muhammad al-Juzjoniy (vaf. 658/1250 yildan keyin)ning “Tabaqoti Nosiriy” asarida yoritilgan, xolos. Ibn al-Asir ba'zi voqealar tafsilotini axborotchilari orqali olganiga ishora qiladi. U og'zaki ma'lumotlarni buxorolik bir faqih, xorazmlik savdogarlar (12 jild, 170-b.), dakuklik bir shaxs (196-b.), Alouddin Muhammad ibn Tekeshning amirlaridan biri bo'lgan Abu Bakr Tojiddinning xizmatkori (139-b.), madinalik bir sayyid (171-b.) va boshqalardan olgan ekan. Ibn al-Asirning “Al-Komil fi-t-tarix”

asari X asrgacha bo'lgan tarixni yoritishda, garchi kompilyativ ahamiyatga ega bo'lsa-da, xususiy va umumiy masalalarni o'rganishda alohida ahamiyatga egadir. X asrning ikkinchi yarmidan XII asrning o'rtalarigacha muarrix Ibn al-Asir bizga kam ma'lum bo'lgan yoki bizgacha yetib kelmagan ko'pgina manbalardan foydalangan. XII asrning ikkinchi yarmidan boshlab 1230/1231-yillargacha bo'lgan davrni yoritishda Ibn al-Asirning asari birlamchi manba sifatida xizmat qiladi hamda uning ma'lumotlari va axboroti originalligi bilan ajralib turadi.

«Buxoro tarixi»ning kitobining muallifining nomi qisqacha Narshaxiy (899-959-y.) deb ataladi. Uning to'liq ismi Abu Bakr Muhammad ibn Ja'far ibn Zakariyo ibn Xattob ibn Sharik bo'lib, X asrda ijod qilgan buxorolik yirik tarixchi sifatida mashhurdir. Tarixchi Sam'oniyning ma'lumotiga qaraganda, Narshaxiy asli Buxoroning Narshax (hozirgi Vobkent yonida) qishlog'idan.

«Buxoro tarixi»ning bosh so'zida aytilganidek, uni dastavval Buxoroning Narshax qishlog'idan bo'lgan Abu Bakr Muhammad ibn Ja'far an-Narshaxiy 943—944-yillarda arab tilida yozgan. «Buxoro tarixining esa arab tilidagi asl nusxasi bizgacha yetib kelgan emas, to'g'rirog'i, hali shu vaqtgacha uning mavjudligi haqida biror ma'lumot yo'q. Gap shundaki, asarning bizgacha yetib kelgan nusxasining bosh so'zida aytilishicha, 1128-yil asli hozirgi Quva shaharidan bo'lgan Abu Nasr Amad ibn Muhammad ibn Nasr al quboviy Narshaxiyning kitobini «ko'pchilik kishilar arab tilida yozilgan kitobni o'qishga rag'bat ko'rgazmaganliklari» sababli o'z do'stlarining iltimosiga binoan arabchadan fors tiliga tarjima qilgan.¹ Narshaxiy o'z asarini 944-yili yozib tugallagan. Narshaxiy aslida o'z asariga qanday nom berganligi ma'lum emas. Shu sababli asar qo'lyozma nusxalarda va hozirgi zamon ilmiy-tarixiy adabiyotida «Tarixi Narshaxiy» («Narshaxiy tarixi»), «Tarixi Buxoro» («Buxoro tarixi»). «Tai ul-viloyat» («Viloyatiatini aniqlash»), «Axbori Buxoro» («Buxoro aida xabarlar») kabi har

¹ Наршахий. Бухоро тарихи. Форс тилидан А. Расулев таржимаси, масъул муҳаррир А. Ўринбоев. www.ziyouz.com. Kutubxonasi. 1 b.

xil nomlar bilan yuritilib kelgan. Bu nomlardan keyingi uchtasi asar mazmuni bo'yicha to'g'ri bo'lib, ulardan eng anig'i — «Tarixi Buxoro» hozirda tarixiy adabiyotda qat'iy o'rnashib oldi. «Tarixi Narshaxiy» deb atalishi esa yuqorida eslatib o'tganimizdek, asarning bizgacha yetib kelgan nusxasi Narshaxiydan boshqa kishilarning ham qo'shimcha va tahrirlari, qisqartirishlariga uchraganligi tufayli tobora kamroq ishlatilib kelmoqda.

Fors tilidagi tarixiy manbalar “Buxoro tarixi” “Tarixi Narshaxiy” va “Tahqiq ul-viloyat” (“Buxoro viloyati taxkiki”) nomlari bilan mashhur bo'lgan bu asarda Buxoro va quyi Zarafshon vohasida joylashgan shahar va qishloqlarning jug'rofiy holati, aholisining VII-X asrlardagi ijtimoiy-siyosiy hayotini aks ettirgan qimmatli tarixiy manbadir.

“Buxoro tarixi” asarining Narshaxiy yozgan arab tilidagi asli saqlanib qolmagan. Asar 1128-yili farg'onalik (Quva shahridan) Abunasr Ahmad ibn Muhammad ibn Nasr al-Kubaviy tarafidan ilk bor qisqartirilib forsiy tilga tarjima qilingan. Oradan taxminan 50 yil o'tgach, 1178-yili kotib Muhammad ibn Zufar ibn Umar “Buxoro tarixi” tomonidan ikkinchi marta tahrir etildi. Shuni xam ko'rsatish lozimki, “Buxoro tarixi” asarining bizgacha yetib kelgan nusxalarida 1178-1220-yilgi voqealar bayoni uning tarkibiga kiritib yuborilgan. Shunga qaraganda, Narshaxiyning asari uchinchi marta noma'lum muharrir tomonidan to'ldirilgan ko'rinadi. “Buxoro tarixi” O'zbekistonning arablar tomonidan fath etilishi, bu yerda Islom dinining tarqalishi hamda mamlakatning Somoniylar hukmronligi yillaridagi tarixini bayon etadigan noyob manbadir. «Buxoro tarixi»ni bosh manba sifatida o'rganib, undagi qimmatli ma'lumotlarni ilmiy tadqiqotlarga jalb qilish ishlari ko'p vaqtlardan beri davom etib kelmoqda. Buxoroning

“Hudud ul-olam” fors tilida yozilgan birinchi jug'rofiy xarakterdagi asardir. Kitobning to'la nomi “Hudud al-olam min Mashriq ila-l Mag'rib”dir (“Sharqdan G'arbga qarab joylashgan mamlakatlarning chegaralari”). Mazkur kitob fors tilida hijriy

372 (milodiy 982 — 983) yili Guzgon viloyatining voliysi Abulhoris Muhammad ibn Ahmad uchun yozilgan, fanda “anonim” (muallifi noma’lum) deb yuritiladi.

“Hudud ul-olam” asari muqaddima va 59 bobdan iborat. Uning 1-7 boblarida yerning tuzilishi, dengizlar, orollar, tog’lar, daryolar, cho’l-u biyobonlar hamda dunyoning inson yashaydigan to’rtidan bir qismi — rub’i maskun va unda istiqomat qiluvchi xalqlar, rub’i maskunning mamlakat hamda viloyatlariga taqsimlanishi haqida umumiy mulohaza yuritiladi. 8-9 boblarida Sharqdan G’arbga qarab joylashgan mamlakatlar, ularni xalqi, o’sha mamlakatlarda ishlab chiqariladigan asosiy matolar, ayrim o’rinlarda esa savdo-sotiqning umumiy ahvoli xususida so’z boradi. “Hudud ul-olam” asarida O’zbekistonning shaharlari, aholisi va ularning mashg’uloti haqida qimmatli ma’lumotlarni uchratamiz.

“Siyosatnoma” – bu mashhur asar muallifi Nizomulmulk laqabini olgan Saljukiylar davlatida vazir sifatida xizmat qilgan yirik davlat arbobi va tarixchi olimdir. Uning asli ismi Abu Ali al-Hasan ibn Ali ibn Is’hok at-Tusiy (1018-1092 yy.) bo’lib, Saljukiy hukmdorlar Sulton Alp Arslon (1063-1073) hamda Sulton Malikshox II larning bosh vaziri bo’lgan va bu davlatning ijtimoiy-siyosiy hayotida katta rol o’ynagan. U saltanatdagi tarqoqlikka barham berish, markaziy davlat tuzumini mustahkamlash, davlatning moliyaviy ishlarini tartibga solish uchun harakat qilgan. Shuning uchun unga mamlakatni tartibga soluvchi, ya’ni Nizomulmulk nomi berilgan. Nizomulmulk Bag’dodda “Nizomiya” atalmish musulmon huquq-aqoid maktabiga asos solgan. Abu Ali Hasan ibn Ali Tusiy Nizom al-mulk Sharq tarixi va madaniyatida o’zining “Siyosatnoma” (yoki “Siyar al-muluk”) asari bilan o’chmas iz qoldirgan. Abu Ali Hasanning bobosi Bayhaq qishlog’ining eng nufuzli dehqonlaridan bo’lib, to’rt nafar o’g’ilning otasi edi. Uning katta o’g’li Abulhasan Ali otasi vafotidan keyin Xuroson voliysi Abulfazl saroyiga borib xizmatga kiradi. 1018-yilda uning oilasida Tusning Rodkon viloyatidagi Navg’on qishlog’ida Abu

Ali Hasan olamga keladi. U boshlang'ich tahsilni shu yerda oladi, keyin Nishopur va Marvda o'qib, voyaga yetgach, Balxga borib, Ali ibn Shodon xizmatiga kiradi. Keyinchalik u Dovud ibn Mikoilga dabir bo'ladi. Dabirlik mansabidan saljuqiylar shohi Alparslon (1063/1072) saroyida vazirlik mansabigacha ko'tariladi va "Nizom al-mulk", ya'ni mulkning nizomi, tartibi nomi bilan shuhrat qozonadi. Vazirlik davrida u qariyb davlatning butun ishlarini o'zi olib boradi. Nizom al-mulk saroy va davlatdagi shunchalik katta obro' e'tiboriga qaramasdan hasadgo'y, g'arazgo'y kishilar va mansabdorlarning ig'volari-dan xavfsirab yashardi. Hatto Alparslonning o'zi ham vazirini rofiziylilikda ayblab, uning shofi'iy mazhabida emasligidan afsuslanardi. Shohning shunday munosabatini Nizom al-mulk o'z asarida taassuf bilan eslaydi. 1072-yili Alparslon o'ldirilganidan keyin Nizom al-mulk uning o'g'li, 17 yoshida taxtga o'tirgan Malikshoh (1072/1092-yillar) saroyida vazirlik qilib, bu shohning davlatiga ham katta madad berib, mulkini boshqarib turadi. Malikshoh uni o'z homiysi otabek deb atagan. Vazirligi davrida u ko'p olimlar va mashhur kishilarga homiylik qilib, moddiy yordam ko'rsatdi. Ulug' olim va shoir Umar Xayyom ham Nizom al-mulkning oqilona siyosatidan bahramand bo'lganligi yaxshi ma'lum.

Shu hukmronlar davrida Nizom al-mulk Arabistondan Turkistongacha bo'lgan mamlakatni boshqargan. Bu davrda hatto xalifaning poytaxti bo'lmish Bag'dod ham Malikshoh qo'lida edi va uni bevosita vaziri Nizom al-mulk boshqargan. Tarixchi Mirxond o'zining "Ravzat as-safo" asarida (4-jild, 107-bet) bir voqeani keltirgan. Bir kuni Malikshoh Nizom al-mulkning o'g'lidan xafa bo'ladi. U sulton sahnasini taxqir qilgan emish. Vaziri oldiga o'z odamlarini yuborib, xafa bo'lganini bildirib, aytib yuboradi: "Agarda mamlakat boshqaruvida sen menga sherik bo'lsang mayli-ya, biroq menga tobe bo'lsang nimaga o'g'ling qilmishlarini nazorat qilmaysan, u haddan chiqib ketibdi-ku. Xohlasam buyuraman oldingdan davotni oladilar (ya'ni vazirlikdan tushiraman seni)". Nizom al-mulk

unga javob beradiki: "Sening davlatu tojing mening davotimga bog'liq, vazirlikni mendan olsang, sendan tojingni oladilar". Nizom al-mulkning oqilona va adolatli davlat boshqaruvidan Malikshohning nomi tarixda qoldi. U adl va insofning buyuk me'mori edi va vazirligi davrida Bag'dod, Basra va Isfahonda "Nizomiya" nomidagi madrasalar bino qiladi. Malikshoh va uning vaziri Nizom al-mulk davlatida iqtisodiy sharoit yaxshilangan davrda 30 yoshli Umar Xayyom (1040/1123) taniqli astronom edi. Uni 1074-yili Sosoniylarning shamsiy taqvimi (kalendari)ni isloh etish uchun tuzilgan guruhga rahbarlikka taklif qilishadi. Umar Xayom bu ishni bajarib, devonning ilmiy va davlat ishlariga taklif qilindi. Bu taklifni Umar Xayom rad etsa ham Nizom al-mulk unga yiliga 1200 tuman haq berib, ilmiy va adabiy faoliyatini olib borishi uchun Nishopurda sharoit yaratib beradi. Malikshoh saljuqiylar imperiyasi poytaxti bo'lmish Marvda katta rasadxona qurdiradi. Saroyda ilmiy-madaniy muhit shakllanadi. Bo'lg'usi buyuk olim — Muhammad G'azzoliy (1058/1111) bu vaqtda endi ijodga kirib kelgan, arabiynavis shoirlar Muiziy, Tantaroni, Tug'roiy kabilar Malikshoh saroyi bilan bog'langan edi. Nizom al-mulk 1067 yili Bag'dodda olamga mashhur "Nizomiya" madrasasini qurdiradi. Muhammad G'azzoliy o'z vaqtida shu madrasada dars bergan. Nizom al-mulk o'z davrining mashhur kishilaridan bo'lmish Hasan Sabohni ham Malikshoh saroyiga jalb etadi. Ammo keyinchalik u bilan kelisha olmay, uni saroy xizmatidan chetlatadi. Ular o'rtasida ochiq dushmanlik munosabati paydo bo'ladi. Hasan Saboh Misrga borib tahsil olib, ismoiliya mazhabining doiyse-targ'ibotchisi bo'lib qaytgach, kuch bilan G'azvin yaqinidagi Alamut qal'asini bosib oladi va Malikshoh Saljuqiy va uning vaziri Nizom al-mulkka qarshi harakatlarini boshlaydi. Bundan tashqari, Malikshoh o'limidan keyin uning avlodlari o'rtasida taxt uchun kurash boshlanadi. Nizom al-mulk Malikshohning katta o'g'li Barqayoriqning taxt uchun kurashuviga madad beradi va bu bilan Malikshohning xotini Turkonxotunning

ashaddiy dushmaniga aylanadi. Davlat ishlariga ta'siri juda sezilarli bo'lgan Turkonxotunning bevosita ishtirokida Nizom al-mulk vazirlikdan olinib, o'rniga shu xotinning yaqin kishisi Tojulumk Abulg'anoim ibn Xusravi Firuz tayinlanadi. Vazirlikdan ketgan Nizom al-mulk ana shu kishilarning ig'volari hamda Hasan Sabohning ishtiroki bilan Bag'dod safari yo'lida, Nahovand shahri yaqinida Abu Tohir ismli yollangan qotil tig'idan 1092-yili 14-oktyabrda o'lim topadi. Malikshoh taxtdan tushgach, merosxo'rlar o'rtasidagi toj-taxt uchun talashuvlar natijasida u bunyod etgan rasadxona yopilib, Umar Xayyom ham bu yerni tark etadi. Madaniy muhit tanazzulga yuz tutadi. Malikshoh Saljuqiy hukmronligi davrida saroyning fozil va olimlariga davlatni boshqarish qoidalari, tartiboti va usullari haqida bir risola yozib, unda o'tgan shohlar tarixi va hayotiy tajribasidan misollar keltirishlarini buyuradi. Bu risola, avvalo, davlat boshqaruv ishlarida dastur vazifasini bajarishi kerakligini ta'kidlaydi. O'ziga xos ushbu ijodiy bellashuvda Nizom al-mulk ham ishtirok etadi. Uning so'ziga qaraganda, mazkur ishga Sharafulumk (Abu Said Muhammad bini Mansur bini Muhammad al-Xorazmiy), Tojulumk, Majdulumk (Abulfazl Asad bini Muhammad al-Humiy) va boshqalar qo'l uradilar.

Kitob 1092-yili yozib tugallangan. 1091-yili Nizom al-mulk yozgan bobdan iborat "Siyosatnoma" yoki "Siyar al-muluk" ("Podshohlar turmushi") nomli asar shohga manzur bo'ladi. So'ngra Nizom al-mulk asarini qayta ishlab, uni yangi bob va qismlar bilan boyitadi. 1092-yili uni ko'chirib, Sulton Malikshohga berib qo'yish uchun saroyning maxsus kotibi Muhammad Mag'ribiy an-Nosixga topshirib, o'zi Bag'dod safariga yo'l oladi. Nizom al-mulkdan keyin, 1092-yili Malikshoh ham o'ldirilib, toj-taxt uchun kurash avj olib ketadi va davlat ishlari tartibsizlikka uchrab, xalqning ahvoli yomonlasha boradi. Shuning uchun ham Muhammad Mag'ribiy faqat 1105-yilga kelib, ya'ni G'iyos ud-din Muhammad bini Malikshoh davrida (1105/1118-yillari) asarni e'lon qilishga muvaffaq bo'ladi. Shunday qilib, kotib Muhammad Mag'ribiyning Nizom al-

mulkka sadoqati va shijoati tufayli uning asari bizgacha yetib keldi. "Siyosatnoma" asari yaratilgan davridan boshlab olimlar, tarixchilar, adiblar, eng asosiysi, shoh-u hokimlar diqqatini tortib keladi. Bu asarni sultonlar va boshqa mansabdorlar ko'chirtirib olib, o'z faoliyatlarida foydalanganlar.

"Siyosatnoma" asarining boshqa nomi "Ciya al-muluk" ("Podshoxlarning turmushi")dir. U 51 bobdan iborat bo'lib, unda davlat tizimi, moliyaviy hisob-kitob ishlari, qo'shin tuzilishi, mansablar va ularga amaldorlarni tayinlash tartibi, amaldorlar faoliyati muammolari xususida fikr yuritiladi. Asarda O'zbekiston tarixiga oid muhim va qimmatli ma'lumotlar bor. Somoniylar zamonida turk g'ulomlarining davlatning ijtimoiy-siyosiy hayotida tutgan o'rne, Turkiston xonlari Qoraxoniylar saroyida xizmat qiluvchi xodimlarning maishiy ahvoli, Somoniylar xizmatida bo'lgan amirlar unvonlari, Xorazmshox Oltintosh (1017-1032) bilan Sulton Mahmud G'aznaviyniing vaziri Ahmad ibn Hasan o'rtasidagi yozishmalar ana shular jumlasidandir. Asarda, bundan tashqari, karmatlar, botiniylar harakati, Muqanna qo'zg'oloni haqida xam ayrim diqqatga sazovor ma'lumotlar mavjud. "Siyosatnoma" Sharq madaniyatini, saljuqiylar tarixi va siyosiy hayotini o'rganishda eng ishonchli manba bo'lishi bilan birga, fors adabiyotining dastlabki badiiy asarlaridan sanaladi. Sohibqiron Amir Temur o'zining tuzuklarida ulug' vazir va davlat arbobi Nizom al-mulk amallarini hurmat-ehtirom bilan eslab, jumladan, shunday deydi: "Masalan, Malikshoh Saljuqiy o'z vaziri Nizom al-mulkni martabasidan tushirdi. Vazir boshdan-oyoq yaxshi sifatlarga o'ralgan edi. Uning o'rniga zoti past, yomon bir kishini vazir qilib tayinladi. Bu shumqadam vazirning qabix ishlari, zulm-sitami va nafsi buzuvchiligi kasofatidan saltanat binosi buzila boshladi". Sohibqiron boshqa bir joyda Nizom al-mulkni davlatni boshqarishda ibrat qilib ko'rsatib, uning fazilatlariga ta'rif beradi: "Nizom al-mulkning yomon qilmishlari kam bo'lib, xayrli ishlari ko'proq edi. U hajga bormoqchi bo'lib turgan vaqtda avliyolardan biri unga debdi: "Malikshoh

davlatining xizmatida bo'lib, amalga oshirayotgan xayrli ishlarini va Tangri taoloning bandalariga yetkazib turgan yordami haj qilish bilan barobardir". Amir Temur aqlli, bilimdon va hushyor vazir mamlakat hayotining turli jabhalarida juda katta kuch ekanligini, podshohining boshiga tushgan muhim va mushkul ishlarni tadbirkorligi, uzoqni ko'ra bilishi bilan osonlashtirishini oliyjanoblarcha e'tirof etadi. "Bunday vazirni e'zozlab, esinlar", "davlat sherigi bilib, aziz ko'rsinlar, zinhor uning so'zidan chiqmasinlar, u nima degan bo'lsa, bari aql ko'zgusidir", deya qayta-qayda ta'kidlar ekan, shunday hurmatga sazovor vazir sifatida yana Nizom al-mulkni misol keltiradi. Asarning tarixiy, siyosiy va badiiy ahamiyati shundaki, u saljuqiylar hukmronligiga oid obro'li manba bo'lib, bu silsila shohlari uchun davlatni boshqarishda bir dastur tarzida yaratilgan. Asar adabiy manba sifatida ham juda qimmatlidir. Shu sababdan asarga, Nizom al-mulk shaxsiyatiga Amir Temur, Alisher Navoiy, "Dastur al-muluk" muallifi Samandar Termiziy, "Osor al-bilod" muallifi Abu Yahyo Zakariyo ibn Muhammad al-G'azviniy hamda Ibn Isfandiyor, Ibn Bibi, Ibn Tiqtak, Xoja Xalifa va boshqa ko'plab ulug' allomayu davlat arboblari g'oyat yuksak baho berganlar. Ushbu asar mashhur sharqshunos olimlardan Sh.Riyo, V.Dorn, E.Brove, A.Mstensen, Sh.Shefer, T.Neldeke, V.V.Bartold, A.Krimskiy, Muhammad Nizomiddin, Fayz al-Hasan Fayziy, B.G'afirov, B. Ahmedov va boshqalar diqqatini tortib, ularning jiddiy xulosalariga asos bo'lgan. Ko'pgina xorijiy nashrlarda "Siyosatnoma" asari bugungi siyosatchilar uchun ham eng yaxshi qo'llanma sifatida baholanadi. "Siyosatnoma" asari va Nizom al-mulkning shaxsiyati ko'p mutaxassislar qatori o'zbek olimlari hamda dunyo olimlarini qiziqtirib kelmoqda. Bu asardan ba'zi parchalar va ma'lumotlarni biz akademik Bo'riboy Ahmedovning maqolalarida hamda "O'zbekiston tarixiga oid manbalar" kitobida uchratamiz. "Siyosatnoma" yoki "Siyar al-muluk" asarini olimlar saljuqiylarning siyosiy dasturi sifatida baholaganlar. Asarning asosiy g'oyalari ham shundan iboratki,

vazir Nizom al-mulk shoh va hokimlarni adl-u insofga, sulh va muruvvatga, davlatni oqilona boshqarib, qat'iy qoida va tartib o'rnatishga, amaldorlarni vijdonli, pok, halol va imonli bo'lishga, mamlakat obodonligi, uning ahli farovonligi, tinchligi va totuvligini ta'minlash uchun harakat qilishga da'vat etadi. O'quvchi Nizom al-mulk asarini o'qir ekan, muallifning aql-zakovati, hayotiy tajribasi, hikoya va misollariga maftun bo'ladi, unda keltirilgan ilmiy, axloqiy-tarbiyaviy, diniy dalillarga ishonadi, asar muallifining tiliga, badiiy tasvir mahoratiga qoyil qoladi. Masalan, Alisher Navoiy "Majolis un-nafois"da Xoja Kamoliddin Husayn nomli shoir haqida gapira turib shunday yozadi: "Xoja Nizom al-mulkning o'g'lidir. Otasining obro' va iftixori burungi Nizom al-mulkdin ortiqroq bo'lmasa, o'ksik ham emas. E'tibor yuzidin aning bila teng bor edi. Ammo mansab yuzidin ortti..." Navoiyning gaplari shuni ko'rsatadiki, Hirot madaniy muhiti uchun saljuqiylar vaziri taniqli shaxs bo'lgan. Shu boisdan ham boshqani unga nisbat berib ta'riflayapti. Nizom al-mulk fikricha, adolat va saxovat xayr-sadaqadan, nochor, noiloj kishilarga madad berishdan, beva-bechoralar, mayib va nogironlarga xazinadan nafaqa ajratishdan va insonlarning huquqlariga rioya qilishdan iboratdir. Amaldorlarni to'g'ri tanlab, ularga qo'llaridan keladigan ishlar va vazifalarni topshirish, bir kishiga bir amal berib, undan itoat va ijro fazilatini kutish davlat boshqaruvining asosiy talablaridandir. Har bir ishda amaldorlarning maslahat bilan ish ko'rishlari ko'zda tutiladi. Nizom al-mulk shoh — hayot tajribasiga ega bo'lgan, jahon kezgan oqsoqollar, olimu mo'tabar kishilar bilan maslahatlashib ish tutishi tarafdoridir. Nizom al-mulkning yana bir fikri zamonamiz bilan hamohang. Bu g'oya shundan iboratki, davlatda markaziy hukumat (ya'ni shoh hokimiyati) juda ham kuchli bo'lishi lozim. Shundagina davlatda tinchlik va adolat barqaror bo'ladi, raiyat o'z maqsadiga yeta oladi, jamiyat sulh va adolatda, muruvvatda yashaydi. XI asr vaziri Nizom al-mulkning fikricha, raiyat ahli, zulmu sitam ko'rgan har bir kishi, umuman norozi bo'lganlar

amaldor va hokimdan boshlab vazir va shohning o'zigacha qabullariga borib, shikoyati yoki maslahatini bayon qilishlari zarur. U yozadi: "Podshoh haftada ikki kun zulm ko'rganlarni qabul qilib, zolimlarning dodini berib, jazolab va raiyat so'zlarini bevosita eshitib borishi kerak. Agarda xudovand podshoh dodxohlarni oldiga chaqirib, haftada ikki marotaba ularning so'zlarini eshitadi va zolimlarning jazosini beradi, degan xabar mamlakatga tarqalsa, unda sitam qiluvchilar oqibatini o'ylab, qo'rqib bedodlik qilmaydilar". Nizom al-mulk har bir g'oyani isbotlash uchun muayyan tarixiy va afsonaviy shaxslar, sulolalar va saltanatlar tarixidan, o'tmishidan foydalanib, tegishli voqealardan misollar keltiradi. Davlat boshqaruvi va hukumatchilikka u 875/999-yillarda hukm surgan somoniy hamda g'aznaviy sulton va shohlarni namuna qilib ko'rsatadi. Bu sulolalarning namoyandalarini nihoyatda ulug'lab, ba'zan ularga xos bo'lgan fazilat va yaxshi xislatlarni, xulq-atvorlarni e'zozlab, zamona shohlarida ham shunday sifatlarni ko'rmoqchi bo'ladi va shu bilan ularga davlatni boshqarish borasida samimiy maslahat qiladi. Nizom al-mulk zamonasidagi salbiy munosabatlarni ba'zan ochiqchasiga bayon qiladi, lekin oqil inson, davlat arbobi bo'lganligidan ba'zi harakatlari zoye ketayotganligini yaxshi tushunadi. o'sha davrlarda ham hasadchi va g'arazli amaldorlar borligini, saroydagi makrlar, amaldorlarning bir-birlariga qasd va dushmanliklari davlat ishlariga, xalq va saltanatga ziyon ekanligini yashirmaydi. "Bizning zamonda, deb yozadi u, amirlar bir harom dinordan cho'chimaydilar, haqiqatni yolg'onga chiqarib, ish oqibatini o'ylamaydilar". Boshqa joyda "Hozir shunday zamon bo'lganki, yuz musulmonning qoni to'kilsa ham, birovning zarracha ishi yo'q. Oltinlarni olganda ham birovni javobgar qilmaydilar, ishni ham oxirigacha olib borolmaydilar. Davlatni idora etishda amaldorlar katta o'rin tutishlarini yaxshi tushungan Nizom al-mulk ularni to'g'ri tanlab, joy-joyiga qo'yishni, har biriga loyiq amal berib, asosiy maqsad yo'lida tarbiya qilishni muhim bir talab deb biladi. Har qaysi

amaldorni tarbiyalashga ko'p vaqt ketishi va bu mushkul ish ekanini tushuntirib, hokimlarga qo'l ostidagilarni ehtiyot qilishni maslahat beradi. Amaldorning xatosini ko'rib, uni darrov ishidan olish to'g'ri emasligini, uni birinchi marotaba kechirib, yana xato qilmasligi uchun himoya qilish kerakligini aytadi. Asarning ba'zi qismlari va boblarida xalifalarga qarshi bo'lib o'tgan qo'zg'olon va urushlar, Islomdagi har xil mazhab va jarayonlar, ularning namoyandalari va tarafdorlari haqida ham ma'lumotlar mavjud. Jumladan, Mazdak harakati, Muqanna qo'zg'oloni, Abu Muslim harakati, Ozarbayjonda afshin Bobakning chiqishlari hamda qarmatiy, botiniy, rofiziylar, qadariya va shialar harakatlari bilan bog'liq voqealar o'z aksini topgan. Muallif bu voqealarni bayon qilib, ularning sabablari va oqibatlarini ochib berishga harakat qiladi. Muallifning eng asosiy xulosasi shundan iboratki, markaziy davlat yagona bir g'oyaga sohib bo'lmasa, har xil g'oya va fikr tarafdorlari hukumat uchun kurashadilar, bu maqsad esa qon to'kishlar va zulmu sitamlarga sabab bo'lishi mumkin. Markaziy hukumat, davlat, shohu hokimlar xalq birligi, davlat istiqloli, qudrati va mudofaasini ta'minlash uchun kuch-g'ayratlarini sarflashlari zarur, degan g'oya yetakchi o'rinda turadi. "Siyosatnoma" mavzu jihatdan juda keng qamrovli va sarmazmun asar. Unda davlat boshqaruviga aloqador qariyb hamma qoida va qonunlar, usul va vositalar, qozi va qozixona ishlari, qo'shin va sarbozlar, xizmatchi va shaxsiy sarbozlar masalalari, saroydagi soqchilaru posbonlar vazifalari, ularning maoshlari, pochta va ayg'oqchilik (razvedka) ishlari, ularning moddiy jihatlari, xazina va baytulumol, elchilarga munosabat, hatto shohning oilaviy ishlari, uning bazm va majlislari, xos xodim va shaxsiy soqchilari haqida ma'lumot va maslahatlar bor. Asarda moliya va xo'jalik ishlari, soliq va xiroj, zakot va vaqf masalalari ham o'rin olgan. Ular ba'zan kerakli darajada ochib berilgan bo'lmasa ham, muayyan tadqiqotlarga ozuqa bo'la oladi. Asar hozirgi davr siyosatchilariga, davlat amaldorlari va mansabdor kishilarga, umuman, o'tmish tariximizga qiziquvchi barcha

o'quvchilarga ma'naviy ruh va kuch beradi, deb o'ylaymiz. Asarning badiiy qiymati shundaki, uning muallifi o'z fikrlarini turli hikoyatlar vositasida isbotlab, mustahkamlab boradi. Qarashlari o'quvchiga tezroq yetishi uchun turli tarixiy shaxslar, har xil qahramonlar va ularning hayoti bilan bog'liq hikoyatlarni keltiradi. Saljuqiy hukmdorlarga pand-nasihat qilayotgan muallif, asosan, ilgari o'tgan hukmdorlar bilan bog'liq voqealarni keltirish bilan, ularning ijobiy xususiyatlarini zamonasi shohlariga, o'tmish hukmdorlariga namuna qilib ko'rsatishni istaydi. Salbiy jihatlarni tilga olarkan, ularning oqibatlaridan saboq beradi. Asar tilining soddaligi bilan kitobxonni o'ziga tortadi. Bayon uslubidagi publitsistik ruh ham Nizom al-mulkning asarini o'qimishli qilgan. "Siyosatnoma", – deb yozadi professor B.N.Zaxoder, — bu jiddiy siyosiy hujjat bo'lib, markaziy hukumat parchalanishiga qarshi qaratilgan asardir. "Siyosatnoma" markazlashgan davlat tuzishga da'vat etib, kuchli davlat mahkamasi, armiya va boshqa tekshirish vositalarini yaratishga chaqiradi".

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Arab yozuvining vujudga kelishi va turlari.
2. Qur'oni Karim tanqidiy matnining tuzilishi tarixi.
3. Bayt al-hikma akademiyasida tarjimonlik faoliyati.
4. Parfiyoniy yozma yodgorliklar talqini.
5. Hadislar to'plamlarining tuzilishi tarixi.

QIYOSIY GERMENEVTIKA XIII-XIV ASRLARGA DOIR MANBALAR MISOLIDA

XIII-XIV asrlar Markaziy Osiyo tarixida Qoroxoniylar davlatining inqirozi, Qoraxitoylar hujumlari, Saljuqiylar, Xorazmshohlar davlati va Mo'g'illar bosqini, Oltin O'rda, Chig'atoy uluslarning tashkil topishi bilan alohida xarakterlanadi. Ushbu davrda bir qancha asarlar yaratilgan bo'lib, ularning ko'pchiligi bizning davrimizgacha yetib kelgan. E'tiborlisi, bu asarlarni chuqurroq tahlil qilish, bunda, ularni qiyosiy germanevtik jihatdan ko'rib chiqish joizdir. Chunonchi, shunday Markaziy Osiyo tarixiga oid manbalardan biri "Jome ut-tavorix" ("Tarixlar majmuasi") asaridir.

"Kitob al-qand fi tarixi Samarqand" asarining muallifi Najmuddin Abu Hifs Umar ibn Muhammad ibn Ahmad ibn Luqmon an-Nasafiy (1068-1142) nomli yirik tarixchi, tilshunos va faqihdir. Olim musulmon qonunshunosligiga oid, "Qur'oni karim" sharhiga bagishlangan va tasavvuf xususida "Risolai Najmiya" kabi bir necha kitoblar yaratgan. Mazkur asar nomini "Samarqand tarixi haqida qand kitob" deb tarjima qilish mumkin. Nasafiyning biz uchun eng muhim asari "Kitob al-qand fi tarixi Samarqand" nomli kitobidir. Unda O'rta Osiyoning Islomgacha bo'lgan tarixi, uning arablar tomonidan fath etilishi, Samarqandning diqqatga sazovor osori-atiqalari haqida ma'lumotlar keltirilgan. Asarda 1232 ta ulamoning tarjimai hollari rivoyat qilgan hadis va isnodlari mavjud.

"Jome ut-tavorix" ("Tarixlar majmuasi") asarining muallifi mashhur qomusiy olim, tarixchi, tilshunos, tabib va yirik davlat arbobi Rashiduddin Fazlulloh ibn Imoduddavla Abulxayr al-Xamadoniydir. Uning ota-bobolari ham o'z zamonining o'qimishli kishilaridan bo'lganlar. Masalan, bobosi dastlab yirik qomusiy olim Nosiruddin Tusiy (1201-1274) bilan birgalikda Alamut qal'asida Ismoililar xizmatida bo'lgan, so'ng mo'g'ullar tarafiga o'tib ketgan. Otasi Imoduddavla Abulxayr o'rta xol kishi bo'lib. Xamadonda tabibchilik bilan kun kechirgan, keyinchalik Elxoniylar saroyiga taklif qilinib, u yerda ham o'z

kasbi bilan shug'ullangan.

Rashiduddin 1247-yili Xamadonda tug'ilgan. Yoshligidan yaxshi o'qib, ota kasbidan tashqari ko'pgina ilmlarni — ilohiyot, tabiiy fanlar, mumtoz adabiyot, tarix, geografiya va boshqa fanlarni puxta egallagan.

Rashiduddin Elxon Abaqaxon (1265-1282) davrida uning shaxsiy tabibi bo'lib xizmat qilgan, keyincha G'ozonxon (1295-1304) va O'ljoytuxon (1304-1317)lar vaziri bo'lgan. Ushbu xonlarning xomiyligi, ayniqsa o'zining tadbirkorligi orqasida, davlatning moliyaviy muassasasi tamoman uning qo'lida edi, Rashiduddin vazirlik yillari (1298-1317) o'z davrining eng badavlat va nufuzli kishilaridan biriga aylandi. Xalokuiylar davlatining turli viloyatlarida uning 80 000 gektar hosildor yer-suvi, bog'lari, o'nlab hammom, karvonsaroy, xunarmandchilik va savdo do'konlari, yaylovlarda esa 250 000 qo'yi, 30 000 yilqisi, 10 000 tuyasi bo'lgan. Rashiduddinning shaxsiy boyligi, tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, 35 000 000 dinorga teng bo'lgan. Uning ko'p sonli o'g'illari, 16 nafar Bag'dod, Rum, Gurjiston, Ardabil, Isfahon, Fors, Xuziston, Kirmon va Domg'on viloyatlarining hokimi edilar.

Rashiduddin feodal tarqoqlik va ayirmachilik tarafdori bo'lgan ko'chmanchi turk-mo'g'ul katta yer egalaridan farqli o'laroq, o'troqlik hamda markaziy davlat massasasini mustahkamlash tarafdori edi. Uning Rozonxon davrida o'tkazgan ma'muriy va moliyaviy islohotlari shunga qaratilgandi. Oxiri Rashiduddin elxoniylar saroyida hukm surgan fitna qurboni bo'ldi. Endigina taxtga o'tkazilgan Abu Sa'idxon (1317-1335) Rashiduddinni saroydan chetlashtirdi. Oradan bir yil o'tgach, u O'ljoytuxonni zaharlab o'ldirishda ayblanib, 1318 yilning 18 iyulida qatl etildi, barcha mol-mulki musodara qilindi. O'shanda uning Tabrizdagi 600 000 jild kitobga ega boy kutubxonasi ham talon-taroj qilindi.

Rashiduddin tarixda o'zining yirik asarlari bilan xam nom qoldirdi. Ilohiyot ilmining ayrim masalalariga bag'ishlangan "Al-majmuot ar-Rashidiya" ("Rashiduddinning majmualari"),

tibbiyotga oid “Al-osor va-l-ixya — (“Tirik narsalarning qoldiqlari”), “Bayon al-haqoiq (“Xaqiqatlar bayoni”), qurilish masalalariga bagʻishlangan “Asila va ajiba” (“Ajib va asil narsalar”) va nihoyat, jahon tarixini oʻz ichiga olgan “Jome ut-tavorix” uning qalamiga mansub. Jome ut-tavorix” asari 1301-1311 yillar orasida Gʻozonxonning topshirigʻi bilan yozilgan.

Olimning bizning zamonamizgacha toʻla yetib kelgan birdan-bir asari ana shu “Jome ut-tavorix” boʻlib, u oʻrta asr tarixnavisligining oʻziga xos noyob obidasi hisoblanadi. Bu kitob oʻrta asr Sharq tarixchiligida yangi anʼanani boshlab bergan asar. Unda umumiy tarix sifatida musulmon mamlakatlari tarixi bilan birga, Gʻarb mamlakatlari, Xitoy hamda Hindiston tarixini xam yoritilgan, Sharq mamlakatlari tarixi umum jahon tarixining bir qismi, deb hisoblangan.

Asar uch qismdan iborat: 1) Moʻgʻullar va ular asos solgan davlatlar Ulugʻ yurt, yaʼni Moʻgʻuliston, Elxoniylar davlati xamda moʻgʻullar asoratiga tushib qolgan mamlakatlar, Shimoliy Xitoy, Oʻrta Osiyo va Yaqin hamda Oʻrta Sharq mamlakatlari xalqlarining moʻgʻul istilochisigacha boʻlgan qisqacha tarixi; 2) Sharq mamlakatlari xalqlarining islomiyotdan avvalgi tarixi, Arab xalifaligi va uning tarkibida tashkil topgan Gʻaznaviylar imperiyasi, Saljuqiylar davlati, Xorazmshoxlar davlati tarixi; Xitoy, qadimgi yahudiylar, franklar, Rim imperiyasi va Xindiston tarixi; 3) Yer kurrasi hamda yetti iqlim mamlakatlarining geografik holati. Afsuski, asarning soʻngi, uchinchi qismi saqlanmagan. Koʻlyozma 1318 yili Rashiduddinining shaxsiy kutubxonasi talon-taroj qilingan vaqtlarda yoʻqolgan boʻlishi mumkin.

Mazkur asar, ayniqsa uning turk va moʻgʻul xalqlarining Chingizxonga qadar kechgan tarixi Mahmud Koshgʻariy va Alouddin Otamalik Juvayniy asarlari, Elxoniylar kutubxonasida saqlanayotgan “Oltin daftar”, Chingizxon va uning ota-bobolari tarixi, shuningdek, turk-moʻgʻul xalqlari tarixi va rivoyatlarini yaxshi bilgan kishilar, Pulod, Chjen-syan, Gʻozonxon va boshqalarning ogʻzaki axborotlari, Gʻarb mamlakatlari, Xitoy va

Hindiston xalqlari tarixiga oid qismlari o'sha vaqtlarda Eronga kelib qolgan fransiyalik ikki katolik rohib, ikki xitoylik olim va kashmirlik rohibning ishtirokida yozilgan. To'plangan ma'lumotlarni tartibga solish ishlarini muallifning yordamchilari Abdulla Koshoniy hamda Ahmad Buxoriylar bajarganlar.

“Jome ut-tavorix” asarining ayniqsa turk-mo'g'ul xalqlari tarixini o'z ichiga olgan qismi Markaziy Osiyo xalqlari tarixini o'rganishda katta ahamiyatga ega. Kitobning O'rta Osiyo, Eron va Kavkaz orti xalqlarining XIII asr boshlaridagi ijtimoiy-siyosiy hayotiga oid qismlari xam benihoyatda qimmatlidir.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Fors tilli tarixiy manbalar.
2. Fors tilli tarixiy manbalar va ularning tarixnavislikdagi o'rni.
3. Eng qadimgi fors tilida bitilgan manbalar.

AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRI MANBALARI QIYOSIY GERMENEVTIKASI

XIV-XV asrlar Markaziy Osiyo tarixida Amir Temur va temuriylar hukmronlik qilgan davr sifatida alohida xarakterlanadi. Bu davrga doir anchagina asarlar yaratilgan va ko'pchiligi bizning davrimizgacha yetib kelgan. E'tiborlisi, bu asarlarni chuqurroq tahlil qilish, bunda, ularni qiyosiy germenevtik jihatdan ko'rib chiqish joizdir. Chunonchi, shunday Markaziy Osiyo tarixiga oid manbalardan biri "Zafarnoma" asaridir.

Chunonchi, Mavlono Nizomuddin Shomiy yoki mavlono Nizomuddin Shanbiy, Shanbi Bozoniy asli Tabrizning shimoli-g'arbiy tarafida, undan ikki mil masofada joylashgan joyda tug'ilgan tarixchi, "Zafarnoma" asari bilan mashhur. U 1393-yili Amir Temur xizmatiga qabul qilingan, 1404-yilgacha u bilan, sohibqironning g'arbiy yurishlarida voqeanavis va voiz mansabida ishtirok qilgan. 1402-yili Amir Temur uni o'zining tarixini aniq va sodda tilda yozib berishni buyurgan. Nizomuddin Shomiy bu asarni 1402-1404-yillar orasida yozib tamomlagan.

Asar jahongirning hokimiyat tepasiga kelishi (1370-yil.)dan to 1404-yilgacha bo'lgan voqealarni o'z ichiga oladi. "Zafarnoma" asari haqiqatan ham sodda tilda, ravon uslubda yozilgan, daliliy ma'lumotlarga boy. Lekin, Amir Temur hayoti mazkur asarda birmuncha, Sharafuddin Aliga nisbatan kam ideallashtirilgan.

Asar O'zbekiston, Qozog'iston, Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarining XIV asr II yarmi va XV asr boshlaridagi ijtimoiy-siyosiy tarixini o'rganishda muhim va ishonchli manbalardan biri hisoblanadi.

Nizomuddin Shomiy o'z asarini yozishda G'iyosidin Ali Yazdiyning "Ruznomayi g'azavoti Hindiston", Amir Temurning uyg'ur kotiblari tomonidan yaratilgan "Tarixi xoniy" va boshqa saroyda bitilgan kundaliklardan foydalangan.

“Muntaxab ut-tavorixi Mu’iniy” nomli Temuriylar davriga oid asar muallifi Mu’iniddii Natanzidir. U Isfahon shahriga qarashli, undan qariyb yigirma farsax masofada joylashgan Natanz shahrida tug’ilgan. Ch. A.Storining ma’lumotiga qaraganda asli seistonlik bo’lgan. Fors viloyatining hokimi Temuriy Iskandar Mirzo (Amir Temurning nabirasi, Umarshayxning o’g’li, 1415-yili inisi Boyqaro Mirzo tomonidan o’ldirilgan) saroyida xizmat qilgan. Davlatshoh Samarqandiyning so’zlariga qaraganda: “Mu’iniddin Natanziy Sulton Iskandar davrida Iroqi Ajam va Forsda shuhrat topgan olimlar va shoirlar jumlasidan bo’lib..., ilmda o’z zamonasining yetakchisi edi va Mirzo Iskandarning maqoma va holati hamda tarixini yozgan”.

Mu’niddin Natanziy qalamiga mansub bo’lgan va bizning zamonamizgacha yetib kelgan bu asarning aniq nomi ma’lum emas. U ilmiy jamoatchilik orasida “Anonim Iskandera” nomi bilan mashhur. Asar 1413-yili yozib tamomlangan. Uning ikkinchi tahriri ham bo’lib, “Muntaxab ut-tavorixi Mu’iniy” (“Mu’iniyning saylangan tarixi”) deb ataladi va Temurning o’g’li Shoxruh Mirzoga bag’ishlanadi.

“Muntaxab ut-tavorix” umumiy tarix tipida yozilgan asar bo’lib, olamning yaratilishidan to Amir Temur vafotigacha, 1405-yil 18-fevralgacha musulmon mamlakatlarida yuz bergan voqealar haqida bahs yuritadi. Asar muqaddima va uch bobdan iborat.

Muqaddima diniy mazmunda bo’lib, unda olamning yaratilishi, Odam Ato va uning farzandlari, Nuh payg’ambar va uning avlodi haqida umumiy gap boradi.

Birinchi bobda qadimiy Eron va Yunoniston podshohlari, Rim va Vizantiya imperatorlari, Rim papalari, qadimiy arab hamda Efiopiya podshohlarining qisqacha tarixi bayon etilgan.

Ikkinchi bobda Muhammad payg’ambar (s.a.v.) va uning avlodi, xalifayi roshidin, Umaviya va Abbosiya xalifalari, Arabiston hamda Misrda podshohlik qilgan Ali va Fotima avlodi, shuningdek, Abbosiylar bilan zamondosh bo’lgan Eron

va Movarounnahr hukmdorlari tarixi talqin etilgan.

Asarning noyob va qimmatli qismi uning uchinchi bobi hisoblanadi. U turk-mo'g'ul qabilalari va ularning kelib chiqishi, Chingizxon va uning avlodi, Shimoliy Xitoyda hukmronlik qilgan mo'g'ul xonlari, Chig'atoy ulusi hukmdorlari, Elxoniylar, Jaloiriylar, Cho'poniylar, Muzaffariylar, Oq O'rda xonlari, 1346-1370-yillar orasida Movarounnahrda hukmronlik qilgan amirlar tarixini o'z ichiga oladi.

Asarning uchinchi qismini yozishda muallif Tabariy, Juvayniy, Rashiduddin xamda o'zbek tilda yozilgan "Tarixi xoniy" kabi asarlardan keng foydalangan.

"Majmu at-tavorix" yoki "Zubdat ut-tavorix" nomli asar muallifi Xofizi Abru nomi bilan mashhur bo'lgan yirik geograf va tarixchi olimdir. Uning haqiqiy ismi Shahobuddin Abdullox, ibn Lutfulloh ibn Abdurashid al-Xavofiydir. Abdurazzoq Samarqandiyning so'zlariga qaraganda Xofizi Abru Xirot hududidagi Xavofda tug'ilgan, Xamadonda tahsil ko'rgan va 1430-yilda Zanjonda vafot etgan. Boshqa tarixiy manbalarning ma'lumotlari va uning so'zlariga qaraganda Xofizi Abru Amir Temur va Shohrux saroyida istiqomat qilgan va har ikkala hukmdor bilan yaqindan munosabatda bo'lgan. Agar u Amir Temur bilan faqat saroydagina yaqin suhbatdosh bo'lgan bo'lsa, Shohrux bilan uning yurishlarida birga bo'lgan.

Xofizi Abru Shohruxning topshirig'i bilan ikkita yirik asar yozgan. Bulardan biri tarixiy-geografik mazmunda bo'lib, 1414-1420-yillar orasida yozilgan. U X asrda arab tilida bitilgan noma'lum bir kitob asosida yozilgan. Yu.Ye.Boruyevskiyning so'zlariga qaraganda, bu "Kitob al-masolik va-l-mamolik" deb atalib, Hasan ibn Ahmad Muxallabiyning qalamiga mansub bo'lgan. Shohrux Mirzo 1414-yili Hofizi Abruga mazkur asarni fors tiliga tarjima qilish va boshqa manbalar asosida qayta ishlashni topshirgan. Demak, bu asar shunchaki kompilyatsiya va tarjima bo'lib qolmay, balki yangi dalillar bilan boyitilgan, diqqatga sazovor asardir. Shuni aytish kifoyaki, unda xar bir viloyatning geografik holatini tavsiflashdan tashqari, uning

qisqacha siyosiy tarixi xam bayon qilingan.

Xofizi Abru Shoxruxning ko'rsatmasi bilan o'zidan avval o'tgan mazkur tarixchilar Tabariy, Rashiduddin hamda Nizomuddin Shomiy asarlariga qo'shimchalar (zayl) xam yozgan. 1412-1418-yillar orasida yozilgan bu qo'shimchalar "Majmua-yi Xofizi Abru" deb ataladi.

Tabariy asarining Bal'amiy tahririga qilingan qo'shimcha xalifa Muqtadir (908-932) zamonidan to Mu'tasim (1242-1258) davrigacha xalifalikka kirgan mamlakatlarda bo'lib o'tgan voqealarni o'z ichiga oladi.

Rashiduddinning "Jome ut-tavorix"iga qilingan qo'shimchaga Kurtlar (Kartlar) sulolasidan chiqqan podshohlar, Tyg'a Temur, Amir Vali ibn Shayx Ali Xindu, sarbadorlar hamda Amir Arg'unshox tarixi, ya'ni Eronda 1306-1393-yillar orasida bo'lib o'tgan voqealar kiritilgan.

Nizomuddin Shomiyning "Zafarnoma" siga qilingan ilovada esa Amir Temur hukmronligining so'ngi davri va Shoxrux tarixi 1416-yilga qadar bayon etiladi.

"Majmua"ning ayrim qismlari matni va tarjimasini Xonbobo Bayoniy 1938-yilda, F.Tauer 1959-yili va K.M.Maitra 1934-yili nashr ettirganlar.

Xofizi Abruning asosiy katta tarixiy asari "Majmu at-tavorix" bo'lib, uni muarrix Shoxruxning o'g'li Boysung'ur Mirzo (1433-yili vafot etgan)ning topshirig'i bilan 1423-1425-yillari yozgan. Mazkur asar to'rt qismga bo'lingan: 1) islomiyatdan avval o'tgan payg'ambarlar va Eron podshohlari; 2) Muhammad payg'ambar (s.a.v.) va arab xalifalari (al-Muxtasimgacha), 3) Eronning Saljuqiylar hamda mo'g'ullar davridagi (Elxon Abu Said davrigacha) tarixi; 4) "Zubdat ut-tavorixi Boysung'uriy".

Asarning so'nggi, to'rtinchi qismi yangi va mustaqil ahamiyatga ega bo'lib, unda Amir Temur tarixi qayta ishlangan va birmuncha to'ldirilgan hamda Xuroson, qisman Movarounnahrning 1427-yilgacha bo'lgan ijtimoiy-siyosiy ahvoli bayon etilgan.

"Tarixnoma" yoki "Zayli Zafarnoma" ("Zafarnoma"ga qo'-

shimcha”) deb ataladigan muhim tarixiy asar muallifi Xoja Tojuddin as-Salmoniydir. U yetuk xattot bo’lib Muzaffariylar” saroyida, devoni inshoda xizmat qilgan. Amir Temur Sherozni egallab, Muzaffariylar sulolasi barham topgandan keyin 1393 yili boshqa ilm ahli bilan Samarkandga olib kelingan va saroy xizmatiga tayinlangan. 1409-yili mart oyida amirlar isyoni bartaraf etilgach, oliy hokimiyat Shohrux Mirzo Xoja Tojuddin as-Salmoniy uning amri bilan Xirotda olib ketiladi va oliy hukmdorning topshirig’i bilan o’zining mazkur asarini yozishga kirishadi. Lekin, uni tamomlay olmaydi. Oradan ko’p vaqt o’tmay, saroyda vazir Faxruddinga qarshi uyushtirilgan fitnada qatnashganlikda ayblanib, qamalib qoladi va jazoga tortiladi.

Xoja Tojuddin as-Salmoniy mazkur asarida Amir Temurning so’nggi yillari va Shohrux Mirzoning tarixini yozishni niyat qilgan edi. Lekin, taqdir taqozosi bilan maqsadiga erisha olmaydi. Faqat 1404-1409-yillar tarixini yozib bitirishga ulguradi, xolos.

Asarda 1404 yilda Xitoyga yurish oldidan Konigilda o’tgan katta tantanalar, shaxzodalar Ulugg’bek, Ibrohim Sulton, Ijl Mirzo, Sidi Ahmad, Pirmuhammad va Mirzo Boyqarolarning nikoh to’ylari, Xitoyga yurishning boshlanishi, hazrat sohibqironning 18-fevral 1405-yilgi vafotidan keyingi og’ir ahvol, Xalil Sultonning noqonuniy yul bilan oliy hokimiyatni egallab olish voqealari batafsil bayon etiladi. Voqealar tafsiloti 1408 yil mart oyida Xalil Sultonning amir Xudoydod boshliq bir guruh fitnachi amirlar tarafidan asir olinishi haqidagi hikoya bilan tugaydi.

“Zafarnomayi Temuriy”, “Fathnomayi sohibqironiy”, “Tarixi jahonkushoyi Temuriy” yoki “Zafarnoma” nomi bilan mashhur bo’lgan asarning muallifi o’z davrining yirik tarixchisi Sharafuddin Ali Yazdiydir. U asli Eronning Yazd viloyatidagi Taft qishlog’idan bo’lib, turli fan sohalarini egallagan edi. Shuning uchun xam Alisher Navoiy uni “Shara fudin davlat va din”, ya’ni din va davlat shara fi deb ta’riflagan.

Sharafuddin Ali Yazdiy Fors viloyatining hokimi Temuriy

Ibrohim Sulton (1415-1435) saroyida xizmat qilgan. U ilm-fan homiysi bo'lmish mazkur shahzodanigina emas, balki Shohruxning ham zo'r xurmat-e'tiborini qozongan edi.

Sharafuddin Ali Yazdiy 1442-yili Shohruxning nabirasi va Sultoniya, Qazvin, Ray hamda Qum hokimi Sulton Muhammad (1442-1446)ning taklifi bilan Qumga keldi va shahzodaning xizmatiga kirdi. Sulton Muhammad 1446-yili Shohruxning og'ir kasalligidan foydalanib, isyon ko'tardi, Hamadon hamda Isfahonni bosib oldi, Sherozni qamal qildi. Shohrux unga qarshi qo'shin tortdi. Sulton Muhammad Shohrux bilan ochiq jang qilishdan qo'rqib toqqa qochdi. Shohruh Sulton Muhammad bilan yaqin bo'lgan kishilarni, shuningdek, mahalliy sayyidlardan birmunchasini isyonda ishtirok etishda ayblab hibsga oldi va ko'plarini o'limga mahkum qildi. O'shanda hibsga olinganlar orasida Sharafuddin Ali Yazdiy xam bor edi. Faqat Mirzo Abdullatifning (Ulug'bekning to'ng'ich o'g'li) aralashuvi bilan Sharafuddin Ali Yazdiy jazodan qutulib qoldi. Shaxzoda uni Samarqandga, otasi huzuriga jo'natib yubordi. Sharafuddin Ali Yazdiy Samarkandda bir yil chamasi istiqomat qildi va fikrimizcha, Ulug'bekning ilmiy izlanishlarida ishtirok etgan bo'lishi kerak. Shohrux vafotidan (1447) keyin 1449-yilda Sharafuddin Ali Yazdiy Xurosonga qaytdi va Sulton Muhammadning ruxsati bilan yana o'z vatani Taftga qaytib bordi va umrining oxirgi qismini uzlatda kechirdi. Sharafuddin Ali Yazdiy 1454-yili vafot etdi.

“Zafarnoma” asosan Nizomuddin Shomiyning shunday nomli asari asosida zo'r badiiy mahorat bilan yozilgan. Lekin, Sharafuddin Ali Yazdiy Nizomuddin Shomiy asarida bayon etilgan voqealarning ba'zilariga yangi tarixiy manbalar asosida aniqliklar kiritdi, uni yangi isbot va dalillar bilan boyitdi. Amir Temurning shaxsiyati va uning faoliyatidagi qarama-qarshiliklar, ya'ni bir tomondan qattiqqo'l ekanligi, ikkinchi tomondan esa Movarounnahrda tarqoqlikka barham berib, markazlashgan davlatga asos solganligi birmuncha to'g'ri va haqqoniy yoritilgan.

Sharafuddin Ali Yazdiy asarining zo'r qimmatini shundaki, unda Mo'g'ul imperiyasining tarkibida tashkil toptan Oltin O'rla, Elxoniylar davlati, Chig'atoy ulusi, shuningdek Movarounnahrning Chingizxon zamonidan to Temur davlatining paydo bo'lishigacha bo'lgan ijtimoiy-siyosiy tarixi qisqa tarzda yoritib berilgan. Asarning bu qismi "Tarixi jahongir", yoki "Muqaddimayi Zafarnoma" nomi bilan ataladi va 1419-yili yozib tamomlangan.

"Zafarnoma" asarining asosiy qismi, muallifning dastlabki rejasiga ko'ra, uch qism – maqoladan iborat bo'lmog'i, birinchi qismda Amir Temur tarixi, ikkinchi qismda Shohruh Mirzo va nihoyat, uchinchi qismda ushbu asar yozishning tashabbuskori Ibrohim Sultonning davrida o'tgan voqealar bayon etilishi mo'ljallangan edi. Lekin, biz hozir asarning birinchi qismigagina egamiz, xolos. Uning ikkinchi va uchinchi qismlari saqlanmagan. "Zafarnoma" asarining asosiy qismi 1425-yilda yozib tamomlangan.

"Matla' us-sa'dayn va majma' ul-baxrayn" ("Ikki saodatli yulduzning chiqish joyi va ikki azim daryoning qo'shilish yeri") nomli yirik tarixiy asar muallifi o'z davrining yirik diplomati va tarixchi olimi Abdurazzoq Samarqandiydir. Uning to'liq ismi Kamoluddin Abdurazzoq ibn Jaloluddin Isxoq Samarqandiy (1413-1482) bo'lib, Hirotidagi badavlat va nufuzli xonadonlarning biriga mansubdir. Tarixchining otasi Shohruh huzurida qozi askar va imomlik lavozimida turgan. Abdurazzoq yaxshi o'qib, fiqh, tafsir, hadis, arab tili, va tarix ilmlarini puxta egallagan o'z zamonasining yetuk olimlaridan biri bo'lib yetishdi.

Abdurazzoq Samarqandiy 1438-yili o'zining qozi Azizuddinning arab tili grammatikasining ba'zi masalalari, yuklama va olmoshni tadqiq etuvchi "Risolayi Azudiya" kitobiga bag'ishlangan sharhini yozib tamomladi va uni Shohruxga taqdim qildi. Hukmdor asar bilan tanishib va yosh olimdagi ulkan salohiyatni ko'rib, uni saroy xizmatiga, devoni inshoga tayin qildi. Shu vaqtdan boshlab to 1463 yilga qadar

Abdurazzoq Samarqandiy dastlab Shohrux, so'ngra Abulqosim Bobur (1451-1457) va boshqa Temuriy shahzodalarning saroyida xizmat qildi.

Abdurazzoq Samarqandiy ko'proq xorijiy davlatlar bilan olib boriladigan diplomatik yozishmalarni hozirlash, shuningdek elchilik ishlari bilan mashg'ul bo'lgan. Masalan, u Shohrux davrida 1441 yili Janubiy Hindistonga elchi qilib yuboriladi. Kalikut shaxrida xamda Vijashnagar rojaligida bo'lib oradan ikki yil o'tgach, 1444 yilning 27 dekabrda Xirotda qaytib keladi. Mazkur elchilik Temuriylar davlatining Hindiston bilan bo'lgan munosabatlarini mustahkamlash va rivojlantirishda katta rol o'ynaydi. Abdurazzoq Samarqandiy Hindiston safari vaqtida ko'rgan-bilganlarini to'plab, bir xotira sifatida yozib qoldirgan va bu ma'lumot Temuriylar davlati bilan Hindistonning o'sha vaqtlardagi ijtimoiy-siyosiy ahvoli, ayniqsa Hindistonning ijtimoiy va madaniy hayotini o'rganishda katta o'rin tutadi.

Abdurazzoq Samarqandiy 1447 yili Shohruxning topshirig'i bilan Gilonga bordi va uning hokimi amir Muhammad bilan muzokaralar olib bordi. O'sha yili u Misrga elchi qilib tayinlandi, lekin Shohruxning (1447 yil 12 mart) vafoti tufayli bu tashrif amalga oshmay qoldi.

Abdurazzoq Samarqandiy Abulqosim Bobur xizmatida bo'lgan kezlarda uning g'arbiy yurishlarida, masalan, 1458 yili Mozandaron va 1454 yili Samarqand ustiga qilgan yurishlarida qatnashdi. 1458 yili Xirotni egallagan Sulton Abu Sa'id Mirzo uni 1463 yili Shohruh xonaqosiga shayx qilib tayinladi va Abdurazzoq umrining oxirigacha o'sha manzilda istiqomat qilib, asosan ilmiy ish bilan mashg'ul bo'ldi.

Abdurazzoq Samarqandiy yirik tarixnavis olim sifatida xam nom qoldirdi. U Eron, O'rta Osiyo va O'zbekistonning XIV-XV asrlardagi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotidan, shuningdek, Temuriylar davlatining qo'shni mamlakatlar Xindiston, Xitoy va boshqalar bilan iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalari tarixidan bahs yurituvchi "Matla' us- sa'dayn va

majma' ul-bahrayn" deb ataluvchi asari bilan mashhur bo'ldi. Kitob 1467-1470 yillar orasida yakunlangan.

"Matla' us-sa'dayn" ikki qism – daftardan iborat: 1) Elxon Abu Sa'id (1316-1335) davridan to Amir Temurning vafoti va Xalil Sultonning Samarqand taxtiga o'tirishigacha, ya'ni 1405 yilgacha bo'lgan davr tarixi va 2) Shohruxning 1405 yili Xirotda Temuriylar imperiyasining oliy hukmdori deb e'lon qilinishidan to Temuriy Abu Sa'idning 1469 yili o'ldirilishigacha bo'lgan tarixi. Asarning 1427 yilgacha bo'lgan davrni o'z ichiga olgan qismi kompilyatsiya bo'lib, Xofizi Abruning "Majmu' at-tavorix" kitobi asosida yozilgan.

Asarda voqealar xronologik tartibda, yilma-yil bayon qilingan. Bu hol kitobdan foydalanishda katta qulayliklar tug'diradi, albatta.

"Ravzat us-safo" asarining muallifi Mir Muhammad ibn Sayyid Burxoniddin Xovandshoh ibn Kamoluddin Mahmud al-Balxiy bo'lib, asosan Mirxond (1433-11497) nomi bilan mashhur. Uning ota-bobolari asli Buxorolikdur. Mirxondning otasi sayyid Burxoniddin Xovandshoh ham o'qimishli va keng ma'lumotli kishi bo'lib, Temuriylar hukmronligi davrida Balxga ketib qolgan va o'sha yerda vafot etgan. Mirxond Balxda tug'ilgan, lekin umrining ko'p qismini Hirotda o'tkazgan. Nabirasi Xondamirning guvohlik berishicha, Mirxond Alisher Navoiy bilan uchrashguncha turli ilmlar bilan shug'ullandi, ammo birontasida mutayin emas edi. U Navoiy bilan uchrashgach, shoir o'zining "Ixlosiya" xonaqohidan tarixchiga alohida xona ajratib, shaxsiy kutubxonasidagi kitoblarni uni havolasiga berib, yuqorida nomi zikr etilgan katta ishga jalb qilib, doim moddiy qo'llab turgan. Ammo tarixchi bu asarni tutata olmaydi, uni ishini nabirasi Xondamir yakuniga yetkazadi. Kitob yaratilishida ko'plab qimmatli manbalar, jumladan, forsiy va arab tilidagi asarlardan foydalanilgani, uni zamonaviy tadqiqot darajasida yozilganidan dalolat beradi.

"Ravzat us-safo fi siyrat al-anbiyo va-l-muluk va-l-xulafo". Asar to'la nomi yuqoridagicha bo'lib, "Payg'ambarlar, podshoh-

lar va xalifalarning tarjimai holi haqidagi jannat bog'i" mazmunini bildiradigan va qisqacha qilib "Ravzat us-safo" ("Jannat bog'i") nomi bilan mashhur umumiy tarixga oiddir. "Ravzat us-safo" muqaddima, xotima va 7 jilddan iborat: 1) Dunyoning yaratilishidan to Sosoniy Yazdigard III (632-651) davrigacha 2) Muhammad payg'ambar (s.a.v.) va halifai roshidin davri 3) 12 imom tarixi; Umaviy va Abbosiy xalifalari; 4) Abbosiylar bilan zamondosh sulolalar; 5) Chingizxon va uning avlodi; 6) Amir Temur va uning zamonida to Sulton Abusaid o'limigacha (1469) bo'lib o'tgan voqealar; 7) Sulton Husayn va uning avlodi tarixi (1523 yilgacha) bayon etilgan. So'nggi 7-jildi musavaddaligicha qolib ketib, uni Xondamir to'ldirib oqqa ko'chirgan. Asarning 1-6-jildlari kompilyatsiya bo'lsa-da, ko'plab manba asosida yaratilgani uchun katta qiymatga ega. 6-jildning bir qismi va 7-jild yangi ma'lumotlar va mualliflar o'zi ko'rgan, bilgan va shohidi bo'lgan voqealar bayoni bo'lganligi sababli juda katta ahamiyatga ega.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. O'rta Osiyoda xattotlik san'ati.
2. O'rta Osiyoda qo'llanilgan taqvimlar.
3. O'rta Osiyoda rasm va miniatyura san'ati.
4. Amir Temur va Temuriylar davriga oid manbalar tahlili.

SHAYBONIYLAR DAVRI MANBALARINI O'RGANISHDA QIYOSIY GERMENEVTIKANING O'RNI

XVI-XVII asrlar Markaziy Osiyo tarixida Shayboniylar va Ashtarxoniylar hukmronlik qilgan davr sifatida alohida xarakterlanadi. Bu davrga doir anchagina asarlar yaratilgan va ko'pchiligi bizning davrimizgacha yetib kelgan. E'tiborlisi, bu asarlarni chuqurroq tahlil qilish, bunda, ularni qiyosiy germenevtik jihatdan ko'rib chiqish joizdir. Chunonchi, shunday Markaziy Osiyo tarixiga oid manbalardan biri "Tavorixi guzida, Nusratnoma" asaridir.

"Tavorixi guzida, Nusratnoma" Ushbu asar muallifining nomi ishonarli va qat'iy aniqlanmagan. Tadqiqotchilar orasida bu xususda turlicha fikrlar mavjud. Sharqshunoslardan A.A.Semyonov, R.G.Mukminova va V.P.Yudin ushbu kitobni Shayboniynon tomonidan yoki uning faol ishtirokida yozilgan deb hisoblaydilar. Ushbu asarni chuqur va atroflicha o'rgangan A.M.Ikromovning fikricha, "Tavorixi guzida, Nusratnoma" ijodkori mashhur "Shayboniynoma" dostonining muallifi Muhammad Solihdir.

"Tavorixi guzida, Nusratnoma" ("Saylanma solnomalar, G'alabalar kitobi") nomli tarixiy asar XVI asrda yaratilgan yozma obidadir. Ushbu asar 1502-1505 yillar orasida yozilgan

Ikki mustaqil qismdan – "Tavorixi guzida" va "Nusratnoma"dan iborat. Birinchi qismda O'g'izxon va qadimgi turklar, Chingizxon hamda uning Mo'g'uliston, Dashti Qipchoq, Movarounnahr va Eronda hukmronlik qilgan avlodi tarixi, ikkinchi qismda esa Shayboniynon tavalludidan (1451 y.) to uning Movarounnahrni istilo qilishigacha (1500-1505 yy.) Dashti Qipchoq hamda Movarounnahrning ijtimoiy-siyosiy ahvoli bayon qilingan. "Tavorixi guzida, Nusratnoma"ning ikkinchi qismi zo'r ilmiy ahamiyatga ega. Unda Shayboniylar qo'shinining tuzilishi, uning etnik tarkibi, shuningdek, ko'chmanchilarning Qorako'l, Xisor, Chag'oniyon, O'ratepa hamda Xo'jand viloyatlarida qilgan talon-tarojlari haqida muhim va qimmatli ma'lumotlar bor. Asarning yana bir

qimmatli tomoni shundaki, unda sodir bo'lgan voqealarning vaqti aniq ko'rsatilgan. Bundan tashqari, Shayboniyxon qo'shinlari tarafidan Farg'ona viloyatining bosib olinishi faqat "Tavorixi guzida, Nusratnoma" asarida to'g'ri va to'liq yoritilgan.

"Habib us-siyar fi axbor afrod ul-bashar" ("Inson xabarlari va fardlarida do'stning tarjimai holi") nomli mashhur tarixiy asar muallifi G'iyosiddin Xondamirdir (1475-1535). Uning to'liq ismi G'iyosidsin Muhammad ibn xoja Burxoniddindir. Otasi xoja Humomiddin Muhammad Temuriylardan Sulton Mahmud Mirzo (1459-1494 yillari Chag'oniyon, Xuttalon, Qunduz, Bag'lon va Badaxshon hokimi)ning vaziri bo'lgan. Ona tarafidan tarixchi Muhammad Mirxond nabirasidir. Xondamir 15-16 yoshdaligi chog'ida Alisher Navoiyning e'tiborini qozonadi va uning kutubxonasiga xizmatga qabul qilinadi. U to Navoiy vafotiga qadar, ya'ni 1501 yil 3 yanvarigacha xizmatda bo'ldi va boy kutubxonasiga mutasaddilik qildi. Xondamir o'zining keng va chuqur ma'lumotlilik, ilm-fanga chanqoqligi va salohiyati bilan ko'plarning tahsiniga sazovor bo'ldi. U haqida Alisher Navoiyning "Majolis un-nafois" tazkirasida mana bularni o'qiymiz: "Mavlono Xondamir Mirxondning farzandidir va salohiyatli yigitdir. Tarix ilmida mahorati bor-dir... Alisher Navoiy vafot etgandan keyin Xondamir mamla-katda kuchayib ketgan o'zaro kurash, ayniqsa saroyda avjiga mingan fisq-u fujurlar oqibatida Balxga ketib qoldi va Badi'uzzamon mirzo (1496-1506 yillari Balx hokimi, 1517 yilda vafot etgan)ning shaxsiy kotibi sifatida xizmatiga kirdi. 1507 yili Hirot Shayboniyxon tomonidan ishg'ol etilgandan keyin, u Zahiriddin Muhammad Bobur huzuriga ketib qoldi. 1512 yili Bobur Movarounnahrda siqib chiqarilgach, Xonda-mir Garjistonga bordi va to 1514 yilgacha Pasht qishlog'ida istiqomat qildi. U asosan ilmiy faoliyat bilan mashg'ul bo'ldi. 1514-1517 yillari Xondamir Balx uchun kurash olib borgan Badiuzzamon mirzoning o'g'li Muhammad Zamon bilan birga bo'lib, uning kotibi sifatida xizmat qildi. Muhammad Zamon Safaviylardan yengilgach, Xondamir yana Garjistonga qaytib

bordi va ilmiy faoliyatini davom ettirdi. 1521 yili Xondamir vazir Habibullo Sovajiyning taklifi bilan Hirotga qaytib bordi va uning topshirig'i bilan o'zining yirik tarixiy asari "Habib us-siyar"ni yozishga kirishdi. Oradan olti yil o'tgach, 1527 yilning iyul oyida Xondamir Hirotni tark etdi va bu safar Hindistonga ketib qoldi. Qishni u Qandahorda kechirdi va 1528 yilning 17 sentyabrida Agraga kelib tushdi va Bobur xizmatiga qabul qilindi. Bobur vafotidan so'ng uning to'ng'ich o'g'li va taxt vorisi Humoyun (1530-1542, Pmarta 1555-1556) bilan birga bo'ldi. Tarixchi Dehlida vafot etdi va vasiyatiga ko'ra mashhur Nizomuddin Avliyo mozorida Amir Xusrav yoniga dafn etildi. Xondamir sermahsul olim edi. Movarounnahr, Turkiston, Yaqin va O'rta Sharq xalqlari tarixi va madaniyatiga oid o'nga yaqin asar yozib qoldirgan. "Xulosat ul-axbor" ("Xabarlar xulosasi"), "Maosir ul-muluk" ("Podshohlar asrdoshlari"), "Nomayi nomiy" ("Atoqli maktublar"), "Makorim ul-axloq" ("Olijanob xulqlar"), "Dastur ul-vuzaro" ("Vazirlarga qo'llanma"), "Qonuni Humoyuni" ("Humoyun qonunlari") va "Habib us-siyar" shular jumlasidandir.

1521 yili Xondamir vazir Habibullo Sovajiyning taklifi bilan Hirotga qaytib bordi va uning topshirig'i bilan o'zining yirik tarixiy asari "Habib us-siyar"ni yozishga kirishdi.

Xondamirning ilmiy merosida "Habib us-siyar" nomli yirik tarixiy asari alohida o'rin tutadi va Movarounnahr hamda Xurosonning XV asr oxiri va XVI asrning II choragidagi ijtimoiy-siyosiy tarixini o'rganishda muhim va qimmatli manbalardan biri bo'lib xizmat qiladi. Asar 1521-1524 yillar orasida yozilgan. Lekin olim Hindistonda turgan yillari ham asari ustida muntazam ish olib bordi, uni yangi dalillar bilan boyitdi, tahrir qildi. Kitob to'la ravishda 1529 yili yozib tamomlandi. "Habib us-siyar" umumiy tarix yo'nalishidagi asar bo'lib, muqaddima (iftitoh), xotima (ixtitom) va uch jild (mujallad)dan iborat. O'z navbatida har bir jild to'rt qism juzga bo'linadi. Asarning 1-chi jildlari hamda III jildning 1-2- qismi, juzlari Turkiston xonlari, Chingizxon va uning Mo'g'uliston,

Dashti qipchoq, Movarounnahr va Eronda hukmronlik qilgan avlodi, Mamlyuklar, Kirmon Qoraxitoylari, Kartlar va Xuroson sarbadorlari tarixini o'z ichiga oladi. III jildning 3- va 4-qismlari, juzlari esa yangi bo'lib, Xuroson va Movarounnahrning XV asrning 90-yillaridan to 1524 yilgacha bo'lgan ijtimoiy-siyosiy ahvolini chuqur va atroflicha bayon etadi. "Habib us-siyar" asarida katta yer egaligi, iqtisodiy ahvol, tinimsiz urushlar tufayli vujudga kelgan sharoit to'g'risida ayrim, diqqatga sazovor dalillar va ma'lumotlarni uchratamiz. Masalan, asarda o'z aksini topgan 1498 yilgi Samarqand qamali paytidagi shahar xalqining ayanchli ahvoli, 1512 yilgi Safaviylar tomonidan Qarshi shahrida uyushtirilgan qirg'in-qatli om, 1514, 1515 yillari Xurosonda yuz bergan qahatchilik va ochlik haqidagi ma'lumotlar ana shular jumlasidandir. Xondamirning ushbu asarida muhim ijtimoiy-iktisodiy masalalarga oid, yer egaligi, tarxonlar, suyurg'ol egalari va ularning jamiyatda tutgan mavqeyi, Temuriylar davlatining ma'muriy tuzilishi haqida qimmatli ma'lumotlar bor. Shuningdek, asar etnografik va geografik ma'lumotlarga ham boydir.

"Tarixi Rashidiy" asarining muallifi Mirzo Muhammad Haydar 1499 yili Toshkent shahrida tug'ilgan. Uning otasi Muhammad Husayn Ko'ragon Sharqiy Turkistonning Manglay sub'i, ya'ni oftobruy deb atalgan kun chiqish qismini Chingizxon davridanoq boshqarib kelgan turkiylashgan mug'ul-turk dug'lot qabilasidan chiqqan ulusbegi Amir Bobdog'on va Buloji (Po'lod chi) avlodlaridan yedi. Mirzo Muhammad Husayn 1493-1494 yillarda Mo'g'uliston xoni Sulton Mahmudxonning (1487-1503) singlisiga o'ylangandan so'ng «Ko'ra gon» nisbasiga yetishgan. Xon uni 1494 yil O'ratepaning hokimi yetib tayinladi, 1502 yilgacha hokimlik qildi. Muhammad Husayn ko'ragonning ota-bobolari O'rtubu, Po'lodchi, Xudoydod, Said Ahmad, Sonsiz Mirzo, Muhammad Haydar, Muhammad Husayn turklashgan mo'g'ul urug'laridan dug'lot (mo'g'ulcha «dog'olot» – cho'loq) qabilasiga mansubdir. Ular Mo'g'uliston xonlari, Chig'atoylar davrida ulusbegi, Qoshg'ar

hokimi lavozimida turganlar Mirzo Muhammad Haydarning onasi Xub Nigorxonim yesa Chig'atoy xonligi yemirilgandan so'ng tashkil topgan Mo'g'ulistonda 1456-1487 yillarda hukmronlik qilgan Yunusxonning qizi yedi. Shuningdek, u Zahiriddin Muhammad Boburning onasi Qutlug' Nigorxonimning singlisi bo'lib, shu jihatdan Bobur va Mirzo Haydar qarindosh yedilar. Xo'b Nigor xonim vafot yetib, Haydar mirzo onadan juda yosh ayriladi: «Xo'b Nigor xonim, kaminaning onasi, tinchlik-omonlik kunlarida Toshkandda vafot yetgan yedi»,– deb yozadi bu haqda muallif. Bobur Shayboniixonidan yengilib tog'asi Sulton Mahmudxonidan O'ratepani so'raganida xon ko'nganu, Muhammad Husayn rozi bo'lmagan.

Bobur o'z yaqinlari bilan vatandan ko'ngil uzib Kobulga ketadi. Muhammad Husayn ham 1503 yili Sulton Mahmudxon va Sulton Ahmadxon Axi atrofida Shayboniixon qo'shinlari tomonidan tor-mor keltirilgani va asir olinganini eshitib, Qorateginga, undan Qunduz, so'ng Hirotga Sulton Husayn huzuriga qochib boradi va ko'p o'tmay Kobulga Bobur Mirzo huzuriga borgan yedi. 1506 yili Bobur Hirotga Sulton Husayn mirzo ta'ziasiga borganida, Kobulda Sulton Mahmud mirzoning o'g'li Mirzoxon Kobul saltanatini egallashga urinadi va Muhammad Husaynni ham bu isyonga jalb yetishadi. Bobur kelib taxtini qayta egallagach, Mirzoxon va Muhammad Husaynga istagan joyga ketishga «ruxsat» beradi. Muhammad Husayn ko'ragon o'g'li Haydar mirzoni Hirotga olib ketadi. Uning ilk savod chiqarishi davri, xat mashq qilishlari 1506-1509 yillarga to'g'ri keladi. Natijada u uch-to'rt yil Hirotida bo'ladi va adabiy-madaniy hayotdan yaxshi xabardor bo'ladi. Bu haqda o'zining asarida muhim ma'lumotlar yozib qoldirgan. Muhammad Haydar o'zining maktabga ilk qadami xususida yozadi: «Otam Xurosonga kelganidan keyin bir necha kun o'tgach, bola to'rt yoshu to'rt kunlik bo'lganda maktabga berish odatiga ko'ra, meni maktabga bermoqchi bo'ldi va oq fotiha olish uchun avval shayxulislom (Sayfuddin Ahmad) oldiga olib bordi va u kishidan menga saboq berishni so'radi.

Shayx: «Alloh yengillik beradi» deb yozdi va g'oyatda muloyimlik hamda mehribonchilik bilan meni tizzasiga o'tqazib, shirin so'zlar bilan menga saboq berdiki, o'sha paytdan beri o'ttiz sakkiz yil kechgan bo'lsa-da, Shayxning muborak yuzi, uning saboqlari va mehribonchiligi naqshi xuddi toshga o'yilgandek xotiramda qolgan. Ishonchim komilki, o'sha saboqlarning shu kunlargacha yetib kelgan sharofati bu dunyoda ham, oxiratda ham yetib turadi, inshoolloh». «Otam Hirotda birinchi marta kelganida men uchun ustoz-muallim topgan yedi. U hofiz Mirim ismli taqvodor, olim kishi yedi. Darhaqiqat, u mo'min, hofizi Qur'on, turli fazilatlarga ega bo'lgan kamsuqum inson yedi. Qur'onni yoqimli ovozda qiroat qilar, nasxta'liq xatida yaxshi yozar yedi. U meni Qur'onni qiroat qilishga va xattotlikka o'rgatar yedi». Muhammad Haydarning husnixatdagi ustози Mavlono Muhammad Abrishimiy bo'lganligi ham «Tarixi Rashidiy»da qayd yetilgan.

Muhammad Husayn 1509 yili Shayboniyxon (1450-1510) buyrug'i bilan Hirotda yashirincha qatl yetiladi. Uning qabri Hirotdagi amir Said Husayn Sodot mozorida. Shayboniyxonning tazyiqidan qo'rqgan Mirzo Haydar otasining do'stlari va o'z tarbiyachisi Muhammad Sadr bilan qochib, avval Buxoroga, keyin u yerdan Qorategin orqali Badaxshonga Qal'ayi Zafarga boradi. Mirzo xon ibn Sulton Mahmud Mirzo ibn Sulton Abu Sa'id Mirzo Haydarga ham ota, ham ona tomonidan qarindosh bo'lgani uchun u yerda bir yil yashaydi. Biroq Badaxshonga Shayboniylar xavf solayotgani uchun Mirzo Haydar xolasining o'g'li, ya'ni Yunusxon ning o'rtancha qizi Qutluq Nigor xonimning farzandi Zahiriddin Muhammad Bobur uni Kobulga chaqirtirib oladi va saroyidan uy- joy ajratib beradi. U yerda uch yil yashaydi. Mirzo Haydardan 17 yosh katta bo'lgan Bobur unga otalarcha g'amxo'rlik ko'rsatadi, tarbiyalaydi, ustozlar tayinlab bilim-hunar o'rgatadi. Bobur ko'rsatgan g'amxo'rlikni tarixchi o'z asarida chuqur minnatdorlik bilan bir necha bor eslab o'tadi.

Taxminan 1512 yilda Mirzo Haydarning tog'asi Sulton Ahmadxon (1484-1504)ning o'gli Sulton Saidxon (1514-1533)

Kobulga kelganida Boburdan ruxsat olib, Mirzo Haydarni Andijonga olib ketadi. 1512 -1513 yillarda u xonning hokimiyat uchun kurashlarida qatnashadi. Sulton Saidxon ko'p o'tmay bu yerda Abu bakr dug'lot ustidan g'alaba qozondi va Qoshg'ar hamda Yorkandni qo'lga kiritishga muvaffaq bo'ldi. Xon 1513 yili Mirzo Haydarga singlisini nikohlab, o'ziga kuyov qilib oladi, shu bilan Mirzo Haydar ham Ko'ragonlik unvoniga erishadi. 1514 yili Sharqiy Turkistonda 1465 yili tashkil topgan Yorkand xonligi taxti uchun Sulton Saidxon olib borgan janglarda ishtirok yetadi. Sulton Saidxon 1514 yilda Yorkand xonligi taxtiga chiqqanidan boshlab Mirzo Haydarning obruyi yana ham oshadi. Xon uni o'z farzandlaridan ham yaxshiroq tarbiyalab, ilm-hunar va harbiy san'atdan saboq berib, davlat arbobi darajasiga erishtiradi. Mirzo Haydar «Tarixi Rashidiy» asarida bu haqda to'xtalib, 13 yoshida Sulton Saidxonning xizmatiga kelgani, xon otalik shafqati bilan yetimlik mashaqqatidan ulug'lik masnadiga yetkazgani, 24 yil uning xizmatida bo'lib, xondagi barcha fazilatlarni o'zlashtirgani xususida yozadi. Mirzo Haydar Sulton Saidxon hukmronligi davrida (1514-1533) vazir va harbiy sarkardalik amallarida xizmat qiladi. Xon o'z farzandi Abdurashid Sultonni tarbiyalashni yeng ishonchli shogirdi Mirzo Haydarga topshiradi. Mirzo Haydar xonning deyarli barcha harbiy safarlarida, jumladan, Tibet, Balur, Kofiriston, Ladoq, Badaxshon va Kashmirga yurishlarida sarkardalik qildi.

Sulton Saidxon 1533 yil kishining 16 kuni bo'g'ma kasali oqibatida vafot yetdi. Muhammad Haydar to 1533 yilgacha, ya'ni Sulton Saidxon vafotiga qadar uning xizmatida bo'ldi. Dastlab xonzoda Abdurashidxonga tarbiyachilik, ya'ni otalik qildi, so'ng o'zining sarkardalik iste'dodini ham namoyon qildi. Xonbuyrug'iga ko'ra Badaxshon, Kofiriston, Tibet o'lkalariga qilingan harbiyyurishlarga boshchilik qiladi. Muhammad Haydar mirzo Sulton Saidxonning saltanatidagi yetakchi davlat arbobi sifatida xizmat qildi. Yeng muhim harbiy yurishlar bosh qo'mondoni ham Haydar mirzo yedi. Badaxshon, Kofiriston,

Tibat, Ladak, Kashmir yurishlari shular jumlasidandir 1533 yili Sulton Saidxon vafot yetgach, otasi o'rniga taxtga Abdurashidxon (1533-1570) o'tirgan. Bu paytda Mirzo Haydar va Iskandar Sulton Tibat yurishida yedi. Abdurashidxon otasining sodiq do'stlari dug'lot amirlarini taqib ostiga oldi, ularning ba'zilarini qatl yetdi. Bularning orasida o'zining amakisi Muhammad Haydarning yesa tog'asi tog'asi bo'lgan Sayyid Muhammad Mirzo va qarindoshlarining ko'pchiligi bor yedi. Tibetda bo'lgan Muhammad Haydar bundan xabar topib, Iskandar Sultonni Abdurrashid huzuriga qaytarib yuborib, o'zi Mo'g'ulistoniga Yorkent xonligiga qaytishga jur'at qilolmay, bir qancha vaqt Badaxshonda yurdi, so'ng u yerdan Lohurga, Boburning o'g'li Komron mirzo huzuriga, 946/1539-1540 yili yesa Agraga, Humoyun mirzo (1530-1550) xizmatiga bordi, uning Sherxon bilan harbiy to'qnashuvlarida qatnashdi. 1541 yil Humoyun nomidan Kashmirni qaytadan zabt yetib, 1551 yilgacha deyarli mustaqil hukmdor sifatida bu o'lkani idora qiladi.

Biroq 1551 yili Kashmirda ko'tarilgan mahalliy isyonlardan birini bostirish paytida yarador bo'lib, noma'lum kishilar tomonidan uyushtirilgan suiqaqd natijasida halok bo'ladi. Qabri Kashmirda, Srinagar shahrining podshoh Zaynulobiddin mozori yoki Mazori Salotin (Sultonlar mozori) qabristonidadir. Mirzo Muhammad Haydar haqida «Boburnoma»ning ikki o'rnida g'oyat muhim ma'lumot berilgan. Jumladan, « Haydar mirzo yedi. Otasini o'zbek o'lturgandin so'ng kelib, mening mulozamatimda uch-to'rt yil bo'ldi, so'ngra ijozat tilab, Koshg'arga xon qoshiga bordi. Bu tarixda deydurlarkim, toyib bo'lub, yaxshi tariqa paydo qilibtur. Xat va tasvir, o'q va paykon va zihgir har nimaga iligichaspondur. Ta'bi nazmi ham bordur. Manga arzadoshti kelib yedi, inshosi ham yomon yemas» Ushbu qisqa axborotlarda Bobur mirzo Muhammad Haydar haqida juda ko'p ma'lumotlarni bergan. Hatto uning Sulton Saidxon dargohida ichkilikka berilganiga tavba qilib ichmay qo'ygani qayd yetilib, maktubiga ko'ra uning bayoni iqtidoriga ham yaxshi baho berilgan. Muhammad Haydar zamonasining

o'qimishli va keng ma'lumotli kishilaridan yedi. Boburning guvohlik berishiga qaraganda, u durustgina shoir, xattot, rassom, shuningdek, nayza va kamon yasovchi usta bo'lgan. Mirzo Haydar yuksak bilimga, keng tafakkurga, katta hayotiy tajribaga ega, ko'zga ko'ringan, kuchli davlat arbobi, yetuk sarkarda bo'libgina qolmay, balki iste'dodli tarixchi va mohir shoir ham bo'lgan. Muhammad Haydarning bizning zamonimizgacha bir necha asari yetib kelgan. U shoir sifatida Ayoziy, ba'zan Ayoziy taxallusi bilan «Jahonnoma», «Mahmudnoma» dostonlari va qator g'azal, ruboiy, masnaviy, qit'a, fardlarni yaratdi. Ayoziyning she'rlar to'plami – devoni ham bo'lgani, u Sharqiy Turkistonda topilgani haqida ma'lumotlar mavjud. Ayoziy «Jahonnoma» dostonini mumtoz adabiyotimiz dostonchilik an'anasi bo'yicha, muqaddimasida Allohga, payg'ambar (s.a.v.) va chahoryorlarga madhiyadan tabiat va koinotni yaratgani, oxiri ularning zavolga yuz tutib tugashi haqida fikr yuritgan ekan, bu xususiyat insonga ham xos ekanligi to'g'risidagi falsafiy xulosalarni bayon yetadi.

«Jahonnoma» 2650 misradan tashkil topgan bo'lib, masnaviy janrida yozilgan. Dostonning Allohga, Payg'ambarimiz sallalohi alayhi vassalamga va chahoryorlarga bag'ishlangan hamdu sanoli qasida qismi 60 misra, dostonning yozilishi haqidagi muqaddimasi 160 misra, muallifning hissiyotlarga boy xotimasi 32 misra, dostonning asosiy mazmuni yesa 2396 misradan tashkil topgan. Uning yagona qo'lyozmasi Germaniyaning Berlin shahri kutubxonalaridan birida saqlanmoqda. Asar 1999 yilda o'zbek tiliga tarjima qilingan.

Muhammad Haydarning bizning zamonamizgacha ikki yirik asari yetib kelgan. Bulardan biri "Jahonnoma" deb atalib, ertak tarzda yozilgan. Uning yagona qo'lyozmasi Germaniyaning Berlin shahri kutubxonalaridan birida saqlanmoqda. Olimning ikkinchi yirik va mashhur asari "Tarixi Rashidiydir. Kitob ikki qism, daftardan iborat bo'lib, birinchi qismida Mo'g'uliston xalqlarining tarixi Tug'luq Temur (1348-1363) dan to Abdurashidxonning taxtga o'tirgani (1533 y.)gacha

bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Asarning birinchi daftari turli naql-rivoyatlar, shuningdek, Yoqut Hamaviyning "Mu'jam ul-buldon", Juvayniyning "Tarixi jahonkushoy", Rashiduddin "Jome ut-tavorix", Jamol Qarshiyning "Mulhaqot us-suroh", Sharafuddin Ali Yazdiyning "Zafamoma", Mirzo Ulug'bekning "Tarixi arba' ulus" va nihoyat, Abdurazzoq Samarqandiyning "Matla' us-sa'dayn" kitoblaridagi ma'lumotlar asosida yozilgan. Lekin, unda xam Markaziy Osiyoning XIV-XV asrlardagi ijtimoiy-siyosiy hayotiga oid yangi, asl nusxada bo'lmagan ma'lumotlar ko'p. Qolaversa, birinchi daftar Koshg'ar, Qozog'iston, shuningdek, Movarounnahr va Turkistonning XV-XVI asr boshlaridagi siyosiy tarixini mukammal qamrab olishi bilan qimmatlidir. Ikkinchi daftar birinchisidan keskin farqli o'laroq, esdalik, xotiralar tarzida yozilgan bo'lib, Koshg'ar, Movarounnahr, Afg'oniston hamda Shimoliy Hindistonning XVI asrning II yarmidagi tarixini o'rganishda asosiy va qimmatli manbalardan hisoblanadi.

"Bahr ul-asror fi manaqib ul-axyor" ("Olijanob kishilarning jasorati haqidagi sirlar dengizi") nomli asar muallifi XVII asrda o'tgan balxlik yirik qomusiy olim Mahmud ibn Validir. Uning otasi Mir Muhammad Vali asli farg'onalik, kosonlik bo'lib, Shayboniylardan Pirmuhammadxon avval (1546-1567 yy.) davrida Balxga borib qolgan. U o'qimishli va keng ma'lumotli kishi bo'lib, asosan fiqh ilmida zamonasining peshqadam kishilardan hisoblangan. U Mir Xislat taxallusi bilan she'rlar ham yozgan. Mahmud ibn Valining amakisi Muhammad Poyanda (1602 yili vafot etgan) Samarqand hokimi Boqi Muhammad (1603-1606 yillari Buxoro xoni) devonida xizmat qilgan. Akasi amir Abulboriy esa fiqh, tafsir xatib ilmini yaxshi egallagan olim kishi edi. Mahmud ibn Vali 1596 yili tug'ilgan. 19 yoshga borganda, ya'ni 1614 yili u yirik fiqh va hadis olimi Mirakshoh Husayniyning xizmatiga kiradi va qariyb o'n yil undan saboq oladi. Mirakshoh Husayniyning boy kutubxonasi bo'lib, unda, Mahmud ibn Valining so'zlariga qaraganda, tarix, geografiya, mumtoz adabiyot, fiqh, hadis va boshqa ilmlarga

doir juda ko'p kitoblar saqlanar edi. Bu ilmga chanqoq yosh olim uchun bebaho xazina bo'ldi, albatta. Keyinchalik Mahmud ibn Valining o'zi kutubxonadagi ko'p kitoblarni o'qib foyda topganini aytadi. Mirakshoh Husayniy vafot etgan 1624 yil 13 aprel kunidan keyin Mahmud ibn Vali kitobiy ilmini amaliy bilimlar bilan boyitish maqsadida boshqa mamlakatlarga sayohat qilishga qaror qildi va bir yillik tayyorgarlikdan keyin, 1625 yilning iyul oyida savdo karvoniga qo'shilib Hindiston tomon yo'l oldi. U Hindistonda qariyb yetti yil istiqomat qildi va uning Peshovar, Lohur, Dehli, Agra, Haydarobod, Vijayanagar, Kalkutta, Bihar kabi qator yirik shahar va o'lkalarni borib ko'rdi va ularning aholisi, xalqining urf-odati, tarixi, madaniyati, va nihoyat, osori atiqalari haqidagi qimmatli ma'lumotlar to'pladi. 1631 yil 20 avgustda Balxga qaytib kelgandan keyin Nadr Muhammadxon (1606-1642 yillari Balx, 1642-1645 yillari Buxoro xoni)ning xizmatiga kirdi va to umrining oxirigacha uning kutubxonasida kitobdor bo'lib xizmat qildi. Mahmud ibn Valining qachon vafot etganligi ma'lum emas. Mahmud ibn Vali fanning juda ko'p sohalarini, tarix, geografiya, ilmi nujum, ma'danshunoslik, botanika va boshqa sohalarini qamrab olgan "Bahr ul-asror fi manoqib ul-ahyor" yoki "Bahr ul-asror" nomli o'ta qimmatli qomusiy asarini yaratdi. Bundan tashqari u qator ilmiy va badiiy asarlar yaratgan bo'lib, ular bizgacha yetib kelmagan. "Bahr ul-asror" asari 1634-1640 yillar orasida yozilgan

"Bahr ul-asror" asari mundarijasida ko'rsatilishicha, yetti jildidan iborat bo'lgan. Uning II — VII jildlari jahon tarixiga bag'ishlangan bo'lib, O'zbekiston va u bilan qo'shni mamlakatlarning qadim zamonlardan to 1640 yilgacha kechgan tarixidan bahs yuritadi. Asarning II jildi ilmi nujum, geografiya, ma'danshunoslik va botanika fanlariga oid ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Afsuski, bu muhim va qimmatli asarning faqat II va VI jildlarigina topilgan, xolos. Asarning II jildida yetti iqlim mamlakatlarining, shuningdek, O'zbekistonning o'rta asrlardagi shahar va viloyatlarining geografik holati, xalqi va

uning turmush tarzi haqida qimmatli ma'lumotlar keltirilgan. "Bahr ul-asror"ning VI jildi alohida qimmatga ega. Unda XIII-XVII asrning II yarmida Chig'atoy ulusi, O'rta Osiyo, Mo'g'uliston va Shimoliy Afg'onistan tarixi keng va atroflicha yoritilgan.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Shayboniylar davriga oid manbalar mintaq tarixiga munosabat.
2. O'rta asrlarda tuzilgan bibliografik asarlar.
3. Ashtarxoniylar davriga oid manbalar mintaq tarixiga munosabat.

MANBALARNING GERMENEVTIK TAHLILI

Manbalarni turkumlash. Markaziy Osiyo tarixining yozma manbalari mil. avv. birinchi ming yillikning o'rtalaridan boshlab paydo bo'lgan. Bundan istisno sifatida shakllangani mil. avv. 7-asrga oid hisoblanmish Avesta kitobidir. Mazkur uzoq o'tmishda yozuv materiallari sifatida qog'oz bo'lmagani sababli yozma yodgorliklar goh epigrafik (qattiq materiallar yuzasida), goh yog'och, charm kabi yumshoq materiallarda yetib kelgan. Mazmun e'tibori bilan yozma yodgorliklar deklarativ, diniy, falsafiy-axloqiy, ma'muriy, voqeaviy-axboriy, hisobotlik xazina Xo'jalik qaydlari va b.ga bo'linadi. Bular asosida qadimiy (islomdan avvalgi) yozma yodgorliklar ma'lum turlar va guruhlarga ajratilishi mumkin. Ushbu tasnifiy yondashuv yodgorliklarning diniy va dunyoviy turlaridan darak beradi. Masalan, Avesta universal diniy-axloqiy, falsafiy, ma'naviy-ma'rifiy yodgorlik deb hisoblanishi mumkin. Shu kabi katta turkumni tashkil qiluvchi buddaviy turkiy va co'g'diy tilli diniy adabiyot, Moniy yaratgan din adabiyoti "Shopurakan", "Kefalaya", "Moniy injili", "Arjang" kabi asarlar ham madaniyat va ma'naviyat tarixi nuqtai nazaridan yuqoridagi turga mansubdir. Qadimgi Parfiya podsholigining poytaxti Mehrdatkirt (Eski Nissa) xarobalaridan topilgan ulkan Xo'jalik arxivi, qadimgi Xorazmning Tuproqqala yodgorligidan topilgan Horazm Afrg'iylar davri Xo'jalik ma'muriy hujjatlar arxivi Panch (Panjikent) yaqinidagi Mug' tog'i qasridan topilgan Sug'd hujjatlari arxivi, Afg'onistonning Ravatak qishlog'i yaqinidan topilgan bohtariy hujjatlari arxivi yozma yodgorliklari uchun qadimiy qatlami alohida turkum sifatida baholanadi.

Sharq yozma manbalarini yuqoridagi kabi mazmun va maqsad doirasiga ko'ra tasnifiy turkumlarga bo'lish mumkin. Biroq, bu masalada bizdan avvalgi mualliflar aytganidek, yozma yodgorliklarni turkumlashda haligacha yagona qoida yaratilgan emas. Bu masalada qulaylik va mantiqan to'g'ri yo'l tanlash nazariy jihatdan bir nuqtaga kelishi lozim. Bor

imkoniyat doirasida yozma yodgorliklarni turkumlash haqidagi fikrlarni keltirib o'tamiz: asarlarni tiliga ko'ra tasniflash-arabiy, turkiy, forsiy, yunoniy va b.; asarlar bag'ishlangan fan sohasiga ko'ra tasniflash-tarix, kimyo, tabobat, ilmi nujum, geografiya, falsafa, filologiya va b. Misol sifatida kuyidagilarni akademik B.Ahmedov, prof. A. Madraimovlar asosida keltirishimiz mumkin: Masalan, Angliyaning Britaniya muzeyida saqlanayotgan sharq qo'lyozmalari yirik sharqshunos Charlz Riyo tomonidan ularning qaysi tilda yozilganiga qarab, arab, fors va turkiy tildagi qo'lyozmalarni alohida, alohida tavsifga olib fihrist tuzgan. Fransiya poytaxti Parijdagi Milliy kutubxonadagi saqlanayotgan sharq qo'lyozmalari haqida Edgar Bloshe ham shu tartibda katalog tuzgan.

Toshkentdagi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti xazinasidagi qo'lyozmalar birinchi bor saqlanayotgan tashkilot "O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Sharq qo'lyozmalari majmuasi" nomi ostida turli tildagi va turli mavzudagi asarlar tavsifga olinib, ularning o'n bir jildda nashr etilgan. Hozir qo'lyozmalarni qaysi fan sohasiga oidligiga qarab tavsifga olish boshlab yuborilgan mana shunday kataloglar chop etilmoqda.

Ba'zi manbashunoslar qo'lyozmalarni mazmuniga qarab, asarda qaysi masala bayon etilganiga qarab, turkumlashni lozim topsalar, ularning boshqa bir guruhi asarning kelib chiqishiga, ya'ni qayerda va qachon yozilganligiga qarab turkumlashni ma'qul ko'radilar.

Yana bir guruh olimlar esa ularni rasmiy hujjatlar, tarixiy, geo-kosmografik va biografik asarlar kabi turlarga bo'lib o'rganishni tavsiya qiladilar. Manbalarni avtograf-ya'ni muallifning o'z qo'li bilan ekanligiga qarab yoki ko'chirilgan nusxa ekanligiga qarab turkumlash hollari ham uchraydi.

Hozirgi paytda tarixchi manbashunoslar manbalar ustida ishlashning faqat bittasiga, ya'ni ularning turlariga qarab tadqiq etishni maqsadga muvofiq deb hisoblaydilar. Chunki boshqa tadqiqot yo'llari yozma manbani chuqur va atroflicha

o'rganish hamda tahlil qilish vazifalariga to'la javob bera olmaydi.

Birinchidan, tarixiy manbalar ichida faqat bir masala – ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy va boshqaga butunlay bag'ishlangan asar deyarli yo'q yoki juda kam.

Til bo'yicha manbalarni o'rganish yomon emas, lekin biror mavzuga oid manbalarni o'rganganda, faqat bir yoki ikki tilda yaratilgan asarlar bilan chegaralanish tadqiqot ilmiy qiymatini pasaytiradi.

Mana shularni inobatga olganda, tarixiy manbalarni turlariga va qaysi davr voqealarini aks ettirganligiga qarab turkumlash maqsadga muvofiqdir. Avvalgi paytlarda talaygina markaziy oliy o'quv yurtlarida o'qitilgan "SSSR tarixi manbashunosligi" va "O'rta asrlar tarixi manbashunosligi" darsliklari mana shu qoidaga asoslangan.

B. A. Ahmedov "O'zbekiston tarixi (o'rta asrlar) manbalari"ni (yozma manbalarni) quyidagi uch turga bo'lib o'rganishni tavsiya qilgan: 1) Ashyoviy manbalar, ya'ni arxeologik qazishlar natijasida topilgan ashyolar; 2) rasmiy hujjatlar; 3) tarixiy, geo-kosmografik hamda biografik asarlar. Ushbu turkumda qayd etilgan arxeologik yoki ashyoviy manbalar, ya'ni qadimda ajdodlarimiz turmush tarzi va ijtimoiy faoliyatini o'rganish uchun asosiy manba bo'lib xizmat qiluvchi manbalar asosan arxeologiya fani tomonidan o'rganiladi va biz uchun qo'shimcha yoki yordamchi dalil sifatida tadqiqotlarga jalb etilishi mumkin.

Bizning fikrimizcha, O'zbekiston tarixi yozma manbalarini asosan ikki turga bo'lib o'rganish ma'qul ko'rinadi.

1) rasmiy hujjatlar – yorliqlar, farmonlar, inoyatnomalar, vaqfnomalar, hisob-kitob daftarlari, rohnomalar, rasmiy yozishmalar, maktublar va boshqalar. Umuman, tarixiy hujjatlarning o'ttizdan ortiq turi mavjud. Hujjatlar ijtimoiy-siyosiy hayotni bevosita qayd etishlari, ya'ni feodal yer egaligi, ijtimoiy munosabatlar, davlat tuzilishi va shunga o'xshash masalalar bo'yicha daliliy ma'lumotga boyligi bilan tarixiy

manbalarning boshqa turlaridan ajralib turadi. Ular asosan hujjatshunoslar tomonidan maxsus o'rganilsa-da, tarixiy manba sifatida manbashunoslikda ilmiy qiymati juda katta.

2) tarixiy, geo-kosmografik, agiografik hamda biografik asarlar.

Tarixiy, geo-kosmografik, agiografik hamda biografik asarlarda rasmiy hujjatlarga nisbatan tarixiy voqea va hodisalar keng va to'la yoritiladi. Shuning bilan bir qatorda ularda faktik materialning boyligi ko'zga tashlanadi.

Matn ustida ishlash masalasi

Tarixiy manbashunoslik birinchi galda yozma yodgorliklarning matnlari ustida ishlash malakasini talab etadi. MO mintaqasida Islomga qadar ko'plab alifbe tizimlarining amal qilgani, Islom davrida esa arab yozuviga asoslangan arabiy, forsiy, turkiy tilli son-sanoqsiz yozma manbalarning yaratilgani matn ustida ishlash masalasini murakkab va mustaqil soha darajasiga ko'targan.

Matnshunoslik manbashunoslikning tayyorgarlik bosqichi deb atalishi mumkin. Chunki, manbashunos avvalo matnning saqlanish holatidan boshlab, uning mazmun mohiyatigacha orada murakkab tadqiqot bosqichini amalga oshirishi kerak. Bu esa o'z navbatida qadimgi yozuvlardan, ularni o'qiy olishdan tortib, matnlar ustida paleografik ish usullaridan xabardorlikni talab qiladi. Buning sababi shuki, uzoq o'tmishdan yozma yodgorliklar ko'pincha nochor ahvolda yetib kelgan bo'ladi. Birinchi galda manbashunos matnshunoslik nuqtai nazaridan yodgorlikka baho bermog'i, shundan kelib chiqib, o'zining vazifalarini belgilamog'i lozim. Masalan, to'liq yetib kelmagan matnni tushunish uchun uning yo'qolgan qismlarini tiklash kerak bo'ladi. Buning uchun yozma yodgorlik kontekstini tiklash, shundan kelib chiqib, yo'qolgan bo'lak mazmunini taxmin qilish mumkindir. Bu usul odatda matnning, agar u yagona nusxa bo'lsa, filologik xususiyatlarini hisobga oladi. Taxminan tiklangan mazmun matni yodgorlikning umumiy mazmunidan chetga chiqib ketmasligi lozim.

Matnning tiklangan mazmuni esa mutaxassislarning tanqidiy munosabatlaridan albatta o'tkaziladi.

U yoki bu yozma yodgorlikning tadqiqotchi qo'lidagi matni nuqsonli bo'lsa, uning boshqa nusxalari borligi bilan qiziqishi shart. Ma'lum barcha nusxalar haqida ma'lumot to'plangach, ular orasidan eng mukammali tanlab olinadi. Tanlangan matn tayanch nusxa deb atalib, undagi kamchiliklar boshqa nusxalarga solishtirib to'ldiriladi. Shu tarzda mukammal holga keltirilgan qo'lyozma matni tanqidiy matn deb ataladi. Boshqa nusxalardan tanqidiy matnga ko'chirib olingan o'rinlar matn ostidagi izohlarda ko'rsatib boriladi.

Matnshunoslikning yana bir qiyin ish usuli bor. Bu matn ichidagi izohlar, matn hoshiyalaridagi qo'shimchalar bilan ishlashdir. Xususan, hoshiyalardagi yozuvlar, ba'zan asosiy matn yozuvidan boshqacha usulda yozilgan bo'ladi va ular fan tilida marginaliylar deb ataladi. Marginaliylar ba'zan asar mazmuniga sharhlar, ba'zan esa asosiy matndan o'zga asarlar ham bo'lishi mumkin.

Qadim va o'rta asrlarda charm, pergament, yog'och kabilarga bitilgan yozuvlar o'z vazifasini o'tab bo'lgach, ularning materiallari yuvib tozalanib, boshqa matnlar uchun foydalanilgan. Ko'p hollarda avvalgi yozuv mutlaq o'chib ketmay, ularning qoldiq izlari ustidan matn bitilgan bo'ladi. Bunday qavatlashgan yozuv palimpsest deb ataladi. Fan uchun bu o'rinda har ikkala tekst ham ahamiyatli.

Matnshunoslikda matnning o'chib ketgan, kuyib yo'qolgan, bashoratlar yemirgan va b. hollarda yo'qolgan o'rinlari "lakuna" deb ataladi. Lakunalarni kasbiy yetuk malaka bilan tiklash matnshunosning muhim vazifasidir.

Xulosa qilib aytish mumkinki, matnshunoslik tarixiy manbashunoslikning material zaxiralarini ta'minlab beradi.

yo'zma manba, arxeografiya, dala ro'yxati, manbaning tashqi belgilari, manbaning ichki belgilari.

Tarixiy manbalarni aniqlash, tanlash va tahlil etish.

Arxeografiya yozma yodgorliklarni qidirib topish, aholi orasida, amaliyotda dala sharoiti deb atalmish holatda dastlabki tanuv-ajratuv, ilk dala ro'yxati va boshlang'ich dala tavsiflaridan boshlanadi. Shundan so'ng aholi orasidan topilgan yoki ayrim shaxslar keltirib fondga topshirgan manbalarni qo'lyozma fondi joylashgan muassasa sharoitida ilk kameral tavsifga olish ishlari amalga oshiriladi. Bu ilmiy-amaliy yo'nalish Respublikamiz Fanlar Akademiyasining Abu Rayhon Beruniy nomidagi sharqshunoslik institutida olib boriladi. (Sobiq Qo'lyozmalar institutida ham katta ko'lamda arxeografik ishlar amalga oshirilgan edi. Shuningdek, bu yo'nalishdagi ishlar ma'lum davrgacha Farg'ona vodiysi, Samarqand, Buxoro va Xorazm viloyatlarida ham qator arxeografik ekspeditsiyalar uyushtirilgan bo'lib, ularda A. Murodov, A. Irisov, I. Abdullaev, A. Ahmedov, B. Hasanov, O. Jali-lov, M. Hakimov, Yu. Tursunov va boshqalar ishtirok etganlar. Bular natijasida bir qancha nodir qo'lyozmalar va hujjatlar aniqlanib, davlat xazinalariga olib kelingan).

Shu bilan birga Hamid Sulaymon (vaf.1979) tomonidan Angliya, Fransiya (1968) va Hindiston kutubxonalariga (1976-1977) arxeografik ekspeditsiyalar uyushtirilgan edi va buning natijasida qator yozma manbalar to'g'risida ma'lumotlar, ayrimlarining mikrofilm va fotokopiyalari yurtimizga keltirilgan edi. Mustaqillik yillarida noyob merosimizni chet ellardagi fondlardan aniqlab, ularning asli va nusxalarini keltirish bo'yicha maxsus davlat komissiyasi ish yuritib, ko'plab tarixiy yodgorliklar mamlakatimizga qaytarish ishlari amalga oshirildi.

O'rganilayotgan masalaga oid bevosita va bilvosita zarur tarixiy manbalarni aniqlash, ularning matni ustida ishlash, ma'lumotlarini tahlil qilishga tayyorlash ilmiy manbashunoslikning asosiy vazifalaridandir.

Tadqiqot mavzusining nazariy jihatdan to'g'ri yoritilishi, unga xizmat qiladigan manbaning sifati, ma'lumotlarining

chuqurligiga bog'liq. Tadqiqotning mukammalligini ta'minlash uchun tanlangan manba mazmunini to'ldiruvchi qo'shimcha manbalar ham jalb etilishi jalb etiladi. Bu degan so'z manbashunoslikda biror mavzuni tadqiq etish uchun bir emas, balki bir necha manbalar turiga – rasmiy hujjatlar, solnomalar, geografik, agiografik va biografik asarlarga asoslanib, ularni qiyosiy solishtirib tahlil etilishi muhimdir. Tadqiqot uchun yozma manbalarning asosiy va yordamchi bo'lishi mavzu talablaridan kelib chiqib belgilanadi.

Manbashunoslik amaliyoti ko'rsatadiki, aksariyat yozma yodgorliklar mazmuniga ko'ra universal xususiyatga ega. Ularda ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy, ma'naviy hayotga oid ma'lumotlar tadqiqot maqsadiga muvofiq tarzda ishlatiladi. Jumladan, ma'lum bir davr o'rganilar ekan, bir yo'la barcha masalani qamrab olish qiyin. Shu sababli tadqiqot mavzusi doirasida manba ma'lumotlari qanchalik aniq ishga solinsa, shunchalik samarali natija bo'ladi.

Manbalarning ichki va tashqi belgilariga qarab tahlil etish

Manbalarning tashqi belgilari tushunchasi yozma yodgorliklarga nisbatan paleografik xususiyatlarni qamrab oladi. Ya'ni, qo'lyozma kitob yoki hujjatning materiali, uning o'lchamlari, matnning joylashtirish tamoyillari, yodgorlikning hajmi, varaqlar soni, muqovasi, xat turi va uning xususiyatlari, saqlanish holati, siyohi va b.lar ko'zda tutiladi. Bundan tashqari, asarning nomi, muallifi, odatda kolofonda saqlanadigan kitobat tarixi, kotibi haqidagi ma'lumot, kitobat manzili va b. ham tashqi belgilar qatoriga kiradi.

Ko'p hollarda qo'lyozma asarlarning muallifi, nomi, yozilgan vaqti va joyini aniqlash qiyin. Chunki qadimgi qo'lyozmalarda bugungi kundagi kitoblardagi kabi muqovaning o'zidayoq asar nomi, muallif nomi, kitob boshlanishi va oxiridagi kabi zaruriy ma'lumotlar keltirilmagan. Ba'zi hollarda asar oxiri-xotimada uning ko'chirilgan vaqti va joyi hamda kotibning nomi qayd etiladi, xalos.

Ma'lumotlar keltirilmagan taqdirda, asarning matni,

yozilish va kitobati tarixi, qog'ozi, xati hamda tili va til uslubiga qarab taxminan aniqlanadi. Bunday ma'lumotlarni aniqlash tadqiqotchidan katta hayotiy tajriba va yuksak malakani talab qiladi va bu ancha qiyin va mas'uliyatli ishdir. Bunday masalalarni mashhur kitob bilimdoni Ibodulla Odilov, Abduqodir Murodov, Abdulla Nosirov kabi yuksak malakali mutaxassislargina bir necha yozma manbalarni solishtirish, qiyoslash asosida hal qilishi mumkin.

Asar muallifi va uning shaxsini aniqlash qo'lyozma kitobning ilmiy tahlil etishda katta ahamiyatga ega. Bu asarning yaratilish tarixi va uning yozilishiga sabab bo'lgan ijtimoiy-siyosiy muhitni aniqlab olish uchun ham zarurdir.

Asar muallifining shaxsi, ya'ni uning qaysi ijtimoiy guruhga mansubligi, uning dunyoqarashini aniqlash uchun asarning umumiy g'oyaviy yo'nalishini to'g'ri belgilab olish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Manbalarni ichki belgilariga qarab tahlil etish deganda esa qo'lyozma asarning tarkibi va mazmunini tahlil qilish, tushuntirish, g'oyaviy-siyosiy saviyasi va ilmiy qiymatini aniqlash masalalari anglashiladi.

Qo'lyozma asarning ilmiy qiymatini unda nimalar bayon etilganligi, voqea -hodisalarga muallifning xolis munosabati, keltirilgan dalil va ma'lumotlarning to'g'riligi va oldinga surilgan fikr va g'oyalar bilan belgilanadi.

Tarixiy asarning asl nusxa, original bo'lishi yoki kompilyativ – ya'ni boshqalar ma'lumotlarni terib yoki aynan keltirishi, to'la va noqisligi, qisqaligi, voqealarning qay tarzda bayon etilishi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Ilmiy tadqiqotlarda original va mo'tabar qo'lyozmalarga tayanib ish olib borish har bir dalil va ma'lumot, raqamlar eng ishonchli, nodir, birlamchi manbalardan olinishi kerak. Boshqalar kitobida keltirilgan ma'lumotlardan saqlanish lozim.

O'tmish jamiyat sharoitida yozilgan asarlarning mualliflari ko'pincha o'zlari keltirayotgan dalillardan to'g'ri xulosa chiqarmaydilar, ularning fikrlarida noaniqlik, chalkashlik va

qarama-qarshilik ham uchraydi. Bu tabiiy hol, albatta chunki ular yashab ijod etgan muhitning o'zi ziddiyatlar bilan ajralib turar edi.

Yozma manbalarda qarama-qarshi fikrlar bilan bir qatorda xolisona mulohazalar ham uchraydi. Bunday paytlarda muallif ko'pincha o'z fikr va mulohazalarini pardoqli iboralar va istiorali so'zlar orasiga yashiradi, goroskop – odam tug'ilganda uning taqdirini yoki biron ulug' shaxs ishtirokida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan muhim voqeaning natijasini sayyoralarning o'sha paytdagi holati va o'rniga qarab maxsus jadvallar vositasida oldindan belgilash, shuningdek, ko'p asr avval bo'lib o'tgan va aynan muallif bayon qilmoqchi bo'lgan voqeaga o'xshash faktlarni misol tariqasida keltirish yo'li bilan bayon etganlar.

“Abdullanoma” asarining muallifi Hofiz Tanish Buxoriy (XVI asr) mashhur Juyboriy xojalardan biri xoja Muhammad Islom (taxm.1493-1563) va uning “Etti iqlimning chaqqon hisobchilari” bir bo'lganda ham yuzdan birini ham hisoblay ola olmaydigan behisob boyliklariga bo'lgan o'zining salbiy munosabatini Tafsir va Hadis kitoblariga tayanib, mana shunday so'zlar bilan ifodalagan: “Tafsirat ul-mubtadin”¹ning uchinchi misbohida (bobida) aytilganki, jahon a'yonlari bo'lganliklari uchungina emas, (balki) unga tegishli bo'lishlari va mol-dunyoga hirs qo'yishdan o'zini tiymaganliklari uchun yomondir. Shu bois hazrat risolat panoh (Muhammad payg'ambar (s.a.v.)... bu ma'nidan xabar berdi (va dediki) “Mol-dunyoni do'st tutish har qanday gunohning boshidir.”²

Ashtarxoniylardan³ Ubaydullaxonning (1702-1711) kotibi muarrix Mir Muhammad Amini Buxoriy mazkur xonning o'ldirilishi sabablarini uning faoliyatidagi nuqsonlardan,

¹ “Тафсират ул-мубтадин” – “Қуръон” шарҳларидан бирининг номи.

² Ҳофиз Таниш Бухорий. Абдулланом. 1 жилд.-Тошкент. 1966, 148 бет.

³ 1601-1757 йиллари Бухоро хонлиги тепасида турган сулола.

aniqrog'i atrofiga tuban va sotqin kishilarni to'plab olib, saltanat va xalq ahvolidan beparvo bo'lganligida ko'radi. U yozadi: "Ravzat us-safo"¹ da aytilganki, (jahon ustidan hukm yurgizishning) birinchi sharti (shuki) hukmdor sir saqlay oladigan, muhim davlat ishlarida mustaqil fikrga ega bo'lgan maslahatchilarni tarbiyalab yetkazmog'i zarur. Jahon ustidan hukm yurgizishning ikkinchi sharti shuki, (hukmdor) o'ziga yetuk, oqil, vijdonli, kamtarin va iste'dodli kishilarni yaqinlashtirmog'i lozim... Shunga o'xshash, "Ciroj ul-muluk"² kitobida hikoya qilinganki, Nushirvon³ kunlardan bir kuni bosh kohindan so'radi: "Davlatning inqiroziga sabab nima?" Bosh kohin javob qildi: "Buning sababi uchta. Birinchisi, davlatning umumiy ahvoli oliy hukmdordan yashirin tutilsa; ikkinchisi, xalqpodshohga nafrat ruhida tarbiyalansa; uchinchisi, soliq to'plovchilarning jabr-zulmi oshib ketsa."⁴

Mir Muhammad Amin Buxoriy zikr etilgan lavhadan xulosa chiqarib bunday deydi: "Afsuski, har uchala zarur shart Sayyid Ubaydullaxon hukmronligiga taalluqlidir... Podshoh hukmronligining ikkinchi yarmida ilgari o'tgan podshohlar tariqidan, otabobolarning tutimidan chetga chiqdi. Tamom kuch-quvvatini tuban va zaif, sust va manfur kishilarni tarbiyalashga sarfladi, ularni o'ziga yaqinlashtirdi; muttahamlar, haram xodimlari va xotinlar bilan yaqin munosabatda bo'ldi. Mana shularning hammasi uning davlatini inqirozga uchratdi."⁵

Manbaning tarkibi va mazmunini ilmiy tahlil qilishdan kuzatilgan maqsad, uning muhim va qimmatli tomonlarini aniqlash, unda keltirilgan dalillarning ishonchliligi va to'g'risini boshqalaridan ajrata olish hamda eng muhimi asarda bayon

¹ "Равзат ус-сафо" ("Жаннат боғи") саккиз жилдли умумий тарихга оид Муҳаммад Мирхонд асари (XV аср).

² "Сирож ул-мулк" ("Подшоҳлар чироғи") Абу Абдулла Муҳаммад ат-Тартусий (1126 ёки 1131 йили вафот этган) асари. Подшоҳлар ва олий табақадаги мансабдорларнинг хулқ-атвори кодекси.

³ Сосонийлардан Хусрав Анушираон (531-579).

⁴ "Убайдуллонома".-Тошкент. 1957. 220 бет.

⁵ Ўша асар. 221 бет.

etilgan voqeani xolis tarixchi nuqtai-nazaridan turib baholay olishdan iboratdir.

Manbashunoslik talablaridan biri shuki, yozma manbani faqat uning bir o'zida keltirilgan dalil va ma'lumotlarga qarab baholab bo'lmaydi. Ba'zi hollarda keltirilgan dalil soxta, bayon etilgan voqea esa soxtalashtirilgan bo'lishi ham mumkin. Shuning uchun ham biron asar haqida qat'iy bir fikr aytishdan avval uni o'ziga o'xshash boshqa asar bilan solishtirib ko'rish, keltirilgan dalillarni bir-biri bilan solishtirish va tekshirish zarur.

Amaliy manbashunoslik qadimgi davrlardan boshlab to shu kungacha ma'lum darajada tajriba to'pladi. Ko'plab yozma yodgorliklarning eng asosiylari asl nusxada-faksimilesi, tanqidiy matni, tarjima va izohli tarjimasi amalga oshirilib, chop etishga erishildi. Turli qo'lyozma fondlari, kutubxona va muzey, shaxsiy majmualardagi yozma yodgorliklar tavsifi fihrist-kataloglarda e'lon qilinib, ularda amalga oshirilgan manbashunoslik sohasidagi tadqiqotlar natijalari umumlashtirildi.

Xullas, manbalarni o'rganish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar, tajribalar umumlashtirilib, kelgusida amalga oshirilajak tadqiqotlar uchun eng qulay va istiqbolli tadqiq metod va usullarini aniqlab, belgilab va ishlab chiqib, ularning eng zamonaviylari va samaradorlarini amaliyotga qo'llashni tavsiya etish zarur.

So'nggi paytda zamonaviy kompyuterlarning yozma manbalarni tadqiq etish imkoniyatidan foydalanish vaqti keldi. Bu o'rinda zamonaviy talaba va pedagog internet xizmatidan bemalol foydalana olishi talab etiladi.

Umuman, nazariy va amaliy manbashunoslik biri-birini to'ldiradi, biri ikkinchisi uchun asosiy tadqiqot yo'nalishi va uslublarni belgilasa, ikkinchisi birinchisi uchun faktik material jamlab, asos bo'lib xizmat qiluvchi dalillarni yig'adi.

Amaliy manbashunoslik nazariy bilim va tajriba asosida manbashunoslikning konkret, muayyan sohasi, bo'limi, davri masalasi yoki biror manba yuzasidan amaliy, praktik tadqiqot olib boradi, arxiv, muzey, kutubxona va shaxsiy majmualarda

mavjud yozma manbalarni o'rganib, eng qimmatlilarini ilmiy muomalaga olib kirib, keng jamoatchilik ma'naviy mulkiga aylantiradi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Arab tilidagi manbalar bibliografiyasi.
2. Fors tilidagi manbalar bibliografiyasi.
3. O'rta asrlarda tuzilgan bibliografik asarlar.
4. Matnlarga izohlar va sharhlar tuzish.
5. Fond ustida ishlash. Qo'lyozmalarni tavsiflash. Kataloglar tuzish.

GLOSSARIY

Abjad – raqamlarning arab alifbosi orqali ifodalanishi.

Avtograf – matnshunoslikda muallif nusxasi shaklida saqlanib qolgan asar matni. Dastxat nusxa.

Agiografiya – diniy va tasavvufiy ruhdagi adabiyot. Qur'on, Hadis, aqoid va ularga bag'ishlangan asarlar.

Adabiy manba – biror adabiy janrga mansub xrestomtiv xarakterdagi badiiy asar yoki adabiyotshunoslikning sohalariga daxldor mavzularda yozilgan ilmiy asar.

Adabiy manbashunoslik – yozma shakldagi adabiy manbalarni yig'ish, qidirib topish, tartibga solish va ulardan ilmiy foydalanish yo'llarini o'rgatuvchi filologik fan.

Adabiy-tarixiy manba – adabiyotga ham, tarixga ham bir xilda daxldor asar. Jumladan, runiy yozuvdagi O'rxun-Enasoy yodgorliklari.

Akademik nashr – biror klassik asar matnining ilmiy jihatdan puxta, mukammal tarzda tayyorlangan va zaruriy ma'lumotnomalar bilan ta'minlangan nashr turi.

Annotatsiya – nashrning maqsadi, shakli, mazmuni, kimlarga mo'ljallangani hamda boshqa xususiyatlarini aks ettiruvchi qisqacha tavsifi. Odatda, sarvaraq ortida beriladi.

Arab yozuvi – arab va ko'pgina Islom mamlakatlarida qo'llanadigan yozuv. Qo'lyozmalarda uning kufiy, nasx, manqaliy, riqo', tavqe', ta'liq, nastaliq va b. turlarda uchraydi. Arablarning hozirgi yozuvga yaqin shaklda yozilgan yozma yodgorliklarining eng qadimiysi milodning 328 yilida yuzaga kelgan hujjat Naqshi namora, ikkinchi bitik Naqshi zabd 511 yil, uchinchisi Naqshi Haron–568 bitiklarida saqlanib qolgan.

Arxeografik komissiya – qo'lyozmani baholash va xarid komissiyasi. Qo'lyozma fondlari qoshida tajribali manbashunos olimlar jumlasidan tuziladi. Dastlab, shunday komissiya 1834 yilda Peterburge Xalq ta'limi vazirligi qoshida tuzilgan.

Arxeografik ekspeditsiyalar – yozma yodgorliklarni (asosan, qo'lyozma va noyob kitoblarni izlab topish va ularning

kitobsevarlar muhitida tarqalganlik darajasini o'rganish maqsadida tashkil etilgan ilmiy safarlar. Hamid Sulaymon (vaf.1979) Angliya, Fransiya (1968) va Hindiston kutubxonalariga (1976-1977) arxeografik ekspeditsiyalar uyushtirgan edi, va buning natijasida qator yozma manbalar to'g'risida ma'lumotlar, ayrimlarining mikrofilm va fotokopiyalari yurtimizga keltirilgan edi.

Arxeografiya – qadim yozma yodgorliklarini qayta ishlash usullari va chop etishning nazariy masalalari haqidagi tarixiy filologik fan. Bu sohadagi ishlar mintaqa madaniyatimizda alohida nom bilan atalmagani holda juda qadimdan davom etib keladi.

Arxetip – asar qo'lyozmasining ilk nusxasi. Muallif dastxati yoki saqlanib qolgan eng qadimiy nusxasi bo'lishi mumkin.

Asar nomi – asarga muallif va keyinchalik ilmiy jamoatchilik tomonidan qo'yilgan nom. O'rta asrlarda Islom Sharqida asarga, uning yozilish tilidan qat'i nazar, arabcha nomlar qo'yish rasm bo'lgan.

Asarning boshlanishi va oxiri – manbashunoslikda asarning saqlanib qolgan nusxalarini o'zaro taqqoslash uchun uning qo'lyozma nusxalari to'liq tavsifida matndagi «basmaladan» keyingi bir jumla va «tammat»dan oldingi bir jumla qayd etiladi.

Asarning yozilish sababi – asarning muallif tomonidan kitobga kiritilgan tarkibiy qism.

Asl nusxa – q.: tayanch nusxa. Ba'zan: ko'chirish uchun asos bo'lgan nusxa.

Asar tarkibi – qo'lyozma asarning ichki tuzilishi: sarlavha, debocha, asosiy matn, kolofon va b.

Asliyat – ko'chirish uchun asos bo'lgan nusxa.

Asosiy nusxa – q.: tayanch nusxa.

Atributsiya – matnshunoslikda anonim asarning muallifi, yaratilish vaqti, joyi va boshqa xos xususiyatlarini aniqlash. Evristika deb ham yuritiladi.

Ashyo (inventar) daftari– qo'lyozma fondlarida qo'lyozma asarlarni ro'yxatga olish maqsadida qayd etuvchi, daftar shaklidagi rasmiy hujjat.

Ashyoviy manbalar – tarixiy manbashunoslikning tadqiq obyekti bo'lgan buyum, tanga, zeb-ziynat, maishiy va sanoat hamda jang asbob-anjomlari va h.k.lar.

Bayoz – turli shoirlarning she'rlaridan tanlab tuzilgan to'plam. Majmua, kajkul ham deyiladi. Biror shoir yoki kotib tashabbusi bilan tuziladi.

Basmala – kitobning boshida keladigan «Bismillohir-rahmonir-rahim» so'zlarining umumlashma nomi. Kitobat amaliyotida asarning tarkibiy qismi hisoblanadi.

Bibliografiya – tarixiy, adabiy, ilmiy asarlarning fan, mavzu, davr, mamlakat, mualliflarga bag'ishlab tuzilgan manbalari ro'yxati. Ular alohida kitob yoki kitobga ilova tarzida, alifbo tartibida bo'ladi. Qadimda ayrim qo'lyozma kitoblar orasida ba'zi sohaga oid yoki biror muallifga mansub kitoblar fihristi (ro'yxati) keltirilgan.

Bitiklar – Qadimgi adabiy yodgorliklarning qasr va saroylar peshtoqlariga, qabr toshlariga, qoyatoshlarga o'yib yozilgan bir turi. Bexistun bitiktoshlari, O'rxun-Enasoy qabr toshlari shular jumlasidandir.

Bob – matnshunoslikda asarning tarkibiy qismi. Fasl, qism, asl, mavzu, ravza, maqola, daftar deb ham atalishi mumkin.

Varaq – qo'lyozma kitoblarga havola berishda bet o'rniga varaq qo'llaniladi. Qo'lyozma varaqlari fonda unga dastlabki ishlov berishda raqamlanadi. M.: har bir varaq ko'tarilgan holda uning o'ng yuzi «a» sahifani, – chap yuzi «b» sahifani bildiradi. Ammo ular sahifaga yozib qo'yilmaydi.

Varaqlarni raqamlash – hozirgi kunda qo'lyozma fondlarda saqlanayotgan kitoblarda poygir va arabiy raqamlardan tashqari har bir varaq alohida raqamlar bilan betlab chiqilgan bo'ladi. Bunday manbalardan iqtibos olinganda, ularning inventar raqami va varag'i ko'rsatiladi,

varaqlarning o'ng yuzi «a» harfi bilan, — chap yuzi «b» harfi bilan belgilanadi (masalan, 21a bet.)

Germenevtika – matnshunoslikning qadim yozma yodgorliklarni, klassik mualliflarning asarlarini, ularning dastlabki mazmunini tiklash maqsadida sharhlash, tavsif etish sohasi. (Antik davrda diniy matnlarni sharhlash, tavsif etishdan kelib chiqqan). Jumladan, Forobiy yunon mutafakkirlari Aflotun, Arastu, Evklid, Ptolemey, Porfiriy va boshqalarning asarlariga sharhlar yozgan. Ayniqsa Aristotel asarlaridan «Metafizika», «Etika», «Ritorika», «Sofistika» va boshqalarni batafsil izohlab, qiyin joylarini tushuntirib bergan. Bu asarlarning umumiy mazmunini ochib beruvchi «Mo ba'iy tabiat»ga o'xshash maxsus sharhlar yozgan. Hozirgi ma'nodagi germenevtika shoir yoki yozuvchi asarlarining ilmiy tanqidiy-matnini tuzish, bu asarlarni har xil izoh va sharhlar bilan ta'minlash, asarning adabiyotda tutgan o'rnini aniqlab berishdir.

Dastxat – q.: avtograf.

Izoh va sharhlar – nashr ma'lumotnomasining tarkibiy qismi. Matndagi tushunilishi qiyin bo'lgan o'rinlarni izohlash uchun tuziladi va ko'pincha nashrda kelishi tartibi bilan beriladi.

Ilmi rasmulxat – xattotlik san'ati.

Ilmiy apparat – matniy tafovutlar joy olgan sahifa osti izohlari. Keng ma'noda arxeografik kirish, matniy tadqiqot, matnning berilish tartibi, izoh va sharhlardan iborat nashr ma'lumotnomasining umumiy nomi.

Ilmiy izohli tarjima – nashr turi. Ilmiy izohli tarjimani amalga oshirish – ko'rsatkichlar tuzish, tadqiqot yozish bilan birga olib boriladi.

Geotsentrizm — Yerni olamning markazi deb tushunish. Manbalarda kosmongonik tasavvurlarni talqin qilishda hisobga olinadigan xususiyat.

Germenevtik tadqiqot usuli — Manbalar mazmun jihatdan tur, turkum, mavzu yo'nalishlari kabi guruhlariga ajralishidan kelib chiqib germenevtika qiyosiy

manbashunoslik usuli bilan ham uyg'unlashadi. Unikali (yagona) yodgorlik masalasida uning mazmunidan kelib chiquvchi davr shart-sharoitlari, muallif yoki asarda uchraydigan nomenklatura va boshqa ma'lumotlarga tayanib ish ko'rish demakdir.

Germenevticheskiy manifest – nemis faylasufi Xans Georg Gadamerning germenevtikani nazariy asoslashga qaratilgan asari.

Diltey – fransuz faylasufi. Tushunuvchi psixologiya nazariy metodini yaratgan olim. Buning ma'nosi ruhiy va ma'naviy ichki olamning yagona birligi demakdir. MANbalarda muallif ichki olami va yozilgan matn o'rtasidagi bog'liqlikning muhim jihati.

Dunyoning diniy va ilmiy manzarasi – manbalarning mazmuniga munosabatni belgilashda e'tiborga olinadigan muhim xususiyat.

Ilmiy-tanqidiy matn – asarning saqlanib qolgan barcha qo'lyozma nusxalari jalb etilgan holda uning matni ilmiy tahlil qilinib, muallif nusxasiga yaqinlashtirilgan eng ishonchli matn shakliga keltirilgan ilmiy nashr. Bunday nashr arxeografik kirish, matn tanqidi, ilmiy apparat, izoh va ko'rsatkichlar bilan mukammal ta'minlangan bo'ladi va keyingi nashrlar va tadqiqotlar uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Individual tavsif – bir muallif asarlari qo'lyozmalari katalogi nashri (M.: Forobiy, Ibn Sino, Amir Xusrav Dehlaviy, Jomiy asarlari qo'lyozmalari katalogi).

Islomiy manbalar – Qur'on, hadis va islomiy bilimlarga oid manbalar.

Yig'ma matn – q.: qiyosiy-yig'ma matn.

Kartochka – kartochkali kataloglar yoki kartochka tavsiflari varaqalari. Fanga, tilga, muallifga va kitob nomiga tuzilgan turlari mavjud.

Katalog – yunoncha ro'yxat ma'nosidagi so'zdan olingan bo'lib, zarur manbani topishda qulaylik tug'dirish uchun ma'lum tartib asosida tuziladi. Kartoteka kataloglar kitob

fondlarida kartochkalar holida ma'lum tartibdagi tortma yashiklarda saqlanadi. Qo'lyozma kataloglariga alifbo tartibida, muallif nomi yoki asar (kitob) nomi bosh harfi orqali kirib boriladi.

Kolofon – kotibning qo'lyozma so'ngida keltiradigan ma'lumotnomasi. Unda kitob muallifi (ba'zan), kotib, buyurtmachi (ba'zan), ko'chirilish sanasi, sababi (ba'zan) berilishi mumkin. Biroq ko'pgina qo'lyozma kitoblar bunday ma'lumotlarsiz yakunlanishini ham mumkin.

Konyektura – o'qilishi qiyin, tushunarsiz, buzilgan joylarini aniqlashda matnshunos asarning umumiy mazmunidan kelib chiqib, kontekstga suyangen holda *hissiy idrok va o'z mulohazalarigagina* asoslanib matnni tuzatishga asoslangan metod.

Konvoy – rus matnshunoslari nashrda matnga hamroh bo'lib keladigan yordamchi materiallarni shunday ataydilar // (so'z boshi) (tabdil matn). (asardagi bayt, qit'a va ruboiylarning asl matni) (forsiy va turkiy ruboiylar) va h.k.

Kotib – q.: xattot.

Kriptografiya – paleografiyaning maxfiy yozuvlarni o'rganuvchi sohasi.

Kharoshtiy – xat turi. Kushon podshohligi davrida (milodning 1-3 asrlari) Markaziy Osiyoda ham amalda bo'lgan hind yozuvi.

Kulliyot – mumtoz adabiyotda biror ijodkorning mukammal asarlar to'plami shu nom bilan atalgan. Ammo ko'p hollarda muallifning barcha asarlarini qamrab olmagan.

Kutubiya – Marokashda 1146 yilda qurilgan, kutubxonasi boyligi bilan mashhur bo'lgan masjid.

Kufiy – arab yozuvi turlaridan biri. X asrgacha keng, XV asrgacha siyrak muomalada bo'lgan yozuv. Mashhur Usmon Mushafi shu yozuvda bitilgan.

Litografik nashr – toshbosma usulida bosilgan kitob. (q. toshbosma.)

Litografiya – yassi bosma usuli. Maxsus litografiya qog'oziga xattotlar va naqqoshlar ishlagan sahifalar maxsus tosh plitkalar sirtiga ko'chirib o'tkazilgan. Matn o'tkazilgan toshga maxsus kimyoviy ishlov berilgandan keyin undagi tasvir tushgan yerlar yog'li bo'yoqni o'zida tutib qoladigan bo'lib qolishiga asoslangan.

Lyuminessensiya – sovuq nurlardan foydalanib qo'lyozmalarning o'qib bo'lmaydigan yerlarini o'qish imkonini beradigan usul.

Matn tanqidi – hozirgi matnshunosligimizda asar matni nashri bilan birga e'lon qilinadigan matnshunoslik tadqiqotini «matn tanqidi» deb atab kelinmoqda. «Matn tanqidi» o'rganilayotgan qo'lyozmadagi asarning matniga *ilmiy-tanqidiy yondashuvni* anglatadi.

Matnshunoslik – filologiyaning adabiy, tarixiy, ilmiy asarlar hamda tarixiy hujjatlar matnini ilmiy-tanqidiy o'rganish va nashr qilish bilan shug'ullanuvchi sohasidir. Adabiy, tarixiy va ilmiy asarlar matnshunosligiga bo'linadi.

Muqaddima – asardagi asosiy matnning tarkibiy qismlaridan biri. Unda muallif o'quvchini asarning asosiy mazmunini qabul qilishga tayyorlash maqsadini ko'zda tutadi. Asosan, informativ xarakterga ega bo'lib, unda asarning yozilish sababi, mazmuni, tarkibi hamda muallifning ijtimoiy-estetik qarashlari bayon qilinadi. Sharq kitobatida devon muqaddimalari **debocha** (q.) deb atalgan.

Muqova – kitob varaqlarini biriktirib turuvchi qoplama. Odatda qalin kartondan va teridan yasalgan. Varaqlari dastalanib, muqova orasiga olingan kitoblar eramizning birinchi asridan paydo bo'la boshlagan. Ular dastlab papirus, keyinroq pergament sahifalarni qoplab turgan.

Munojot – qo'lyozma asarlarda *basmala* va *na'tdan* keyin keladigan, Ollohga murojaat tarzida yozilgan qism.

Munshaot – mashhur ijodkorlarning yozishmalari, maktublaridan tuzilgan to'plam.

Musavvir – naqqosh, rassom.

Nabatiy – arab yozuvining bir turi.

Naqqosh – musavvir, rassom.

Nasriy bayon – she'riy yo'l bilan yozilgan epik asarlarni hozirgi tilga nasrda qilingan tarjimasini. Alisher Navoiy «Xamsa» dostonlarining shu xildagi nashrlari mavjud. Bu xildagi nashrlar asar mazmunini hozirgi kitobxon uchun tanishtirishda beqiyosdir.

Nasta'liq – arab imlosi asosida yuzaga kelgan xat turi. Asoschisi Shohrux zamonasidagi Xirot matnshunoslik maktabining vakili Mir Ali Tabriziy.

Nasx – arab imlosi asosida yuzaga kelgan xat turi.

Nashr – qo'lyozma asarlarni bosma usulida tarqatilgan nusxasi.

Nashr turlari – yozma yodgorliklar nashrining tabdil, transliteratsiya, ilmiy tanqidiy matn, ilmiy izohli tarjima va h.k. kabi ommaga va ilmiy jamoatchilikka mo'ljallangan turlari mavjud. Ular ommabop nashrlar va ilmiy nashrlarga bo'linadi.

Nashriyot – qo'lyozmalarni bosmaxonada chop etish uchun tayyorlash bilan shug'ullanuvchi muassasa.

Na't – qo'lyozma kitoblarda, odobi tasnifga ko'ra, Ollohning hamdidan keladigan ikkinchi tarkibiy qism. Unda Rasululloh va choryorlar vasf etiladi.

Nisba – ijodkorlar taxallusining u tug'ilgan joyga ishoratan olingan qismi.

Nodir qo'lyozma – muayyan asarning muallif dastxati, muallif zamonasida ko'chirilgan, yagona saqlanib qolgan nusxasiga berilgan sifatlash.

Imom G'azzoliy – Ilohiy zotni ratsional (aql bilan) anglab bo'lmaydi, chunki ul zot inson aqli imkoniyatidan tashqaridagi yuksak maqomdir, degan g'oyani olg'a surgan mutafakkir.

Istorizm — genetik metodning kengroq talqini va tatbiqi. Bunga ko'ra har qanday voqelik muayyan sharoitda tug'iladi, yuzaga keladi, rivojlanish ma'lum holatda namoyon bo'ladi. Ba'zan Manbaning o'z davriga ko'ra baholash istorizm deb tushuniladi. Bu masalani tor talqin qilish demakdir.

Ifoda aspekti – germeneytikani yozma matnning ifoda usullarini o'rganishdan iborat deb tushunuvchi yondashuv. Zero "ifoda usuli" matn egasining ichki dunyosini, matndan ko'zda tutgan maqsadini ko'rsatadi.

Kitob ul-masodlik va l-mamolik – tarixiy geografik, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy jarayonlar haqida xabar beruvchi kitoblar turkumi. Ularning mualliflari turli kishilar. Turli vaqtda yashaganlar. Qiyosiy tadqiqotlar uchun muhim manba turkumi.

Kodikologiya - kodeks so'zidan fan nomi. Manbalarning kitob shakllari tarixi bilan shug'ullanadi. Kitob yaratish texnologiyasi taraqqiyotini ham hisobga oladi.

Kolofon -qo'lyozma kitob oxirida kitobat tarixiga oid, muallifi va ko'chirgan kotibi, buyurtmachisi kabi ma'lumotlar.

Qiyosiy manbashunoslik — bar turdagi manbalarni qiyoslab, to'g'ri va haqqoniysini aniqlash usuli. Germeneytik talqinning boshlang'ich bosqichi.

Qomus -ensiklopedik xususiyatli qo'lyozma asar turi.

Lavvoh – qo'lyozma kitoblarga bezak beruvchi hunarmand kasbining nomi.

Manba - moddiy ashyoviy manbalardan tashqari belgilar tizimining tipologik xususiyatlaridan, tili va boshqa belgilaridan qat'iy nazar yozma yodgorliklarning tarix uchun guvohlik funksiyasi tarixiy manba deyiladi

Manbaga ishonchsizlik g'oyasi – tafakkur guvohligiga ishonchsiz qarash (manbaga to'liq ishonish mumkin emasligi) germeneytikaning ish prinsiplaridan biri sifatida.

Manbalarni turkumlash -qiyosiy tadqiqot obyektlarini belgilash, o'rganishga tayyorlash bosqichi.

Matnshunoslik - yozma yodgorliklarning qo'lyozmalarni qiyos qilish orqali to'liq va ishonchli matnini (tanqidiy matnini) tiklash bilan shug'ullanadigan yordamchi tarix sohasi.

Mujalla –biror sohaga oid asarlar, maqolalarni birlashtirgan to'plam.

Nazariy manbashunoslik – amaliy manbashunoslik tajribalarini umumlashtirish, ish usullarining optimallashtirishga xizmat qiladigan tadqiqot bosqichi.

Paleografiya - yozma yodgorlikning tashqi holatini o'rganadigan yordamchi tarix shahobchasi.

Poygir – o'rta asr qo'lyozma kitoblarning sahifa sanog'ining usuli. Avvalgi sahifaning oxirgi so'zi keyingi sahifaning birinchi so'zi qilib ko'rsatilgan holda sahifalar adashib ketishiga yo'l qo'yilmagan.

Sahhof – kitobning sahifalarini yig'uvchi hunarmand usta kasbining nomi.

Tazkira – O'z zamonasi va undan oldin o'tgan ulug' zotlar shaxsi, faoliyati, meroslari kabi masalalarni o'zida jamlagan tarixiy, adabiy, tasavvufga, falsafa va b. sohalarga oid asarlar turini birlashtiruvchi atama.

Tarixda genetik metod – ilmiy bilishning tub ildizini, kelib chiqishini va rivojlanishdagi hodisalarning sabab asosidan kelib chiquvchi tadqiqot usuli.

Tarixi Yaminii – Mahmud G'aznaviyning unvon martabasi yamin ud-davla bo'lgan. Xalifalik yorlig'i bilan asoslangan. Tarixchi olim Utbiyning Mahmud G'aznaviyga bag'ishlab yozgan asari nomi.

Til germenevtikasi – nemis faylasufi Xaydegger til hodjisasini germenevtika uchun muhimligini asoslagan. Uning fikricha til borliqni tushunish sathini tashkil etadi. Masalan arab yoki fors tilidagi klassik matn bilan hozirgi zamon matni farqi ikki xil davr va tarixiy sharoitning guvohligidir.

Ufq va hayot muhiti – Xaydegger taklif qilgan konsepsiya. Germenevtikada manbalar bilan ishlashning perspektiv usulini hamda ularda aks etan hayot muhiti talqinidan kelib chiquvchi metodni taklif qilgan.

Xattotlik – matnni go'zal harflar bilan, barcha grafik qoidalarga rioya qilgan holda ko'chirish san'ati. Kalligrafiya.

Chog'ishtirma matn – q.: qiyosiy yig'ma matn.

Epigrafika – tosh, yog‘och, sopol kabi narsalarda saqlangan yozuvlarni o‘rganuvchi tarixiy-filologik fan.

Qiblat ul-kuttob – Temuriylar davri husnixat san‘atining faxri hisoblangan, Mir Ali Tabriziyga berilgan nom – kotib (xattot)lar qiblati ma’nosida. Nasta’liq xatida tanilgan dastlabki xattot.

Qiyosiy-yig‘ma matn – ilmiy-tanqidiy matn tuzish prinsiplari asosida, ammo asarning cheklangan qo‘lyozmalari jalb etilgan holda tuzilgan matn.

Qo‘lyozma kitob – kitob bosish kashf etilmasdan avvalgi va undan keyingi asrlarda birmuncha vaqt qo‘lda yozilgan matnli kitob.

Hoshiya – kitobning asosiy matni joylashgan qismning atrofi. Qo‘lyozma kitoblarda hoshiya yozuvlari – asosiy matndan tushib qolgan qistirmalar, asosiy matnning o‘sha yeriga berilgan izohlar, boshqa asar matnidan keltirilgan parchalar, ba’zan esa boshqa muallifning butun boshli asari joylashtirib yuborilishi ham mumkin bo‘lgan.

Shlaermaker U. – germeneytikaning umumiy nazariyasini yaratishga harakat qilgan nemis olimi. Uning fikricha germeneytika “o‘zganing fikrini tushunish san‘ati”.

FAN BO'YICHA TESTLAR

1. O'rta Osiyoning tarixi Abu Said Abdukarim as-Sam'oniyl at-Termiziyning qanday taxallus bilan o'z asarlarida keltiradi?

- A) Xiloliy
- B) Shoshiy
- C) Koshg'ariy
- D) Bug'iy

2. Nima uchun At-Termiziy umrini oxirlarida xalq orasida az-Zariyr deb atalgan?

- A) Arabistonda 5 yil yashab kelgani uchun.
- B) Termizda vafot etgani uchun.
- C) Ko'zi ojiz bo'lib qolgani uchun.
- D) Yetuk ilm sohibi bo'lgani uchun.

3. At-Termiziyning qo'yidagi muhaddislar orasidan ustozini ko'rsating?

- A) Imom al-Buxoriy, Abu Dovud.
- B) Qutayba Ibn Saroy, Imom Muslim.
- C) Axmad Ibn Munir, Ali Ibn Xajor
- D) Hamma javob to'g'ri.

4. Imom at-Termiziy o'z davrining yetuk muhaddislari bo'lgan shogirdlarini ko'rsating?

- A) Isxoq Ibn Muso, Abu Dovud
- B) Axmad Ibn Yusuf an-Nasafiy
- C) Xamid Ibn Shopur, Maxxul Ibn al-Fazl
- D) Muxammad Ibn Bashshod, Muxammad Ibn Maxmud Anbar.

5. "Taskirat ul- xuffoz" ("Xofizlar xaqida taskira") nomli asarning muallifi kim?

- A) Imom at-Termiziy
- B) Shamsiddin az-Zaxobiy

- C) Abu Nasr Utbiy
- D) Xasan Ibn Qulayd Ali Shoshiy

6. "Kitob al Ilal" asari muallifini ko'rsating?

- A) az-Zamaxshariy
- B) Ibn al-Arabiy
- C) Xofiz Abu Bakr Muxammad Ibn al-Ashbily
- D) At-Termiziy

7. At-Termiziy asarlari o'zbek tiliga kim tomonidan o'girilgan?

- A) Said Maxmud Tiroziy
- B) Ziyoviddin Ibn Eshon Boyoxon
- C) Abu Mansur Xusayniy
- D) Abu Shuayb

8. Az-Zamaxshariy o'z davrida qanday nomlar bilan mashhur bo'lgan?

- A) Ustoz ul-Arab val ajam.
- B) "Faxrul Xorazm"
- C) "Jorullox"
- D) A.V.S javoblar to'g'ri.

9. "Rostdan xam men Xorazmda adiblar uchun (bir) Ka'baman" deb qaysi mashhur adib o'z asarida keltiradi"?

- A) Imom at- Termiziy.
- B) Az-Zamaxshariy
- C) Rashiduddin al-Votvot
- D) As-Saolibiy

10. Az-Zamaxshariy uylanmaslikka da'vat qilgan va uylanmaslikni eng yuksak barkamollik deb shu haqida yozgan asarini ko'rsating?

- A) "Al-Mufassal"
- B) "Al-Kashshof"
- C) "Muqaddimatul ul-Arab"

D) " Atvoq uz-Zaxib"

11. XII -XIII asrlarda Xorazmda sadr ul-fazoil (Fazilatli kishilar peshvosi) taxallusi bilan mashhur bo'lgan mashhur shoir va adib ?

- A) Abu Mudar ad-Dabiy
- B) Al-Qosim ibn al-Xusayn
- C) Solix Ibn al-Biloliy
- D) Ismoil al-Jurjoniy

12. O'zidan oldin o'tgan adiblar va muhaddislarning asarlariga tavsif (sharh) yozgan va bu sohada keng qalam tebratgan shoir?

- A) Maxmud az-Zamaxshariy
- B) Al-Qosim ibn al-Xusayn
- C) Al-Xaririy
- D) Abu Nasr al-Utbiy

13. "At-Tajmir", "At-Tavrix", "Laxjat ash-Shari'ya" asarlari mualliflarini ko'rsating?

- A) Rashididdin al- Vomvot
- B) Az-Zamaxshariy
- C) Ibn Arabshox
- D) Al-Qosim ibn al-Xusayn

14. Al-Qosim ibn al-Xusayinning "Kitob al- Xallisilil muxsila" asari nimaga bag'ishlab yozilgan?

- A) Notiqlik san'atiga bag'ishlangan.
- B) Grammatikaga bag'ishlangan.
- C) Fiqh leksikasiga bag'ishlangan.
- D. Nodir kitoblarga bag'ishlangan.

15. Xorazmshoxlar (davlatida) saroyida kitob ul-insho (besh noib) lavozimida 30 yil faoliyat ko'rsatgan mashhur adib?

- A) Rashiduddin al-Vavvot
- B) Abu Nosr al-Utbiy
- C) An-Nasaviy
- D) Al-Roziy

16. Rashiduddin al- Votvot "Maktublar" nomi bilan atalgan yozishmalar to'plamini qaysi shoxga bag'ishlagan va nechanchi yillar oralig'ida yozilgan?

- A) Alovuddin Takash 1112-1189 yillar
- B) Xorazmshox Otsiz 1168-1185 yillar.
- C) Sultonshox Maxmud 1156-1173 yillar
- D) Muxammad Xorazmshox 1211-1213 yillar

17. Damashqiy, Rumi, Amaliy taxalluslari bilan mashhur bo'lgan muarrix?

- A) Ibn Arabshox
- B) Ibn Xaldun
- C) Ibn Xavqol
- D) Sayid Muxammad Jurjoniy

18. Muarrix G'iyosiddin Ali "Ruznomai g'azovot Hindiston" (Hindiston yurishi ro'znomasi) asarida qaysi shoxning Hindistonga yurishi tasvirlangan?

- A) Mahmud G'aznaviy
- B) Amir Temur
- C) Z.M.Bobur.
- D) Muhammad Xorazmshox

19. Arab tilida Amir Temur haqida yozilgan yagona manba bu-.....?

- A) "Zafarnoma" Sharofiddin Ali Yazdiy.

O'QUV QO'LLANMA

- B) "Ajoyib al-maqdur fi tarixi Taymur" Ibn Arabshox
- C) "Zafarnoma" Sharofiddin Shomiy
- D) V va A javoblar to'g'ri.

20. "Ajoyib al-Maqdur fi tarixi Taymur" asar fransuz tiliga kim tomonidan o'girilgan?

- A) Vattiyer.
- B) Manger.
- C) Sonders.
- D) Gomin

21. Amir Temur va uning faoliyatini tanqidiy ruxda yozilgan asarni ko'rsating?

- A) "Mirotul ul-arab"
- B) "Zafarnoma" Nizomiddin Shomiy
- C) "Temurnoma"
- D) "Ajoyib al-maqdur"

22. "At-Ta'mif at-Toxir" nomli asar muallifi kim?

- A) Ibn Xavqal
- B) Ibn Xaldun
- C) Mirshimid as-Udfuji
- D) Ibn Arabshox

23. Misrlik muarrix ibn Xaldunni kasbi nima bo'lgan?

- A) Mudarris
- B) Qosiy
- C) teri oshlovchi
- D) Dexqon

24. Samarqand tarixiga bag'ishlab asar yozgan muarrixlarni ko'rsating?

- A) Muhammad al Idrisiy
- B) Xoshim al Bog'dodiy

- C) Muhammad al Mustag'ofiy
- D) Hamma javob to'g'ri.

25. O'zining "Ta'dod ish-shuyux li Umar" nomli maxsus risolasida ko'pdan-ko'p ustozlarini sanab o'tgan muarrix?

- A) Umar an-Nasafiy
- B) Abu Sayid al-Samg'oniy
- C) Burxoniddin al-Marg'iloniy
- D) Ahmad ash-Shayboniy

26. "Al-Mavoqiy", "Manzumut al-Xalifiyat", "Qayd ul-Avoyid" asarlari muallifi kim?

- A) Abu Nosr al-Utbiy
- B) Abu Mansur al-Solibiy
- C) Faxrudin al Roziy
- D) Shaxobiddin Umar an-Nasafiy

27. Abu Nosir al-Utbiiy "Tarixi al-Yaminiy" asarini kimga bag'ishlab yozgan?

- A) Maxmud G'aznaviyga
- B) Sabultaxinga
- C) Ismoilshoxga
- D) Xalifa Qodir Billoxga

28. "Tarix al-Yaminiy" asari dastlab qaysi tilga tarjima qilindi?

- A) Ingliz
- B) Arab
- C) Turk
- D) Fransuz
- Y) Fors tili

O'QUV QO'LLANMA

29. Abu Nosir al-Utbiiy "Tarixi al-Yaminiy" asarini nima uchun bu nom bilan atagan?

- A) Yamanga qilingan sayyoxati ababli
- B) Maxmud G'aznaviyning laqabi bo'lgani uchun
- C) Maxmud G'aznaviyning muruvvatligi uchun
- D) Sabuqtekinni unga ko'rsatgan muruvvati tufayli.

30. Boshdan oxir nasriy saj usulida yozilgan va shu tarzda yaratilgan dastlabki tarixiy- biografik asar?

- A) "Tarix al-Yaminiy"
- B) "Mujim al- Udabog'"
- C) "Mixjit al- Shirigya"
- D) "At-Tavorix"

31. Fors tilida yozilgan dastlabki geografik asar?

- A) Axqiqul-Viloyat
- B) Xuquq al-Oldam
- C) Tarixi Buxoro
- D) Zomin ul-Axyor

32. Nizomulmulkning davlatni idora qilish masalalariga bag'ishlangan asari?

- A) "Siyosatnoma"
- B) "Siyar al-Mulk"
- C) "At-tavdix"
- D) "Al-Muvaqqiyn"

33. Yenisey bitiklari dastlab kim tomonidan topilgan?

- A) S.U.Ramezov
- B) F.Sralenberg
- C) Radlov
- D) V va S javoblar to'g'ri.

34. Al-Yakubiyning “Kitob al-Buldon” asarining to‘rtlik qismi qaysi davlatlarga bag‘ishlab yozilgan?

- A) Eron, Movarounnahr, Afg‘oniston, Xuroson
- B) Vizantiya, Suriya, misr, Nubiya, Shimoliy Amerika
- C) Janubiy va shimoliy Mesopatamiya, Xindiston, Xitoy
- D) G‘arbiy Mesopatamiya, janubiy-g‘arbiy Arabiston

35. Omma Bobosh Sohib Barizliq-Ya’ni xalifani vasiyatlarini ahvolidan xabardor qilib turuvchi oliy mansabdor lavozimda ishlagan, IX asrda o‘tgan yirik geografik va tarixshunos olim?

- A) Madoiniy
- B) Belazuriy
- C) Abu Yusuf Yaqubiy
- D) Al-Yaqubiy

36. Abu Yusuf Yaqubning xalifa Xorun ar-Rashid topshirig‘i bo‘yicha yozgan asari?

- A) “Kitob ul-Xiroj”
- B) “Kitob vxbar al-Buldon”
- C) “Kitob ansob ali-Sharof”
- D) “Axbor ash-Shuaro”

37. Al-Yaqubiyning “Tarix” asari O‘rta Osiyo va O‘zbekistonning nechanchi asrlardagi tarixi bo‘yicha muhim manba hisoblanadi?

- A) VII-XI asr
- B) V-XI asr
- C) VI-XII asr
- D) X-XV asr

O'QUV QO'LLANMA

38. Abbosiylardan Al-Mushvalil va Al-Mustain saroyda tarbiyachi bo'lib xizmat qilgan va shu mashhur adabiyotshunos va shoir Abulabbos Ibn al-Mug'mizga ustozlik qilgan tarixiy olim?

- A) Abu Yusuf Yaqub
- B) Midoiniy
- C) Al-Yaqubiy
- D) Balzuriy

39. Belazuriyning "Kitob Futx, Al- buldon" qaysi mavzuga bag'ishlab yozilgan?

- A) Xuroson aholisi va uning mashg'uloti
- B) G'arbiy Arabiston mamlakati geografik holati
- C) Abarblarning Muvorounnaxrga bostirib kirishi holati
- D) A va V javoblar to'g'ri

40. IX-X asrlarda yashab o'tgan xalifa Mug'taliq (870-892) davrida Mibal viloyatida sohib baroz va l-xabar lavozimida ishlagan asli Eronlik tarixchi?

- A) Ibn Xurdodbek
- B) Al-Ma'zudiy
- C) Ibn al-Faqix
- D) Abulfarom Qudama

41. Tabariyning tarix al-Rusul va Ya-mulun asari O'rta Osiyo va O'zbekistonning qaysi asrlar tarixi bo'yicha asosiy manba hisoblanadi?

- A) IX-XV asr
- B) XI-XVI asr
- C) XIII-IX asr
- D) X-XII asr

42. “Tarix- al-Rasul va Ya –mulin” asarini fransuz tiliga kim tomonidan o‘g‘irilgan?

- A) M.Ya.de Guye
- B) Ye.Fanen
- C) M.T.Xatuoma
- D) V.I.Belayev

43. Al-Ma’sudiy qalamiga mansub bo‘lgan “Kitob axbor uz-zamon” asari necha jilddan iborat?

- A) 15
- B) 17
- C) 30
- D) 32

44. Al-Ma’sudiy ijodini tushunishda katta ahamiyatga ega bo‘lgan qaysi asrlari bizgacha yetib kelgan?

- A) “Kitob-axbor uz-zamon”
- B) “Kitob al-avsot”
- C) “Kitob an-tanbix”
- D) A va V javoblar to‘g‘ri

45. Al-Ma’sudiyning qaysi asarida jahon xalqlarining tarixi, ijtimoiy siyosiy ahvoli, urf-odati haqida ma’lumot keltirilgan?

- A) “Kitob al-rasoil”
- B) “Kitob ut-tavorix”
- C) “Xazoin ul-mulin”
- D) “Murri az-zaxob”

46. Abu Zayd Ahmad Ibn Saxl al-Balxiyning “Suvar al axolim” kitobi asosida 930-933 yillar o‘zining “kitob masolik ul-mamolik ul-mamolik” nomli qimmatli asarini yozgan tarixchi olim?

- A) Istahriy
- B) Ibn Xavqal

- C) Utbiy
- D) Al-Muqaddasiy

47. Ibn Xavqalning arab klassik geografiya maktabi atamalari, uslubida yozilgan asari?

- A) "Kitob ul maolik va-l-mimolik"
- B) "Kitob su'rat al arz"
- C) "Suvart al-aqolim"
- D) A va S javlblar to'g'ri

48. Al-Muqaddiyning "Axsam at-taqosim fi ma'rifat al-aqolim" nomli asrining birinchi qaysi sulolaga bag'ishlab yozilgan?

- A) Qoraxoniylar
- B) G'aznaviylar
- C) Somoniylar
- D) Saljuqiylar

49. O'z davrining yirik olimi va shoiri bo'lgan as-Solimiyning kasbi nima bo'lgan?

- A) Kosib
- B) Duradgor
- C) Tulki terisidan po'stin tikib sotish
- D) Naqqosh

50. As-Solibiyning O'rta Osiyo va O'zbekiston xalqining X-XI asrdagi madaniyatini o'rganishda, qaysi asar alohida ahamiyat kasb etadi?

- A) "Yamimit ad-daxr"
- B) "Kitob al- hurur"
- C) "Milorim ul-Axloq"
- D) A va V javoblar to'g'ri

51. As-Saolibiyning Buxoroning X asrdagi adabiy muhitni o'rganishda asosiy manba bo'lib xizmat qilgan asari?

- A) "Kitob ut Tamsil"
- B) "Makorim ul axloq"
- C) "Lotif ul- maorif"
- D) "Yalshit al-daxr"

52. G'aznaviylarning Xurosondagi noibi Abu Muzaffar Nasr Ibn Nasriddinning topshirig'iga ko'ra yozilgan As-Solibiy asari?

- A) "Yatima ud-daxr"
- B) "G'urur axbar muida ul-fors siyaruxum"
- C) "Makorim ul-axloq"
- D) "Kitob ut-tamsil"

53. "Yatimat ad-daxr" asari fransuz tiliga kim tomonidan o'girilgan?

- A) Borbe de Meynard
- B) R.Dovarxit
- C) Valeton
- D) M.Ya.de Gude

54. "G'urur axbor muluk ul-srur va Siyaruxum" asarida Eron podsholari tarixi nechanchi jildlarda o'z aksini topgan?

- A) II-III jild
- B) I jild
- C) II jild
- D) III jild

55. Abu Abdullox Muxammad Al-Xorazimiyning "Mafotix ul-ulum" asarining O'zbekiston uchun ahamiyatli bo'lgan tomoni?

- A) bu yerlarda amalda bo'lgan sug'orish o'lchovchilari haqida muhim ma'lumot beradi.
- B) soliklar haqida ma'lumot beradi
- C) Ijtimoiy ahvolni mufassal ochib beradi.

D) turli xalqlarni urf-odatlarini ko'rsatib beradi.

56. Abu Rayxon Beruniy yirik olim Abu Saxl Iso al-mashxiyddan qanday ilm sirlarini o'rgandi?

- A) tibbiy ilmni
- B) falsafa ilmini
- C) riyoziyot ilmini
- D) falakiyot ilmini

57. Abu Rayxon Beruniy Shomda mustaqil ravishda astronomiya kuzatishlarini olib borganida necha yoshda bo'lgan?

- A) 20 yoshda
- B) 17 yoshda
- C) 21 yoshda
- D) 25 yoshda

58. Abu Rayxon Beruniy Elliktepa tepaligini ekvatorga qanchalik qiyaligini o'lchab berganda necha yoshda edi?

- A) 17 yoshda
- B) 18 yoshda
- C) 19 yoshda
- D) 20 yoshda

59. Beruniyni majburiy tarzda G'aznaga nechanchi yilda olib kelishdi?

- A) 1125 y
- B) 1177 y
- C) 1017y
- D) 1120 y

60. Beruniy “Osoriy ul Boqiya” asrini qaysi shaharda yozib tamomlagan?

- A) Rayda
- B) Isfaxonda
- C) Isfijobda
- D) Jurjonda

61. Beruniyning “Hindiston” asari nechanchi yil qayerda yozilgan?

- A)1035 G‘aznada
- B)1042 y Qobulda
- C)1016 y Xorazmda
- D)1035 y Dehlida

62. Beruniyning “Tarixi Xorazm”, “Mashoxiri Xorazm” asarlari nechanchi davrlarni o‘z ichiga oladi.

- A)1018-1019 yillarni
- B)1018-1035 yillarni
- C)1017-1042 yillarni
- D)1017-1043 yillarni

63. “Mashoxiri Xorazm”, “Xorazm tarixi” asarlari bizgacha yetib kelmagan. Ulardan parchalar qaysi tarixchi asarlari orqali bizga yetib kelgan?

- A) Abulfazl Bayxaqiy
- B) Yoqut Xamaviy
- C) Ibn Mayonavayi
- D) A va V javoblar.

64. Ibn Maskaviyxning : jilddan iborat umumiy tarix asari?

- A)”Kitob fi-axbor”
- B)”Mifloix ul- ulum”
- C)”Lamolif ul-Ma’orif”
- D)”Kitob Tajariy ul-umam”

65. Maxmud Qoshg'ariyning "Devoni lug'oti turk" asari kimga bag'ishlangan?

- A) xalifa Muqta'diyga
- B) Dodiloxgorga, Dodsipoxdolorga
- C) xalifa Xoruun ar-Rashidga
- D) xalifa Masudiyga

66. Maxmud Qoshg'ariyning "Devoni lug'oti Turk" asari nechanchi yillar oralig'ida yozilgan?

- A) 1078-1080 yillar
- B) 1072-1077 yillar
- C) 1075-1078 yillar
- D) 1070-1072 yillar

67. Manbashunoslikning vazifalari berilgan qatorini toping.

- A) Manbashunoslikning vazifalari berilgan qatorni toping.
- B) Manbalarni chuqur va atroflicha tadqiq etish.
- C) Manbadagi faktlarning obyektivligini aniqlash.
- D) Hammasi to'g'ri.

68. Tarixiy manbalarni umumiy xarakteriga ko'ra necha turga bo'lishimiz mumkin.

- A) 4 ta
- B) 6 ta
- C) 5 ta
- D) 2 ta

69. Etnografik manbalar ta'rifi to'g'ri berilgan qatorni toping?

- A) Xalqlarning kelib chiqishi bilan bog'liq bo'lgan masalalar.
- B) Og'zaki adabiyot namunalari.
- C) O'tmishdan qolgan ijtimoiy- iqtisodiy atamalar.
- D) Donishmandlik manbalari.
- E) Yuqoridagilarni barchasi.

70. Manbalarni qanday turkumlash maqsadga muvofiq.
- A) Mazmuniga qarab.
 - B) Qachon va qayerda yozilganligiga qarab.
 - C) Turkumlarga qarab.
 - D) Manbalarning avtografik yoki ko'chirma nusxasiga qarab.
71. O'rta Osiyo tarixi manbalari (yozma) qanday turkumlarga bo'lib o'rganishimiz mumkin.
- A) Hukumat chiqargan qonunlar va farmonlar.
 - B) Rasmiy hujjatlar.
 - C) Tarixiy,geokosmografik, hamda biografik asarlar.
 - D) Barchasi javoblar to'g'ri.
72. Bexistun yozuvi qaysi tillarda bo'lgan?
- A) Sug'd, fors, elam
 - B) Elam, bobil qadimgi eron tillarida.
 - C) Elam, bobil.
 - D) Qadimgi eron, fors, bobil.
73. Zardushtiylik bilan bog'liq "Zoroastr" so'zining lug'aviy ma'nosi nima?
- A) Quyosh
 - B) Tuyuq
 - C) Yulduz
 - D) Oy
74. Gerodotning "Tarix" nomli asari necha qismdan, ya'ni kitobdan iborat?
- A) 5 kitobdan
 - B) 8 kitobdan
 - C) 9 kitobdan
 - D) 6 kitobdan

O'QUV QO'LLANMA

75. Arrian Flaviyning qaysi asari O'rta Osiyo va Eron tarixini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi?

- A) Toshkent
- B) Buxoro
- C) Tarix
- D) Aleksandrning yurishlari haqida

76. Maroqand hozirgi kunning qaysi shahri o'rnida bo'lgan?

- A) Toshkent
- B) Buxoro
- C) Samarqand
- D) Xo'jand

77. Xitoy manbalarini yozilishiga sabab nima edi?

- A) Tarixni o'rganish uchun
- B) Xitoy hukmdorlarining maqsad va manfaatlarni ko'zlab
- C) O'rta Osiyo tarixini o'rganish uchun
- D) O'rta Osiyo hukmdorlariga tortiq qilish uchun

78. Mug' qal'a xarobalaridan hujjatlar qachon topildi?

- A) 1932 yil
- B) 1978 yil
- C) 1936 yil
- D) 1908 yil

79. 1990-1991 yilda Qur'oni Karimni kim zamonaviy o'zbek tiliga o'girdi?

- A) Bobobekov Xolisxon
- B) Alovuddin Mansur
- C) Alixonto'ra Sog'unliy
- D) Amir Fayzulla

80. Qur'oni Karim necha suradan iborat?

- A) 128
- B) 104
- C) 114
- D) 101

81. Ismoil Al Buxoriyning asarini toping?

- A) Al Jome-as Saxix
- B) Kitob al- magoziy
- C) Kitob al- buldon
- D) Xadis to'plamlari

82. Beruniyning tarixiga oid asarlarini ko'rsating?

- A) Tarixi Xorazm.
- B) Osar ul-boqil anal-qurun al xoliya
- C) Oq kiyimlilar va karomadlarning xabarlar haqida
- D) Hammasi to'g'ri

83. Zafarnomani yozmagan muallifni toping?

- A) Nizomiddin Shomiy
- B) Ali Yazdiy
- C) Xamdushox Kazviniy
- D) Rashiduddin

84. Muxammad Qoshg'ariyning asari qaysi?

- A) "Devonu lug'at turk"
- B) "Qutadg'u bilig"
- C) "Zaynat ul-kuttob"
- D) "Zayn ul- axbor"

85. Rashiduddinning "Jome ut-tavorix" asari kimning topshirig'i bilan yozilgan?

- A) G'ozbixonning
- B) Maxmud G'aznaviy

O'QUV QO'LLANMA

- C) Nux ibn-Asadning
- D) Ulug'bek Mirzoning

86. Nizomiddin Shomiyning "Zafarnoma" asari qaysi yillarda yozilgan?

- A) 1408- 1415 yil
- B) 1402- 1404 yil
- C) 1403- 1405 yil
- D) 1456- 1458 yil

87. Rui Gonsales de Klavixo qaysi davlatning elchisi edi?

- A) Italiya
- B) Fransiya
- C) Ispaniya
- D) Xitoy

88. Temur "Tuziklari" da davlatning asosini nechta ijtimoiy toifa tashkil etadi?

- A) 9 ta
- B) 11 a
- C) 12 ta
- D) 14 ta

89. "Shayboniynoma" asarining muallifi kim?

- A) Kamoliddin Binoiy
- B) Xondamir
- C) Muxammad Yusuf Muniy
- D) Muhammad Solix

90. Sharofiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma"asari kimning istagiga binoan yozilgan?

- A) Ibroxim Sulton
- B) Ulug'bek Mirzo
- C) Amir Temur

D) Bobur Alovuddavlaning

91. Turkistonga A.Jenkinson?

- A) 1555 yil keldi
- B) 1588 yil keldi
- C) 1561 yil keldi
- D) 1528 yil keldi.

92. “Orenburgdan Buxoroga sayohat” asarining muallifi kim?

- A) Meyndorf
- B) V Sheyder
- C) Bekovich Cherkasskiy
- D) Evereman

93. “Shajarayi turk” asarining muallifi kim?

- A) Xondamir
- B) Ali Xon to‘ra Sog‘uniy
- C) Abulg‘oziy Baxodirxon
- D) Binoiy

94. O‘zbek va tojik xalqlarining shakllanish davrini toping?

- A) XIII-XIV asr
- B) XV-XVI asr
- C) IX-XII asr
- D) V-VI asr

95. O‘zbek xalqi va uning davlatchiligi tarixini xolisona o‘rganish maqsadida Vazirlar mahkamasining qarori qachon chiqdi?

- A) 1998 yil 27 iyul
- B) 1991 yil 11 sentyabr
- C) 1996 yil 26 dekabr
- D) 1993 yil 5 may

O'QUV QO'LLANMA

96. O'zbekiston respublikasining mustaqilligiga oid tarixiy manbalarni ko'rsating?

- A) O'zbekiston Davlat tili haqidagi qonunlari
- B) O'zbekiston Respublikasi deklaratsiyasi
- C) O'zbekiston Respub-si Davlat mustaqilligi to'g'risidagi qonuni
- D) Hammasi to'g'ri

97. 1991 yil 31 avgustdagi O'zbekiston Respublikasining mustaqilligi to'g'risidagi qonun necha moddadan iborat?

- A) 25 ta
- B) 18 ta
- C) 17 ta
- D) 21 ta

98. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi I-bobi qanday nomlanadi?

- A) Asosiy prinsiplar
- B) Davlat suvereniteti
- C) Tashqi siyosat
- D) Umumiy qoidalar

99. "Tarixi Jadidai Toshkand" asarining muallifi kim?

- A) Muhammad Solix Toshkandiy
- B) Muhammadxo'ja Bexbudiy
- C) Ahmad Donish
- D) Mirzo Buxoriy Abdullo

100. Angiliya hukumati kimlarni xonliklarga maxsus komissiya qilib yubordi?

- A) Staddort va Konnalini
- B) Bekovich Cherkasskiy
- C) Jenkinson va Beneveni
- D) To'g'ri javob yo'q

101. Turkiston o'lkasini boshqarish to'g'risidagi nizomni chor hukumati qachon tasdiqlangan?

- A) 1867 yil
- B) 1863 yil
- C) 1853 yil
- D) 1866 yil

102. 1870 yilda Toshkentda qanday nom bilan kutubxona ochildi?

- A) Alisher Navoiy kutubxonasi
- B) O'rta Osiyo xalqlari kutubxonasi
- C) Turkiston xalqlari kutubxonasi
- D) To'g'ri javob yo'q.

103. General Perovski Oq machitni qachon egalladi?

- A) 1865 yilda
- B) 1863 yilda
- C) 1853 yilda
- D) 1848 yilda

104. Sulton Husayn Boyqaro hukmronlik qilgan yillarni toping?

- A) 1470-1506 y
- B) 1409-1449 y
- C) 1409-1451 y
- D) 1501-1551 y

105. Kishilik jamiyati qancha davrni o'z ichiga oladi?

- A) 3 million yillik
- B) 2 million yillik
- C) 5 million yillik
- D) million yillik davrni

O'QUV QO'LLANMA

106. Xalq og'zaki adabiyotiga misol bo'lmaydigan qatorni toping?

- A) Alpomish
- B) Go'ro'g'li
- C) To'maris
- D) Avesto

107. Sfragistika fani nimani o'rgatadi?

- A) Pullar ularning shakli va vazni
- B) Qadimiy muhrlarni o'rganadi.
- C) Tangashunoslik
- D) Tamg'alarni o'rganadi.

108. Epigrafika nimani o'rgatadi?

- A) Suyakshunoslik
- B) Predmet ustiga o'yib yozilgan qadimiy yozuvlarni
- C) Elat va xalqlarni kelib chiqishini
- D) Tanga, pulni o'rganadi.

109. Shiroq jasorati kimning asarida hikoya qilinadi?

- A) Strabon
- B) Kursiyruf
- C) Poliyen
- D) Gerodot

110. Zardusht qachon yashagan?

- A) Er avval VI asr
- B) ER avval I asr
- C) Er avval VII asr
- D) Er avval IV asr

111. "Oks" hozirgi qaysi daryoning nomi?

- A) Sirdaryo
- B) Amudaryo
- C) Zarafshon
- D) Chirchiq

112. Strabonni mashhur qilgan asari?

- A) Tarix
- B) Geografiya
- C) Buyuk Aleksandr tarixi
- D) Maroqand

113. Hijriy I-asr milodiy qaysi yillarni o'z ichiga oladi?

- A) 622-722 y
- B) 722-822 y
- C) 822-922 y
- D) 922-1022 y

114. 1998 yilda Imom Buxoriy tavalludining necha yilligi nishonlandi?

- A) 1200 y
- B) 1000 y
- C) 1225 y
- D) 1110 y

115. Xorazmshohlar sulolasi qaysi davlatning noibligidan kelib chiqdi?

- A) Qoraxoniylar.
- B) Saljuqiylar.
- C) Qora xitoylar
- D) G'aznaviylar

116. Tarixiy manba deganda nimani tushunasiz?

- A) Jamiyat rivojlanishining ma'lum bosqichida o'zida o'tmishning o'sha davrini aks ettirgan yozma manbalar.
- B) Jamiyat rivojlanishi ma'lum bosqichda insonlar hayoti turli jabhalarining o'ziga xos xususiyatini aks ettiruvchi.
- C) O'tmish ma'naviy yodgorliklari
- D) Barcha javoblar to'g'ri.

117. Manbashunoslik fani vazifalari to'g'ri ko'rsatilgan qatorni ko'rsating?

- A) tarixiy manbalarni topish
- B) tarixiy manbalarni turkumlash va taqiq etish
- C) manbada o'z aksini topgan yoki bayon etilgan voqealar keltirilgan faktlarning to'la va obyektivligini aniqlash
- D) Barcha javoblar to'g'ri

118. Tarixiy manbalarni ularning umumiy xarakteri va o'tmishini o'zida aks ettirishiga qarab necha asosiy guruhga bo'lish mumkin va ular qaysilar?

- A) 5ta asosiy guruhga bo'lish mumkin; ular moddiy manbalar, etnografik manbalar lingvistik manbalar, xalq og'zaki adabiyoti, yozma manbalar.
- B) 3ta asosiy guruh; moddiy, etnografik, lingvistik manbalar.
- C) 4ta asosiy guruh; moddiy, yozma, etnografik, yozma manbalar.
- D) Tarixiy manbalarni bo'lish mumkin emas.

119. Manbashunoslik qaysi sohalarni qo'lga kiritgan yutuqlarga tayanadi?

- A) Poleografiya, mineralogiya, sфраagistika, numizmatika.
- B) Diplomatiya, metrologiya, xronologik sohalar.
- C) Numizmatika, sotsiologiya, sфраagistika.
- D) A va V javoblar to'g'ri.

120. Manbashunoslik fanida manbalarni qaysi jihatiga qarab turkumlash lozim topilgan?

- A) Manbalarni mazmuniga qarab turkumlash.
- B) Manbalarni qachon va qayerda yaratilganiga qarab turkumlash lozim.
- C) Manbalarni turga qarab turkumlash
- D) Manbalarni turkumlash imkoni yo'q.

121. O'rta Osiyo tarixi manbalarni qanday guruhlariga bo'lib o'rganishi mumkin?

- A) 3 turga: hukumat qonunlari va farmonlari, hujjatlar.
- B) 3 turga hukumat qonunlar va farmon
- C) 2 turga: geokosmografik va biografik asarlar
- D) 2 turga rasmiy hujjatlar va biografik asarlar

122. Yozma manbalarning tashqi belgilari deganda nima tushuniladi?

- A) Manbani muqovasi, qog'ozi va xati.
- B) Manbani yozilgan vaqti asosi muallifi.
- C) Manbaning yozilish sanalari asar yozilgan vaqtdagi muhit
- D) A,B,C javoblar to'g'ri

123. Manbaning ichki belgilarga qarab tahlil qilish deganda qanday masalalar anglatiladi?

- A) Manbani mazmuniga qarab tushuntirish masalasi?
- B) Manbani yozish vaqtidagi ijtimoiy siyosiy muhitni aniqlash masalasi
- C) Manbani g'oyaviy siyosiy va ilmiy qiymatini aniqlash masalasi
- D) A va C javoblar

O'QUV QO'LLANMA

124. Tarixning asosiy manbai bo'lgan yozuv va uning manbalari paydo bo'lishi miloddan avvalgi nechanchi ming yilliklarga borib taqaladi?

- A) IV-V ming yilliklar
- B) VI-V ming yilliklar
- C) III-I ming yilliklar
- D) IV-III ming yilliklar

125. O'rta Osiyoda topilgan arxeologik manbalarni shartli ravishda necha turga bo'lish mumkin?

- A) 2 turga: san'atga oid manba, tabiiy manba
- B) 2 turga: tabiiy manba inson tomonidan yaratilgan manbalar mehnat qiliga oid qurol yarog'lar.
- C) 3 turga san'atga oid manbalar tabiiy manbalar mehnatga tegishli manbalar
- D) 3 turga inson tomonidan yaratilgan manbalar mehnat qilishga oid qurol yarog'lar san'atga oid manbalar.

126. Mashhur Bexustun yozuvlarida qaysi xalq harakatlari haqida hikoya qilinadi?

- A) 523-22 yillarda Axamoniylar imperiyasini larzaga solgan Gaumata boshchiligidagi qozg'olon haqida.
- B) Marg'iyonalik Frada boshliq qo'zg'olon haqida.
- C) Qozog'iston va O'zbekiston hududida istiqomat qilgan sak qabilalari yetakchisi Skunka boshliq xalq harakatlari haqida.
- D) A va C javoblar to'g'ri

127. "Avesto" da "Serquyosh mamlakat" fuqarosi kun va garovga boy qudratli va muqaddas "shon shavkati olamni tutgan mamlakat"-deb yozilganda qayerlar nazarda tutilgan?

- A) Xorazm, Sug'diyona, (Ustrashona), Marv Baqtriya
- B) Xorazm, Nasaf, Usturshona, Araks.
- C) Parfiya, Aleksandriya, Esxata, Marv.
- D) Baktriya, Marv, Varaxron

128. Quyidagi qaysi qatorda o'z asarida ikki daryo Oks va Yaksart oralig'idagi voqealarni boshqalarga kura ancha keng ifodalangan qadimgi davr tarixchisi to'g'ri ko'rsatilgan javobni toping?

- A) Strabon
- B) Arrian Flaviiy
- C) Kvint Kursi Ruf
- D) Gerodot

129. IV-XI asrda So'g'd koloniyalarining ijtimoiy ahvoli haqida ayniqsa O'rta Osiyo bilan sharq mamlakatlari o'rtasidagi savdo aloqalari va bunda sug'diylarning roli qimmatli ma'lumotlar beruvchi yozuv quyidagi qaysi qatorda ko'rsatilgan?

- A) Shimoliy Eronda Gagra nomli tik qoyaga bitilgan Bexustin yozuvlari
- B) A. Steyn tomonidan 1907 yilda Dun'xuan Xitoyning Gansu viloyatida va Turfonda sharqiy Turkistondan topilgan hujjatlar
- C) Xorazm Talas shahridan 7-8 km shimolda joylashgan Kulonsoy xamda Teraksoy daralarida qoya toshlarga o'yib bitilgan yozuvlar.
- D) B va C javoblar to'g'ri

130. Mug' qal'asi xarobalaridan topilgan hujjatlar qaysi qadimiy hudud hayotini o'rganadi muhim manba rolini o'ynaydi?

- A) Sug'dning VIII asrning 1-choragidagi hayoti
- B) Xorazmning X asrdagi hayoti
- C) Marvning VI asr 2-choragidagi hayoti
- D) A va V javoblar.

131. Mug' qalasi Xarobalaridan topilgan hujjatlar qanday tillarda yozilgan?

- A) Qadimiy So'g'd, Xitoy va Turk tilida
- B) Qadimiy So'g'd, Fors va Arab tilida

O'QUV QO'LLANMA

- C) Qadimiy So'g'd, Xtoy va Turk tilida
- D) Arab, Xitoy, Turk va Fors tillarida
- E) Fors, Turk, Xind tillarida

132. Hijriy III asrda hadisni ta'lif etish sohasida qanday yo'nalishlar vujudga keldi?

- A) Musnad, zaif, sunan
- B) Xadis, sunan, musnad
- C) Xadis, musnad, sunnat
- D) Musnad, saxix, sunan

133. Hadis ta'lif etilishining "Saxix" yo'nalishiga kim asos soldi?

- A) Abdullox ibn Muso
- B) Ishols Axmad ibn Xanbal
- C) Imom al-Buxoriy
- D) Iso at-Termiziy

134. Mavarounnahrda birinchi bo'lib hadis to'plamini ta'rif etgan muqaddas kishi?

- A) Imom Ismoil al-Buxoriy
- B) Imom Abdullox ibn Muborak al-Marvaziy
